

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI**

**YOSH PEDAGOGIKA VA  
PSIHOLOGIYASI**

o'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2011

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma "Yosh pedagogika va psixologiyasi" fanidan ma'ruza mashg'ulotlari uchun 5140900-"Kasb ta'limi" (madaniyat va san'at) yo'nalishi bo'yicha bakalavriatda ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

**Tuzuvchi:** **D.D.Elchieva** – "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** **Z.X.Kasimova** – Pedagogika fanlari nomzodi, dosent  
**M.Yu.Mahkamova** – Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti

Mazkur qo'llanma ToshDMI o'quv-uslubiy kengashida muhokamadan o'tgan va institut Ilmiy Kengashining 2009 yil \_\_\_\_\_ -sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Yosh pedagogika va psixologiyasi fanining maqsadi yosh davrlarining asosiy hususiyatlari rivojlanishining yosh bosqichlari ta'lim tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallash.

Yosh pedagogika va psixologiya fanining vazifalari: Fan doirasida nazariy va amaliy bilimlarni qo'lga kiritish. Rivojlanishning yosh bosqichlarida uchraydigan o'zgarishlar yuzasidan ma'lumotlar berish. Ta'lim tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil qilishning psixologik mexanizmlari bilan tanishtirish.

### **Yosh pedagogika va psixologiyasi fanining predmeti**

Yosh pedagogika va psixologiyasining predmeti va vazifalari. Yosh pedagogika va psixologiyasi fan sifatida aniqlovchi omillar. Uning biologik, sotsiogenetik va kompleks yo'nalishlari.

Psixik rivojlanishning shart-sharoitlari va harakatlantiruvchi kuchlari. Rivojlanishning kategoriyalari yosh psixologiyasini rivojlanishida sifat va miqdor tushunchasi haqida, psixikani harakatga keltiruvchi kuch sharoitida ziddiyatlar, psixik rivojlanish qonuniyatlari.

### **Psixologiyada yosh tushunchasi**

Yoshning rivojlanish hususiyatlari, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, irsiyat, xarakter, tarbiya, bolalikning ijtimoiy-tarixiy davrlari psixik yosh davrining yangilanishi va sentiziv davri inqiroz tushunchalarning mohiyati ko'rsatilgan.

### **Psixik rivojlanish nazariyalari**

Mushohadali savollar: tabiat va tarbiya, organizm yoki mexanizm uzluksiz va sakrab-sakrab, genetik epistemologiya J.Piaje A.Vallon bo'yicha kognitiv rivojlanish bosqichlari, L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasi K.Kolbergezning ahloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi yoritilgan.

Go'daklik davri (2 oy-1 yoshgacha) jismoniy va motor rivojlanish sensor va perseptiv rivojlanish kognitiv rivojlanish predmetlar bilan xotira, o'ynash, yaxlitlik jarayonlari tajriba va miyaning rivojlanishi, go'daklik davrlarida nutqning rivojlanishi so'zli davr birinchi so'z va gap, kognitiv va perseptiv jarayonlarning erta rivojlanishi shart - sharoitlari jonlanish kompleksi ko'rsatilgan.

Ilk bolalik (1y-3y-gacha). Ilk bolalik davrida anatomik fiziologik va jismoniy hususiyatlarni rivojlanishi bo'y, tana va bosh miyaning rivojlanishi, harakat malakalar, kognitiv va nutqning rivojlanishi, bola tafakkurida egotsentrizm predmetli harakatni faoliyatini rivojlanishi. O'yin, ilk bolalik davrida o'yinni turlari va uning kognitiv rivojlanishidagi ahamiyatiga toxtalib otilgan.

Maktabgacha tarbiya yosh davri (3 yoshdan 7 yoshgacha) jismoniy va motor rivojlanish jismoniy o'sish va funksional o'zgarishlar, ichki o'zgarishlar harakat malakalarini rivojlanishi jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni tashkillashtirish, kognitiv rivojlanish bolani maktab ta'limiga tayyorlash yuzasidan ma'lumot berilgan.

Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 10 gacha) jismoniy va motor rivojlanish jismoniy o'sish va funksional o'zgarishlar ichki o'zgarishlar, harakatlar malakalarini rivojlanishi, jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni tashkillashtirish, kognitiv rivojlanish, oliy psixik funksiyalarni faol shakllanishi ko'rsatilgan.

O'smirlik davri (11 yoshdan 14 yoshgacha) jismoniy va motor rivojlanish, jismoniy o'sish va funksional o'zgarishlar va ichki o'zgarishlar, pubertat tushunchasi va yoshning pubertat krizislari. Jinsiy identik va seksual hulq-atvor. O'smirlik davrida kognitiv o'zgarishlar

Ilk o'spirinlik davri 15 yoshdan 17 yoshgacha jismoniy va psixik rivojlanish jismoniy o'sish va funksional o'zgarishlar va ichki o'zgarishlar seksual ustanovkalarni rivojlanishi o'spirinlik davrida kognitiv o'zgarishlar.

Ilk yetuklik 20 yoshdan 40 yoshgacha. Ilk yetuklik davrida rivojlanish vazifalari. Ijtimoiy talablarda yoshning hususiyatlari. Hayotiy vazifalarni aniqlash, ilk yetuklik davrida jismoniy rivojlanish, jismoniy kuch va chidamlilik, jismoniy rivojlanish shakllari va salomatlik.

O'rta yetuklik 40 yoshdan va ----yoshgacha O'rta yetuklik davrida jismoniy rivojlanish hayot davrdagi inqiroz, kognitiv rivojlanish, kognitiv malaka va vositalari, intellekt funksiyalarini o'zgarish.

Kechikkan yetuklik va yosh undan keyingi psixogerantologiya tushunchasi qarilik ijtimoiy va psixologik muammo sifatida, qarilik davrida funksional o'zgarishlar, qarishning sabablari, nazariy jihatlari.

Pedagogik psihologiya shakllanishining hozirgi holati. Pedagogik psihologiya- fanlararo ilmiy bilim sohasi. Pedagogik psihologiyani shakllanish tarixi. Pedagogik psihologiyada ta'lim muhim ob'ekt . Ta'lim ko'pqirrali fenomen sifatida. Hozirgi zamon ta'limida o'qishning asosiy yo'nalishi. Shaxsiy faoliyatli yo'nalishi. Shaxsiy faoliyatli yo'nalish asosi sifatida. Ta'lim psihologiyasi. O'qish haqida umumiy tushuncha. O'qish maqsadga yo'naltirilgan faoliyat. O'qish faoliyat sifatida o'quv faoliyatining tuzilishi. Ta'lim jarayonida tushuncha va bilimlarni shakllantirish. Bilimlarni asosiy shakllanish ilmiy tushunchalarini shakllanish usullari yoritilgan.

## YOSH PEDAGOGIKA VA PSIHLOGIYASI FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI

### Reja:

1. Yosh pedagogik psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Ularning rivojlanish tarixi.
2. Komil inson muammosi Sharq mutafakkirlarining qarashlarida. Bolalar psixologiyasi va pedagogik-psixologiya yo'nalishlarining tanqidi.
3. Fan sifatida yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning vujudga kelishi, rivojlanish tarixi va hozirgi holati. V.S.Vigotskiyning oliy psixologik funksiyalarining rivojlanish tarixi.
4. Hozirgi zamon yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya.
5. Pedagogiya va uning tanqidi. Pedagogik psixologiyaning metodlari.

### Tayanch tushunchalar:

Egizaklar metodi, longityud metodi (uzunasiga kesim metodi), yosh pedagogikasi va psixologiyasi, ta'lim-tarbiya nazariyalari, tashkiliy metod, empirik, natijalarni qayta tiklash, sharxlash.

Mamlakatimizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari ta'lim-tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijobiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilish lozim bo'ladi.

Bu borada yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya-hozirgi zamon psixologiya fanining eng rivojlangan tarmog'i bo'lib, u inson psixik jarayonining tabiati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari bir-biriga uzviy bog'liqdir, chunki ularning har ikkisi bitta umumiy jarayonni-ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda uning hulq-atvorini tadqiq etadi. Bu ikki fan o'z navbatida psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri o'z predmet va o'z tadqiqot vazifasiga egadir.

Yosh davrlar psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlarining psixik taraqqiyoti umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishning o'sishini, shuningdek turli yosh davrlarining psixologik hususiyatlarini o'rganadi.

*Ontogenez* - (yunoncha, ontos-mavjud, jon, zot; genesis-kelib chiqish, paydo bo'lish) individning paydo bo'lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarining rivojlanishidagi qonuniyatlar, undagi yetakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos hususiyatlar - yosh davrlar psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlar psixologiya fani ham o'z navbatida o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rganilsa yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi tabiiydir.

Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari mavjud. Bu qonunlar yosh psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi, bular: bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (yoki gerontopsixologiya) psixologiyasidir.

Yosh psixologiyasi fanining nazariy vazifalari g'oyat muhim va murakkab bo'lib, u shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri hususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Yosh psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi hamda inson shaxsi psixologik hususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kiritilgan ilmiy dalillarni ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiiq qilish tashkil etadi.

Bu borada ayniqsa pedagogik psixologiya birmuncha ulkan yutuqlarga erishdi. Pedagogik psixologiyaning ta'limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki, keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta'lim tizimlarida ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan, interfaol ta'lim metodlari) joriy qilinmoqda.

**Pedagogik psixologiya** - ilmining tarmog'i sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

Bolalar va yoshlarning maktabdagi hamda boshqa ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va hatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandır. Pedagogik psixologiyaning predmeti maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlari tashkil etadi. Pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiyaning ta'siri bilan o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ham tadqiq etadi. Bundan tashqari, o'quv materiallarining o'quvchilarga mos kelishi, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligi, darsliklar, o'quv qurollari, asbob-uskunalar va maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham pedagogik psixologiya o'rganadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiyaning eng muhim vazifalaridan biri maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu narsa yangi ta'lim dasturiga o'tish munosabati bilan bog'liqdir. Pedagogik psixologiya shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi.

Pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi fandır. Buning ma'nosi shuki, pedagogik psixologiya o'quvchilar tomonidan bilim, iqtidor va malakalarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini va shuningdek, o'quv-tarbiya protsessida o'quvchilar shaxsining tarkib topishini o'rganadigan fandır.

Pedagogik psixologiya fani o'quvchilar shaxsining tarkib topishini va ularni o'qitish masalalarini o'rganar ekan, birinchi navbatda bolalar psixologiyasi bilan uzviy bog'liqdir, chunki bolalarning yosh va individual hususiyatlarini hisobga olmay turib, o'quvchilar shaxsining tarkib topishini, ularni o'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini aniqlab bo'lmaydi.

Pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning asosini o'rganib va ishlab chiqib, o'qitishning va tarbiyaning mazmunini tashkil qiladigan darsliklarga va turli o'quv qurollariga bo'lgan talabni aniqlash, o'qitish va tarbiyaning ratsional va samarali metodlarini topish, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilarning bilimlarga e'tiqod qilishiga erishish qonuniyatlarini ochish; o'quvchilarni mehnat va ijtimoiy faoliyatiga tayyorlashning psixologik asoslarini ishlab chiqish imkoniyatiga egadir.

Pedagogik psixologiyaning vazifasiga, shuningdek o'quvchilar va o'qituvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabati, o'qituvchi shaxsga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'rganish, o'qituvchilik qobiliyatining mazmunini va uning tarkib topishini ochib berish va boshqa masalalarni ham o'rganish kiradi. Pedagogik psixologiya ta'lim muassasalarida o'qitish protsessida o'quvchilar tomonidan bilim va malakalarni egallashning qonuniyatlarini va tarbiya protsessida bola shaxsining tarkib topishini o'rganadi.

O'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini o'rganish pedagogik psixologiyaning predmetini tashkil qiladi. Bu fan o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar tafakkurining shakllanishini tekshiradi; o'zlashtirish protsessini idora qilish, aqliy faoliyat

usullari va malakalarining tarkib topish muammolarini o'rganadi, o'qitish protsessining, o'quvchi va o'qituvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning, ta'lim oluvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir qiladigan psixologik faktorlarni aniqlaydi; o'quvchilarning individual psixologik tafovutini, bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining psixologik hususiyatlarini o'rganadi.

**Yosh psixologiyasining predmeti** rivojlanayotgan inson shaxsining psixologik hususiyatlari va psixik jarayonlari ontogenezini va inson psixikasining har bir yosh davridagi o'zgarishini o'rganadi. Yosh psixologiyasining bo'limlariga quyidagilar kiradi: bolalar psixologiyasi, kichik maktab o'quvchilari psixologiyasi, o'smirlar, o'spirinlar, kattalar psixologiyasi, geronto psixologiyasi, ya'ni qariyalar psixologiyasi.

**Pedagogik psixologiyaning predmeti** ta'lim tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik masalalarini o'rganadi. Bilish jarayonlarining rivojlanishini tekshiradi. Aqliy taraqqiyotning ishonchli mezonlarini izlaydi. Tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro masalalarni o'rganadi. Bundan tashqari pedagogik psixologiya bolalarga individual yondashuv masalalarini ham o'rganadi.

### **Yosh pedagogikasi va psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi**

Pedagogik psixologiya XIX asrning 2-yarmiga kelib vujudga keldi va psixologiya faniga genetik g'oyalarning kirishi bilan yanada rivojlandi. Rus pedagogi *K.D.Ushinskiyning* asarlari pedagogik, psixologik g'oyalarning rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan u "*Inson tarbiya predmeti sifatida*" nomli asarida shunday deb yozadi: "Insonni har tomonlama tarbiyalaydigan pedagog uni har tomonlama bilishi kerak". XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida pedagogikada pedagogik eksperimentni qo'llashning maxsus yo'llari topildi. Umumiy psixologiyadagi eksperimentning sezilarli yutuqlari (*Veber va Fexner tomonidan psixofizik qonunlarning ochilishi, Lebengaus tomonidan xotiraning o'rganilishi*) uni yosh va pedagogik-psixologiyada ham qo'llash imkonini beradi. Pedagogik psixologiyaning rivojlanishidagi dastlabki tajribalar natijasida qo'yidagi xulosalar yuzaga keldi. Psixologiyaning pedagogik amaliyot bilan yaqinlashishi, ta'lim va tarbiya jarayonining eksperimental tadqiq qilinishi yo'lidagina mumkindir.

XX asr boshlarida bolalar psixik taraqqiyoti manbalarini har tomonlama talqin etuvchi 2 oqim paydo bo'ladi. Bu oqimlar bir-biridan bola taraqqiyoti asosiga qanday omilni olishiga qarab farqlaydilar:

1. Biogenetik oqim
2. Sotsiogenetik oqim

**1-oqim** tarafdorlarining fikricha, biologik omillar: irsiyat bola hayotini hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**2-oqim** tarafdorlarining fikricha, bola taraqqiyotining birdan-bir omili bu muhitdir. Insonni o'rganish uchun u o'sgan muhitni tahlil qilishning o'zi kifoya.

**Pedologiyaning mazmuni** bola taraqqiyotining psixologik-fiziologik, biologik nuqtai nazarlarining mexanik majmuidan iborat. Pedologiya XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga keladi. Asoschilaridan: Garbda S.Holl, E.Meymaya, Preyer, Rossiyada Bexterev, Nechaev, Rossolimov va boshqalar. Pedologiya asoschilari bola fiziologiyasi va pedagogikasini siqib chiqarib bolani o'rganishda yakka hukmronlikka da'vo qiladi. Pedologiya rivojlanayotgan insonni o'rganuvchi alohida ilmiy fanlardagi tadqiqot natijalarini qamrab oluvchi kompleks fan sifatida vujudga keldi. 30 – yillarning boshida pedologiyaning ko'p qoidalari tanqid ostiga olindi. Bu 1936 yil 4 iyul Partiya MK.ning Xalq ta'lim sistemasidagi pedologik buzilishlar haqidagi qarori bilan tugatildi.

Mashhur sovet psixologi V.S.Vigotskiy 20-30 yillarda o'zining oliy psixik funksiyalarining rivojlanishi nazariyasini e'lon qildi. V.S.Vigotskiy nazariy taraqqiyotining umumiy genetik qonunini quyidagicha aniqlaydi: "Bola madaniy rivojlanishida har bir funksiya 2 marta ko'rinadi: Dastlab ijtimoiy, so'ng psixologik; Dastlab interpsixik kategoriya sifatida bola

ichida ko'rinadi. Har bir oliy psixik funksiya o'z taraqqiyotida tashqi bosqich orqali o'tishi kerak".

Nihoyat, pedagogik psihologiya ta'lim – tarbiya jarayonining tashkilotchisi bo'lgan o'qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat hususiyatlarini o'rganadi. Bunda o'qituvchining ta'lim – tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlarni ajratib ko'rsatish bilan birga uning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psihologik jarayonlari aniqlanadi.

Yosh psihologiyasi ham pedagogik psihologiya singari umumiy psihologik qonuniyatlarni yoritib beradigan, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psihologik hususiyatlarini o'rganadigan umumiy psihologiyaga asoslanadi.

Shu bois, yosh pedagogikasi va psihologiyasi fanini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati qonunlariga, psixofiziologiya qonunlariga bu sohada to'plangan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

Yosh pedagogikasi va psihologiyasi ilmining alohida predmeti sifatida XIX – asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o'rtasida olib borilgan doimiy kurash katta ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psihologik qonuniyatlarini izchil, atroflicha, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti to'g'risida qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

*Abu Nasr Forobiy* pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psihologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tamonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm–fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf–odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi deb ta'kidlanadi.

*Abu Rayhon Beruniy* ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi.

Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxt–saodati, ta'lim–tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi *Abu Ali ibn Sino* inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

*Yusuf Xos Hojibning* bosh masalalaridan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi") asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l–yo'riqlarini usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir.



Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xirandnomai Iskandari”, “Tuhtaful ahror” va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb- hunar o’rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

Alisher Navoiyning “Xazoyinul maoniy”, “Mahbubul qulub” va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma’naviyati, o’zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to’g’risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolat qaror topish uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr mulohazalari alohida o’rin egallaydi.

Navoiy “Hamsa”sining har bir dostonida bukilmaz iroda, qa’iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg’ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek Mahmud Qoshg’ariy, Ulug’bek, Naqshbandiy, Ogahiyning yoshlar tarbiyasiga, ahloq-odob, fe’l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta’kidlash mumkin.

Yosh avlodning ta’lim va tarbiya bilan bog’liq psixologik muammolari yirik rus olimlari, faylasuf va yozuvchilarni ham muntazam jalb etib kelgan. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G’arb madaniyati ta’sirida inson ruhiyati bilan bog’liq turli asarlarda shakllanib kelgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar (XVII-XVIII asr) diniy-ahloqiy negizda yoritilgan. V.N.Tatishev, A.N.Radishev, N.I.Novikov va boshqalarning asarlaridagi dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotning o’ziga xos hususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo’g’rilgan.

Rus tarixchisi V.N.Tatishevning “Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to’g’risida suhbat” kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarning ahamiyati, til nutqining mavqei, yosh davrlarining hususiyatlari bilan bog’liqligi ko’rsatilgan.

A.N.Radishev birinchilar qatori bola psixik taraqqiyotini tabiiy-ilmiy yo’sinda asoslab berishga urindi. Uning “Peterburgdan Moskvaga sayohat” kitobi bu borada pedagogik-psixologik sirasidan munosib o’rin egallaydi. Yozuvchining fikricha inson tashqi muhit haqidagi taassurotlarini sezgilar orqali idrok etadi, shu yo’sinda uning tafakkuri, ulg’ayib shakllanadi.

N.I.Novikov bashariyat farovonligini ko’zlab, yoshlar va bolalar o’rtasida foydali bilimlarni keng targ’ibot etish uchun ularni o’ziga xos yo’sinda tarbiyalamoq zarur deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, ahloq, his-tuyg’u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Rossiyada yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixida K.D.Ushinskiyning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha psixologiya fanining asosiy vazifasi tarbiyaning maqsadini aniqlashga, ta’lim-tarbiya natijalarini to’g’ri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o’rin tutadi deb aytadi. K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya predmetidir” asarida pedagogik ta’sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik hususiyatlari, uning o’ziga xos tomonlari o’z aksini topgan.

Shuningdek, Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda N.F.Kapterev, I.A.Sikorskiy, A.P.Negaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, P.P.Blonskiy singari olimlar bu borada o’zlarining munosib hissalarini qo’shganlar.

Ta’kidlash joizki, ayniqsa, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, A.I.Lebnitsev, M.YA.Basovlar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi psixikaning madaniy-tarixiy taraqqiyot va taraqqiyotning o’zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqei singari ilmiy-nazariy qarashlar hozigi kun yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining tayanch tushunchalaridandir.

O’tgan asrning o’rtalarida vujudga kelgan turli nazariyalar, qarashlar, o’quv faoliyati va ta’limning talqinlari (D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, P.YA.Galperin, Z.I.Kalmikova, N.F.Galizina, D.B.Elkonin V.V.Davidov, L.V.Zankov, L.N.Landa, A.A.Lyublinskaya, N.V.Kuzmina va boshqalar) nafaqat pedagogik tajribani, balki psixologiya fanining bu tarmog’ini ilmiy-amaliy boyitishga asos bo’ldi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda o'quv materiallarini o'zlashtirishning mexanizmlari (S.L.Rubinshteyn, N.Kabakova-Meller, L.B.Itelson) haqida (P.I.Zinchenko, A.A.Smirnov, V.YA.Lyaudis), tafakkur (N.F.Shemyakin, A.M.Matyushkin), idrok (Yu.B.Gippenretter), bolalarda nutqning rivojlanishi (M.I.Lisina, A.A.Venger), shaxsning rivojlanishi (B.G.Ananev, L.I.Vojovich, V.S.Muxina), muloqot va nutq (V.A.Artemov, A.A.Leontev, V.A.Kan-Kalik), psixik rivojlanishning davrlari (P.P.Blonskiy, A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, B.G.Ananev, A.V.Petrovskiy), o'quvchilarning aqliy faoliyati va iste'dod muammolari (A.A.Bodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy)ga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar o'z fanining yanada rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik hususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya rivojlanishiga turtki bo'ldilar. Bu borada E.Meterman, S.Holl, K.Byuler, E.Klapared, E.Dyurkgeym, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, Dj.Bruner va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Olmon psixologi E.Meterman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga biror buyruq yoki farmoyish berib bo'lmaydi deb ta'kidlaydi. Uning fikricha eksperimental pedagogikaning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilmog'i darkor.

Amerikalik S.Holl har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Holl o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olg'a suradi.

Shveysariyalik psixolog E.Klaparez "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining hususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym ulg'ayish - kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning, ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

Yana bir fransuz psixologi P.Janenning fikriga ko'ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi insonning ulg'ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida hatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janenning ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayk, Dj.Uotson, F.Galton, A.Anastazi, A.Bike, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy hususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Bu ta'limotlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda ham yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda. Mazkur muammolar hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Vohidov,

M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Jumladan, o'quvchilarning texnik qobiliyatlari, o'quv motivlari, zamonaviy maktab o'quvchisining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari R.Gaynutdinov, A.Jabborov, F.Haydarovlar tomonidan, tafakkur va ta'limni boshqarish muammosi E.G'.G'ozievning tashabbusida, iste'dodli o'quvchilar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatova tomonidan samarali olib borilmoqda.

Hozirgi paytda respublikamizdagi yetakchi oliygohlarning kafedra va laboratoriyalarida o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jihozlangan sharoitlarda ilmiy-tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida unga ta'sir ko'rsatib kelgan barcha nazariyalar, ilmiy va amaliy ma'lumotlar, yo'nalishlar hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda va fanning istiqbolida ham muhim ilmiy – nazariy manba hisoblanib qolishi, tabiiydir.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fani ham psixologiya ilmining boshqa sohalar singari o'zining ilmiy – tadqiqot metodlariga ega.

**Biologik qonuniyatlarni** o'ta jiddiy, o'ylab tashkil qilingan hamda muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar orqali holisona aniqlash mumkin. Biologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlariga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

Muammoninig qo'yilishi. Har qanday ilmiy – tekshirish ishlari kabi, chunonchi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik ochilganini bilish uchun mazkur mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilishdan boshlanadi.

Tadqiqot metodikasini tanlash. Biologik tadqiqotlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritaladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan metodni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.

Aniq ma'lumotlarni to'plash. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos bo'lishi yoki ularni to'plash maqsadga muvofiq xarakterda olib borilishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talab ularning ob'ektiv, to'la va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoni har jihatdan xarakterlab berishi kerak.

Aniq ma'lumotlarni ishlash. To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy materiallardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan materiallarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va h.k.z), protsent va boshqalar aniqlanadi, songa oid ma'lumotlar jadvallarda joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o'z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qo'llaniladi.

Qonuniyatlarning ifodalanishi. Bu tadqiqotning eng qiyin va ma'suliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda ma'lumotlarning mohiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, bosqich ma'lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi.

Qonuniyatni amalda qo'llash. Aniqlangan qonuniyatlar ma'lum bir amaliyot sohasida qo'llaniladi. Amalda qo'llash aniqlangan qonuniyatning to'g'riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida hamisha shaxsiy tajribalarini va boshqalarning tajribalarini umumiyashtiradilar. Biroq shunday bo'lsa ham, har holda, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo'lmaydi, ya'ni, muhim aniqlik va teranlik bilan ajralib turmaydi.

***Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada bir necha metodlar mavjud:***

1. Kuzatish: tashqi, ichki
2. Eksperiment: tabiiy, laboratoriya.

3. Egizaklar metodi. Uning mazmuni bir tuxumli egizaklarda psixik taraqqiyotni kuzatish va eksperiment sharoitida taqqoslashdan iborat. Bu esa ular irsiyatining bir xilligini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sirining va muhitning ta'sirini o'rganish imkonini beradi.

4. Bola psixikasi taraqqiyotini o'rganishda ko'ndalang-kesim metodi ham qo'llaniladi. Bunda tadqiqotchi psixika rivojining hozirgi paytdagi psixologik hususiyatlarini bilishga intiladi. Tez-tez takrorlanib turgan bunday kesimlar tekshiriluvchilar haqidagi ma'lumot olishga imkon beradi.

5. Longityud metod yoki uzunasiga kesim metodi. Bir bola uzoq vaqt, yillar mobaynida o'rganiladi.

6. Suhbat.

7. Faoliyat mahsulotlarini o'rganish.

8. Anketa.

9. Test.

10. Sotsiometrik...

Tajribada qo'llaniladigan metod sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

**Kuzatish metodi.** Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdagi hayot va sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

a) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;

b) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;

v) sinaluvchining yoshi, jinsi haqida ma'lumotlar to'planadi;

g) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;

d) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;

e) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya etiladi;

yo) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tayinlanadi;

j) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, diktofon, video kamera va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament hususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu iste'dotning imkoni yetmaydi.

**Eksperiment metodi.** Sun'iy hosil qilingan psixologik sharoitda namoyon bo'luvchi psixik faoliyatni tahlil qilishdan iboratdir. Eksperimentator yoki tajriba o'tkazuvchi psixik faoliyatning o'ziga kerakli hodisasini maxsus tarzda hosil qiladi hamda uning namoyon bo'lish sharti va xarakterini belgilaydi. Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi.

Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy yaratgan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilarning ish qobiliyatlari, o'zaro munosabatlarini, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari boxabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiq lashtirilishi lozim.

**Laboratoriya (klinika) metodi** ko'pincha individual (ba'zida guruh yoki jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatkichli va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidan o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari, qurilmalar, moslamalar mavjud. Ko'pincha detektivlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordamida diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning hususiyatlari, emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektriklar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsional-irodaviy, asosiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik har qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

**Psixologik-pedagogik eksperiment-** o'quvchilarning psixologik hususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o'rganish demakdir.

Mazkur eksperiment o'quvchilarni maxsus uyushtirilgan ta'lim sharoitida maqsadga muvofiq ulardan o'zgarishlarni kuzatishni taqozo etadi. Bu eksperiment aniqlovchi va tarkib toptiruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, maxsus uyushtirilgan ta'lim tarkib toptiruvchi eksperiment jarayonida olib boriladi. U quyidagi tuzilishga ega: eksperimentator yoki tadqiqot olib boruvchi, sinaluvchilar, faraz, reja, yo'l-yo'riq, tajribaning bir-biriga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan, o'zgaruvchan, nazorat qilinadigan va qilinmaydigan qismlardan iborat. Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlari: farazning ilgari surishi, metodikani tanlash, eksperimentni rejalashtirish, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish, tahlil etish va izohlashdan iboratdir.

**Anketa metodi.** Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik hususiyatlari, narsa va hodisalarning munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch turda o'tkaziladi. Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi turida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Biroq unda olinadigan ma'lumotlar doimo holisona hususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunday kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Suhbat metodi** erkin nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir. Bu metod yordamida inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, hulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

**Test metodi.** Test-inglizcha "sinash", "tekshirish" degan ma'noni anglatadi. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik hususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol yoki jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasb egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatli tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, to'plangan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

1905 yil fransuz psixologlari A.Bine va A.Simonlar insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llanila boshlandi.

Hozirgi zamon nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozeesveyg, Keytel, Veksler, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng

keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarida berilgan bilim va malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va hulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs "loyihasi" (proektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib, shaxs hususiyatining "loyihasi" ishlab chiqiladi) kiradi.

**Biografik (tarjimai hol) metodi.** Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar biografik metod orqali o'rganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgaralar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, diktofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxs haqida to'la tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishda yordam beradi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

**Sotsiometrik metod.** Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari maktabdagi o'quvchilar jamoasi, mehnat lagerlari, oliy maktablar, mehnat jamolari va turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning hususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi shu metod yordamida o'rganiladi. Umuman olganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin.

#### **Muhokama va takrorlash uchun savollar:**

1. Yosh pedagogikasi va psixologiyasining predmeti.
2. Yosh pedagogikasi va psixologiyasi rivojlanishidagi biogenetik va sotsiogenetik oqim tarafdorlarining fikrlaridagi farq.
3. Pedagogik-psixologiyaning o'rganish metodlari.
4. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.
5. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.
6. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

## DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Kirish-tematik mavzu bo'yicha aqliy hujum va blits-so'rov texnikalaridan foydalanilgan nazariy mashg'ulot
<b>Mavzu rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yosh psixologiya va pedagogik-psixologiyaning predmeti. Ularning rivojlanish tarixi.</li> <li>2. Bolalar psixologiyasi va pedagogik-psixologiyaning yo'nalishlarining tanqidi.</li> <li>3. Pedologiya va uning tanqidi.</li> <li>4. V.S.Vigotskiyning oliy psixologik funksiyalarining rivojlanish tarixi.</li> <li>5. Pedagogik psixologiyaning metodlari.</li> </ol>
<b>Darsning maqsadi:</b> O'quv mashg'ulotining maqsadi "Yosh pedagogika va psixologiya" fani to'g'risida yaxlit tasavvurni shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Yosh psixologiya va pedagogik-psixologiyaning predmeti, ularning rivojlanish tarixi bilan tanishtiradi.	Psixologiya bilimlari sohasida fanlar integratsiyasi va differentsiatsiyasini izohlab beradilar.
Bolalar psixologiyasi va pedagogik-psixologiyaning yo'nalishlarining tanqidiy ahamiyatini tushuntiradi.	Bolalar psixologiyasi va pedagogik-psixologiyaning yo'nalishlarini sanab beradilar.
Pedologiya va uning tanqidini yoritib beradi.	Pedologiya va uning tanqidini tavsiflab beradilar.
V.S.Vigotskiyning oliy psixologik funksiyalarining rivojlanish tarixi haqida gapirib beradi.	Oliy psixologik funksiyalarining rivojlanish tarixini ochib beradilar.
Pedagogik psixologiyaning metodlari ahamiyatini tushuntiradi.	Pedagogik psixologiyaning metodlarini tushuntiradi.
<b>O'qitish usullari</b>	Aqliy hujum, blits-so'rov, bahs-munozara, pinbort texnologiyasi.
<b>O'qitish vositalari</b>	Proektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.
<b>O'qitish shakllari</b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
<b>I-bosqich.</b> O'quv mashg'ulotiga kirish (20 minut)	1.1 Talabalar davomati bilan tanishadi	Tanishuvda faol qatnashadilar.
	1.2. Darsning mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
<b>II -bosqich.</b> O'quv mashg'ulotini o'tish (50 minut)	2.1. Bilimlarni faollashtirish uchun diqqatni jalb qiluvchi savollar beradi: 1. Yosh va pedagogik psixologiya deganda nimani tushunasiz? 2. Yosh pedagogik psixologiyasi tarixiga ta'rif bering. O'quvchi-talabalarning javoblarini tinglab, umumlashtiradi.	Individual ravishda ishlaydilar, muhokama qiladilar va javob beradilar.
	2.2. Ekranga vizual materiallarni chiqaradi va ushbu fanning maqsadi, vazifalari, fan nimani o'rgatadi va u boshqa fanlar bilan qanday bog'liqligini slaydlar yordamida ko'rsatib beradi. "Yosh pedagogikasi va psixologiyasi" fanining o'рни va ahamiyati haqida ma'lumotlar beradi.	Slaydlarni o'rganadilar, fikr bildiradilar. Savollarga javob beradilar.
	2.3. Ekranga "Fanning tarkibi"ni izohlovchi slaydni chiqaradi, fanning mavzulari bilan tanishtiradi, ularni qisqacha sharxlaydi. Fan bo'yicha reyting mezonlari, joriy, oraliq va yakuniy baholash mezoni va ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxati, o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan tanishtiradi.	Slaydlarni o'rganadilar, sharx mobaynida sxema, jadvallarni muhokama qiladilar, savollar beradilar.
	2.4. Ikkinchi savol, " Bolalar psixologiyasi va pedagogik-psixologiyaning yo'nalishlarining tanqidi" "Aqliy hujum" texnikasidan foydalanilgan holda boshlaydi. O'quvchilarga "Bolalar psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?",- deb savol bilan murojaat qiladi. Fikrlarni umumlashtirib, ikkinchi masalaning bayonini boshlaydi.	Savollarga javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar.
	2.5. Uchinchi va to'rtinchi savollarni slaydlar yordamida o'quvchilarga tushuntiradi. Mavzuning asosiy mazmuniga e'tiborini qaratadi, ularni yozib olishni taklif etadi.	Yozib oladilar.
	2.7. Beshinchi savolni yoritishdan oldin o'quvchilarni faollashtirish maqsadida ularga jonlantiruvchi savollar bilan murojaat qiladi: 1. Pedagogik psixologiyaning qanday metodlarini bilasiz? 2. Egizaklar metodi deganda nimani tushunasiz? 3. Longityud metod yoki uzunasiga kesim metodiga ta'rif bera olasizmi? Fikrlarni umumlashtirib, oxirgi savolni yoritib beradi hamda yakuniy xulosa chiqaradi.	Erkin fikr bildiradilar Savollarga javob beradilar.
<b>III-bosqich.</b> Yakuniy. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun chiqaradi, fan haqidagi ma'lumotlarni blits-so'rov texnikasi yordamida umumlashtiradi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar.
	3.2. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	O'zini qiziqirgan savollar beradi.
	3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya etadi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.




### “Aqliy hujum” texnikasining asosiy qoidalari:

- ✚ olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ✚ - ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- ✚ - istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- ✚ - muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- ✚ - barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- ✚ - “hujum”ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- ✚ - beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

### “Baliq skeleti” texnikasi

Muammoning butun doirasi (maydoni) ni ifoda etish va uning echimini topishga imkoniyat beradi. Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



### O'quv topshiriq

“Baliq skeleti” texnikasidan foydalanilgan holda topshiriqlarni bajaring

**1-guruh:** Yosh pedagogikasi va psixologiyasining tarixiy ko'rinishlarini yoritib bering.

**2-guruh:** Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ishlatiladigan metodlarni ko'rsatib o'ting.

**3-guruh:** Yosh pedagogika va psixologiyasi rivojlanishidagi biogenetik va sotsiogenetik oqim tarafdorlarining fikrlari ko'rsatib o'ting.

## “PINBORD» texnikasi bo'yicha topshiriq



### PINBORD TEXNIKASI

Pinbord texnikasi (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska) muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi)

Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

## GO'DAKLIK DAVRIDAGI JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISH. ILK BOLALIK DAVRIDAGI RIVOJLANISHNING MUHIM OMILLARI XUSUSIDA

### Reja:

1. Go'daklik davrida psixik rivojlanish
2. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot
3. 1-3 yoshli bolalarning aqliy rivojlanishi
4. Ilk bolalik davrida shaxsning rivojlanishi

### Tayanch iboralar:

Go'daklik, erta bolalik, bog'cha yoshi, sensor va intellektual taraqqiyot, maktab talimiga psihologik tayyorgarlik.

### Go'daklik davrida psixik rivojlanish.

Normal sharoitda bolaning dunyoga kelishi onaning farzandi tug'ilishiga psihologik jihatdan tayyor bo'lishidir.

**Go'daklik davri:** (0-1 yosh): Inson o'zining mavjudligi jihatidan uch yo'nalishda talqin etiladi. Bu bolalik tizimi, ijtimoiy borliq hamda shaxs sifatidir.

Bola tashqi muhitga moslashishiga ma'lum darajada tayyor bo'lgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Go'daklik inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan hatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga hos bo'lgan hatti-harakatlar, yangi tajribalarni etallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'daklik yoshidagi bolalarning asosiy hususiyatlaridir. Agar organik ehtiyojlar kerakli darajada qondirib borilsa, ular o'zining asosiy bo'lish ahamiyatini yo'qotadi: to'g'ri rejim va tarbiya natijasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotga, harakatga, muloqotga nisbatan yangi xil ehtiyojlar yuzaga keladi. Bola tug'ilishning birinchi haftasidanoq ko'rish va eshitish sezgilari jadal rivojlanadi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U tovushlarga, jumladan kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya og'irligi kattalar miyasining 4 dan 1 qismiga tug'ri keladi, nerv hujayralarining soni esa xuddi kattalarniki kabi bo'lib, lekin ular yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Ilk go'daklik bu bolaning ximoyasiz, kam harakat, harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U juda tez kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlab va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Juda qisqa vaqt ichida atrofdagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan, faol ko'ra oladigan, eshita oladigan, harakatlana oladigan, yordamga chaqira oladigan, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan qilinadigan emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oylikdan boshlab bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, uning psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishi, uning o'ziga nisbatan diqqatning qaratilishiga o'rganib qolishi, o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishini pasayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatiga almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Kattalarning bolaga qilgan emotsional

munosabati asosida ularning gaplariga bolaning diqqat qilishi javob qaytarishga harakat qilishi ba'zi, so'zlarni yodida saqlab qolib emotsiya bildirishi diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Ikki oylik vaqtdan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oyligidan boshlab esa predmetlarning shaklini ajratishi layoqati yuzaga kela boshlaydi.

Go'dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozini yaxshi biladi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. 3-4 oyligidan boshlab esa, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko'rsatadilar. 8 oylikdan boshlab esa, bola begona muhit va begona qo'lga tushsa o'z xavotirini yig'isi orqali nomoyon etadi. Bu xavotir esa 14-18 oylikga borib, asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi.

2-3 oylik bolalarda yuzaga keladigan ushlay olish harakatlarining shakllantirish ularda predmetlarning shakli va kattaligini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yoshga yaqin bolada atrof-muhitni bilishga qiziqishga va rivojlangan bilish faolligi ko'zga tashlanadi.

**Ilk bolalik davri:** go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr hisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to'g'ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani bila olishga, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga olib keladi. Bu yoshdagi bola o'z xatti-harakatlari jihatdan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishish uchun intiluvchan bo'ladi. 1-3 yosh bola shakllanishda psixik rivojlanishning nihoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan holda ayrim psixologlar (m-n R.Zazzo) inson tug'ilganidan, to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojining taxminan o'rtalari 3 yoshga to'g'ri keladi degan mulohazani beradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala –munosabatda bo'la oladi va elementar ahloq qoidalariga amal qila oladi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqot orqali bola atrof hayot haqida boshqa yo'nalishlarga qaraganda 10 xissa ko'proq ma'lumot oladi. Nutq bu yoshda nafaqat muloqot, balki tafakkurning rivojlanishi va o'z-o'zini shuningdek, bilish jarayonlarni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilk bolalik davridagi bolalarning yetakchi faoliyati predmetlarni o'rganish hisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan ilk bolalik davridagi bolalar narsalarga ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar go'dak bola qo'lga ushlagan narsani oddiy harakatlantirib ko'rsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina o'z amaliy faoliyatida ishlatadi. Bolani avvalo shu predmetning ishlatish vazifasi qiziqtiradi va u o'z savoliga javob olish uchun ko'pincha kattalarga "Bu nima?" degan savolni beradi. 3 yosh arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar o'z o'yinlarida nafaqat shu predmetlardan foydalanadilar, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar ham. Predmetli faoliyatga kirishishi bolaning turli layoqatlari va qo'l harakatlarini rivojlantiradi. Bolaning nutqi u to 1,5 yoshga yetgungacha ancha sekin rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 so'zdan to 100 tagacha so'zni bila oladi, lekin ularni juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlanadi. Endi u nafaqat predmetlarning nomini aytishlarini so'rabgina qolmay, bu so'zlarni talaffuz etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi juda jadallashadi. 2 yoshning oxirlariga borib bola 300 tagacha, 3 yoshning oxirlagiga borib esa 500 dan, to 1500 tagacha so'zni ishlata oladi. Shuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni to'g'ri tuza oladilar.

### **1-3 yosh davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi**

Shuni alohida ko'rsatish joizki, 1,6-3 yosh bu nutq rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanish asosini idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlari tashkil etadi. 1 yoshli bola hali predmetlarni ketma-ket, sistemali ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok

harakatlarini egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab harakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi. Endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan, chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning bergan namunasi rangi shakli va kattaligiga ko'ra aynan shunday predmetlarni chamalab idrok etgan holda, to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil hususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, qovoq, sariq, yasxil, ko'k, siyoxrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning ishlatilishi jihatidan turli xil narsalarda turlicha bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari noto'g'ri bo'lib, buning uchun mos davr bu 4-5 yosh hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar so'zlardagi barcha tovushlarni idrok eta oladilar.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib, bu predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga harakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos hisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo'l soati, osma soat, shuningdek budilnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo'lgani sabab ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi, 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarni o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishida ahamiyatli burilish hisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o'xshatishga harakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funktsiya hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning hayotiy tajribalarni o'zlashtirishida avvalo harakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular uzun ertak va she'r, hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual hususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga hos bo'lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayot haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

**Ilk bolalik davridagi bolalar shaxsining rivojlanishi.** Bu davrdagi bolalar asosan o'z xatti-harakatlarini o'ylab o'tirmaydilar. Bu xatti-harakatlar ularning xohish va hissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning xatti-harakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan: bolaning yig'lashi ham yig'idan to'xtashi ham juda oson. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu

muhabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtoq, erkalash olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy hususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'ziga nisbatan o'z layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini ximoya qiladi uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala –munosabati uni o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab o'z "Men"ini anglay boshlashi vaqtliroq yoki birmuncha kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini o'z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning "Menga bering", "Ko'taring", "Men ham boraman" kabi talablarida ko'rinadi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'zгалar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning "o'zim qilaman" qabilidagi so'zlarida nomoyon bo'ladi.

**3 yosh krizisi:** 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), shuningdek ular bajara oladigan harakatlarni qilishni xohlaydi. "Men katta bo'lsam mashina xaydayman", "Men sizga katta tort olib kelaman", "Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi" kabi xohishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'z barcha xohishlarini bugunoq amalga oshirishga harakat qiladi. Bu ko'pincha qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan kattalarga qaratilgan salbiy xatti-harakat bo'ladi. Bola o'zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda "O'zim qilaman" boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik bilan ko'rinadi. 3 yosh krizisi bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganini bilishi natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan hususiyatlar iroda, layoqatlar va boshqalar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

#### Uch yoshgacha bolalar psixik rivojlanishidagi asosiy yangilanishlar

Yosh	Bilish	Harakat	Muloqot
3yosh	Nutq shakllanishi. Obrazli tafakkurning birinchi belgilari. Atrof muhitdan o'zini ajratish. Qat'iylikni anglash	Qo'l, predmetli harakatlarning rivojlanganligi. O'z xatti-harakatlarini irodaviy boshqarish ko'rinishlari	O'z-o'zini anglashni yuzaga kelishi normalari. Birinchi ahloqiy qoidalarni egallashi
2yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakter asoslarini shakllanishi
1yosh	Nutqni tushunishni birinchi belgilari	Mustaqil holda tik turish va yurish	Nutqni qo'llashning birinchi belgilari
10 oylik			Bog'liqlik reaksiyasini yuzaga kelishi begona muhit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensamator intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurish	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal muloqot
7oylik		Yordam bilan turish	
5 oylik		Yordam bilan o'tirish	

3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarish
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlash		
1 hafta	Harakatlarni kuzatish		

### **Go'daklarning kattalar bilan bo'ladigan muloqoti**

Oilada bola tug'ilishi bilan oila a'zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Lekin chaqaloq muloqotga darhol tayyor bo'lmasdan, u uxlaydi, yig'laydi va emadi. Chaqaloq o'zining hayotini shartsiz refleks, ya'ni qichqiriq bilan boshlaydi. Birinchi qichqiriq nutqning birinchi belgisidir. Ayrim olimlar birinchi qichqiriqni salbiy emotsiya deb ataydilar. Haqiqatdan ham chaqaloq o'zining qichqirig'i bilan uyquga, ovqatga, issiqlikka bo'lgan ehtiyojini bildiradi.

Insonning tabiati shundayki, u atrofdagilar bilan muloqotda bo'lmasdan yashay olmaydi. Bola tug'ilganda uning onasi o'zining mehrini muloqot orqali beradi. Shuningdek, oilaning boshqa kattalari ham chaqaloq bilan muloqotda bo'lmasdan turolmaydi. Kattalar tomonidan bo'ladigan to'g'ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. Chaqaloqda birinchi u bir oylik bo'lganda "ga", "da", "ua" kabi nutq belgilari paydo bo'ladi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo'ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning labi va ko'zlariga qarashdan boshlanadi. Ijobiy muloqotda bo'lish uchun kattalar bolaga ko'proq kulgulari bilan ta'sir etishlari maqsadga muvofiqdir. Bolani qo'lga olib ko'targanda u juda xursand bo'ladi. Bir yarim-ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o'zining kulgusi bilan javob qaytaradi. Ona bola uchun ehtiyojlarini qondiruvchi eng asosiy kishi. Ona uchun ham bola barchadan aziz.

Kattalar go'daklar bilan doimo ijobiy emotsional munosabatda bo'lishlari zarur. 4-5 yoshli go'dakning munosabati o'ziga xos xarakterga ega. U o'z oila a'zolarini begona kishilardan ajratadi. Kattalar doimo go'dak atrofida parvona bo'laversalar, u o'yinchoqlar bilan o'ynamaydi, balki go'dak onasidan ajrasa injiq bo'lib qoladi. 7-9 yoshli bola kattalarning nutqini va harakatini diqqat bilan kuzatadi. So'ngra u kattalarning og'zidan chiqqan so'zlarni takrorlashga harakat qiladi. Bu davrdagi bolalar kattalarning harakatlarini taqlid qilish orqali egallaydi. Masalan, stolni ustini artishga, idish-tovoqlarni ko'tarishga harakat qiladi. Kattalar bolaning ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, predmetlar bilan harakat qilishga ham o'rgatadilar, ya'ni hatti-harakatlarini boshqaradilar. Bir yoshgacha bola kattalarning nutqini tinglaydi.

O'yinchoq - ko'ngilochar predmet bo'lib qolmasdan, balki bolaning ruhiy rivojlanishi vositasidir. 2-3 yoshli bola o'yinchoqlar bilan o'ynay boshlaydi. O'yinchoqlar yorqin rangli, qo'ng'iroqli ovozli bo'lishi bolada ijobiy emotsiyani keltirib chiqaradi. Onasi bolaga o'yinchoqlar bilan qanday o'ynashni o'rgatadi. O'yinchoqlarning tovushlari bolaning kayfiyatini yanada ko'taradi, uning idrokini rivojlantiradi. Bolalarning yetakchi faoliyati maktabgacha davrda o'yin bo'lib hisoblanadi. Kattalar o'yinchoqlar tilidan bola bilan muloqotda bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. O'yinchoq bilan o'ynaganda bolalar uni qimirlatishga va og'ziga solishga, ichini ochib ko'rishga harakat qiladilar. 9 oylik bolalarga endi o'yinchoqdan tashqari qog'oz, qalam ham berish kerak. Shunda bola yozma nutqni rasmlar chizish elementlarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

O'yin orqali bolalarda sezgi, idrok, xotira, fikrlash, fantaziya kabi ruhiy jarayonlar, shuningdek, xarakter xislatlari, qobiliyat turlari, temperament (mijoz) tiplari rivojlanadi. Bolalarning nutqini, muloqotini rivojlantirishda kattalar muhim rol o'ynaydilar. Chunki bolalar hali mustaqil harakat qila olmaydi, ongi yaxshi rivojlanmagan. Bolaning ongini o'stirish uchun o'yinchoqlar va o'yin turlaridan ko'proq foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilk bolalik davrida ham o'yinning ahamiyati katta. O'yin orqali bolalarda ruhiy hususiyatlar rivojlanadi. Bu davrdagi bolalar predmetli o'yinchoqlarni ko'proq o'ynaydilar. Ayniqsa didaktik o'yinchoqlar bola hayotida muhim o'rin egallaydi. Bola endi bitta o'yinchoq

bilan emas, balki bir necha o'yinchoqlar bilan o'ynaydi. Bu davrda bolalar kattalar bilan muloqotda bo'lishga nisbatan ko'proq o'yinchoqlar bilan muloqotda bo'ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinda kattalarning hatti-harakatlari, o'zaro munosabatlarini taqlid qilish orqali ifodalaydilar. Bu ularda muloqotni rivojlanishiga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'yin faoliyati o'ziga xos xarakterga ega. Ular ko'proq harakatli, sport xarakteridagi o'yinlarni o'ynaydilar. O'yin orqali o'quvchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar.

O'smirlarda, ayniqsa, 5-6- sinf o'quvchilarida o'yinga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qoladi. Tanaffus paytlarida, darsdan bo'sh vaqtlarida o'smirlar o'yin faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Ularda o'yin orqali muloqot shakllari rivojlanadi.

Umuman o'yin faoliyati bolalar hayotida muhim o'rin egallaydi.

### **Ilk bolalik davrida muloqotning o'ziga xosligi**

Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo'ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin bo'ladi. Hatti-harakat hulq normalarini bolalar kattalar orqali o'rganadilar. Bu davrda bola hulqining motivi anglanilmagan bo'ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog'liqdir. Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Bu yerda kattalar bolaga qanday talablar qo'yishlari muhim o'rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolada o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo'yicha kattalarning muloqoti orqali o'sadi.

Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so'zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. 2 yoshli bolalar oldida o'yinchoqlar turgan bo'lsa onasi unga "ber menga" deb o'yinchoqni ko'rsatsa darhol bola uni olib beradi. "Mumkinmas" degan so'z bolaning harakatlarini to'xtashiga signal bo'lib xizmat qiladi. Masalan, rozetkaga qo'li tegayotganida, qizib turgan dazmolga qo'li yaqinlashayotganida, oyoq kiyimlarga qo'lini tekkazayotganida bu so'zni aytilishi bola harakatlarini to'xtashiga olib keladi.

3 yoshga to'lganda bola kattalar bilan munosabatlarga bemaol nutq orqali kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Chunki nutqni to'la egallaydi. Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan hatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U kattalarning o'zaro muloqotini jon qulog'i bilan eshitadi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'rlarni eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1,5 yoshli bolalar 30-40 so'zdan 100 gacha bo'lgan so'zlarni egallaydi, holos. 2 yoshdan so'ng bolalar kattalarga juda ko'p savollar bilan murojaat qiladilar. "Bu nima?", "nimaga bunaqa?" kabi savollar bolaning nutqini o'sayotganidan dalolat beradi. 2 yoshni oxirigacha bola 300 ta so'zni o'rganadi. 3 yoshning oxiriga borib, 500-1500 gacha so'zni bilib oladi. Lekin bu yoshdagi bolalar nutqi avtonom bo'ladi, ular nonni "nanna", suvni "umma" kabi iboralar bilan ataydi. Asta-sekin kattalar bolalar bilan to'g'ri muloqotda bo'lsalar, bu avtonom nutq yo'qolib boradi, ya'ni bola har bir narsaning o'z nomi bilan ayta boshlaydi. Bolaning bitta aytgan so'zi uning aytmoqchi bo'lgan gapini ifodalab beradi. Masalan, "oyi" desa oyisi bolaga non berishi yoki suv olib berishi mumkin. Shu bilan bolaning ehtiyoji qondiriladi. Bolani muloqotga o'rgatish uning ruhiy jarayonlarini ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu davrdagi bolalar nimani xohlasa o'sha zahoti namoyon bo'lishi kerak. Lekin buni asta-sekin tarbiyalash orqali yo'qotish mumkin, ya'ni sabrli bo'lishni bolaga yoshlikdan o'rgatish lozim.

3 yoshli bolalarda birinchi "inqiroz" davri boshlanadi. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», "men o'zim" degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim.



### Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Go'daklik davrida bolaning emotsional holati.
2. Ilk bolalik davrining psixik hususiyatlari.
3. 1-3 yosh davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi.
4. 3 yosh krizisiga tasnif bering.


### DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Mavzu bo'yicha informatsion ma'lumotga ega bo'lgan, T-sxema texnikasidan foydalanilgan, bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan dars.
<b>Mavzu rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Go'daklik davrida psixik rivojlanish</li> <li>2. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot</li> <li>3. 1-3 yoshli bolalarning aqliy rivojlanishi</li> <li>4. Ilk bolalik davrida shaxsning rivojlanishi</li> </ol>
<b>Darsning maqsadi:</b> Go'daklik va ilk bolalik davri haqida o'quvchilarga aniq bilim va ko'nikmalar berish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Go'daklik davridagi psixik rivojlanishni yoritib beradi	Go'daklik davri, undagi psixik va jismoniy o'zgarishlarni aytib beradi.
Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot, aqliy rivojlanish, shaxs shakllanishi va krizis davrlari bilan tanishtiradi.	Ilk bolalik davrida psixik holat, aqliy rivojlanishning bosqichlari va krizis davrining ahamiyatli tomonlarini izohlab beradi.
<b>O'qitish usullari</b>	T-sxema, bahs-munozara.
<b>O'qitish vositalari</b>	Proektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.
<b>O'qitish shakllari</b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
<b>I bosqich.</b> O'quv mashg'ulotiga kirish (20 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun o'quvchilarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar
	O'tilgan mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so'rov o'tkazadi. O'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, faol talabalarni baholash mezonlari orqali baholaydi.	Blits-so'rovda faol ishtirok etadilar Tinglaydilar, yozib oladilar.
<b>II bosqich.</b> Asosiy (60 minut)	2.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi. Mavzuning rejasi, tayanch ibora va tushunchalariga izoh beradi. Har bir o'quvchiga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Diqqat bilan tinglab, mavzuni yozib oladilar. Tarqatma materiallardan foydalanadilar.
	2.2. O'quv mashg'ulotining birinchi savolini vizual materiallar yordamida yoritib beradi.	Slaydlar yordamida yangi mavzuni o'rganadi.
	2.3. O'quvchilar qay darajada birinchi savolni o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida savollar bilan murojaat qiladi: 1. Go'daklik davri necha yoshdan boshlanadi? 2. Go'daklik davridagi psixik o'zgarishlar nimalardan iborat bo'ladi? 3. Go'dak necha yoshdan boshlab atrof-muhitni anglay boshlaydi?	Savollarga javob beradilar.
	2.4. Ilk bolalik darvidagi psixologik omillarni tushuntiradi. Ikkinchi savolni umumlashtirish maqsadida o'quvchilarga "T-sxema" jadvalini to'ldirishni talab qiladi.	Tinglaydilar. Jadvalni mustaqil to'ldiradilar.
<b>III bosqich.</b> Yakuniy. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun chiqaradi, faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar.
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha topshiriqlar beradi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.

### “T – sxema” texnikasi




### T-sxema jadvali

3 yosh krizisining psixologik omillari (ijobiy)	3 yosh krizisining psixologik omillari (salbiy)

# “Kaskad” texnikasi

Ushbu texnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi. Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.

## O'quv topshiriq



## “Sinkveyn “ texnikasi

**Maqsad –  
kategoriyaga  
xarakteristika  
bering**

- 1-qator - tushuncha.
- 2-qator - tushunchani xarakterlovchi  
ikkita sifat.
- 3-qator – ushbu tushuncha funksiyalari  
to'g'risidagi uch fe'l.
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati  
to'g'risidagi to'rt so'zli so'z  
birikmasi.
- 5-qator - ushbu tushuncha sinonimi.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIIYASI

### Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti
2. Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixiologik xususiyatlari
3. Bog'cha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi
5. Maktabga psixologik tayyorgarlik

### Tayanch iboralar:

Psixik taraqqiyot, qobiliyat, maktab, psixologik qayta qurilish, psixologik qiyinchiliklar, o'qish va mehnat faoliyati, bilish jarayoni, shaxs taraqqiyoti, qiziqish, o'z-o'zini anglash, o'zini baholash.

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda bu davrni kichik bog'cha yoshi, o'rta bog'cha yoshi va katta bog'cha yoshlariga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashhur rus pedagoglaridan biri *Lesgaftning* fikricha insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va ahloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Shunga ko'ra bog'cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatlilikni ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda tashkillashtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola ahloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Bog'cha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

### **Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik hususiyatlari**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sarmazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsa va hodisalar haqida dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga ta'luqli bo'lgan, o'zining kuchi yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani, tramvayni o'zi haydagisi, otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchgisi, militsioner bo'lgisi keladi. Biroq, tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali ya'ni bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni shu bilan izohlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuni bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ehtiyojlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom hayol, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlangandir, ya'ni mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim- tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilib borishga bog'liqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar hayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar hayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni analogik tarzda) har xil hayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi

narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'ladi. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan obrazlar, ya'ni yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining oddiygina xatti-harakatlarini emas, balki ularga hos bo'gan hulq-atvorni aks ettirishga harakat qiladi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofda narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lish bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik bog'cha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan kollektiv xarakterini ola boshlaydi.

Bolalarning individual hususiyatlarini, xususan ularning kollektiv o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, kollektiv o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, "poezd" o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi kollektiv o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki kollektiv o'yindagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilish bilan birga o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan kollektiv o'yin bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishni va ayrim vazifalarni o'xshatib bajarishni talab etadi. Shuning uchun bolalarning bunday kollektiv o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, ya'ni muammoli vaziyatni hal etish, o'yin qoidalarga, tartib-intizomga bo'ysunish va shu kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin enda bu o'yinlar o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Bu maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda katta. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur hususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar, ularning ichki kechinmalari ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar rasm chizishga ham nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta bog'cha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvafaqqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi



bolalar uchun eng yoqimli jarayon bu – yutish. Muvaffaqiyat bo'lgan musobaqadagi o'yinlarning ahamiyati ular uchun juda kattadir.

Katta bog'cha yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O'yinda bola elementar mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalar psixik rivojida badiiy-ijodiy faoliyat bo'lgan musiqaning ham ahamiyati juda katta. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yosh davrida bolalar asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda keladi:

1. Predmetlarni o'rganish
2. Individual predmetli o'yinlar, kollektiv syujetli-rolli o'yinlar
3. Individual va guruhijod
4. Musobaqa o'yinlar
5. Muloqot o'yinlar
6. Uy mehnati

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari haqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchog'i masalasiga ham to'xtab o'tish kerak.

Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, 1-3 yoshli bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirganlar. Ular hali hattoki, narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga qo'g'irchoq bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniqsa, qiz bolalar o'z qo'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoqlarni berish foydalidir.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida batafsil ko'rsatib o'tganimizdek o'yin faoliyati orqali erishadi.

### **Bog'cha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi**

Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o'yinchoqlar berish lozim (bolalarning qo'g'irchoqlari uchun har xil rangli qiyqimlar berish, har xil rangli xalqalar, qutichalar va shuning singari narsalar maqsadga muvofiqdir).

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qilmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos hususiyatga ega.

Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, xayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar ham bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, "ko'p mahmadona bo'lma", "sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding", deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ammo ayrim passiv va tortinchoq bolalar hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

### **Bog'cha yoshidagi bolalar nutqi va uning o'sishi**

Agar 2 yashar bolaning so'z zahirasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning nutqini o'sishi oilaning madaniy saviyasiga bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalar ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri, bola bilan suhbatlashayotganda so'zlarni to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

### **Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishi**

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra bu davrni uch qismga ajratish mumkin: *Birinchi davr* – bu 3–4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir. *Ikkinchi davr* – bu 4–5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o'z-o'zini boshqarish. *Uchinchi davr* esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik hususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo'lib ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali shakllanadi va mustahkamlanadi. Bola doimo e'tiborni jalb qilishga, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu e'tibor va maqtov bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat hususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu - bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv asosan bolalarning syujetli - rolli o'yinlarda asosiy rolni egallashga boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rqmasligida, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda maishiy ahloq norma va qoidalarni, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish normalarini egallaydilar. Bunday normallarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirish uchun syujetli - rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir ahloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlar bilan munosabat bo'lish kabi shaxsiy sifatlar ham shakllanadi (kishilarga nisbatan diqqatli, mehribon bo'lish hususiyati). Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sababini tushuntirib bera oladilar.

3–3,5 yosh oralig'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan ularning o'zlariga beradigan baholari asosida bo'ladi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy hususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan boshlab rivojlanib avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?", "Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?" singari savollarda ko'rinadi. Ular kelajak haqida fikr yuritib, kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa shu singari qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo'lishga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterini shakllanishi davom etadi. U asosan kattalar xarakterini ko'zatishtlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan – iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy hususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish faoliyati va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnata olishida ko'mak bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning hayoli, asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda hayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning hayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarning hayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loy o'ynashni, ya'ni loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolalar hayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi.

### **Bog'cha yoshidagi bolalar hissiyoti va uning o'sishi.**

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xis-tuyg'ulari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslgi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarining qondirilmaslgi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o'rtasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida hafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va kollektivizm hislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini ular biron chiroyli, yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

### **Bolalarni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi**

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150- 200 gm dan, bo'yi esa 0,5 sm dan ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda yura oladilar, tez va yengil yugura oladilar. Ular yugurib kelib sakrash, konkida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda ham bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni ham aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida ehtibor berish, shuningdek umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishini davom ettirayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanib bo'lmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi yoki uning chiroyli yoza olmasligi, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi tayyorgarlik bu aqliy tayyorgarlikdir. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deganda bolaning ma'lum bir dunyoqarashi jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmi tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishining natijasi bo'lib yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali, obrazli tafakkur bilan atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata oladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali harakatli va ko'rgazmali obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy rivojlanishida asosiy funksiyani bajaradi. Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir.

### **Shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik**

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi" kabi. Maktab tashqi atributlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy motiv bo'la olmaydi. "Men otamga

o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman" ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor bo'lgan o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psihologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish hususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu hususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar. O'quv harakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi hususiyatiga ham to'la bog'liq. Chunki shu hususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psihologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

### **Maktabgacha yosh davrida vujudga keladigan psihologik yangilanishlar**

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan, to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. *Obrazlilik deganda* bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish va ularni erkin harakatga solish, *simvollilik deganda* esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstruktorlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron-bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va holatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi tuzilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa shu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar ahloqiy norma va qoidalar egallaniladi. Bu norma va qoidalar bola ahloqini boshqaradi.

Bola va atrofidagi kishilar orasida xilma xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki ahloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs rivojining cho'qqisi aynan shu davrga to'g'ri keladi, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglashi, o'z-o'zini anglash hissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

### **Maktab yoshidagi bolalarning muloqot jarayoni**

3 yoshdan so'ng bolalardagi krizis(inqiroz) davri sekinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari normallashadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida

bo'lmasligi mumkin. Bunga albatta turli sabablar misol bo'ladi. Masalan, uning kichik ukasi bo'lishi mumkin yoki boshqa sabablar. Hozirgacha u kattalarning diqqat, e'tiborida bo'lgani uchun endi uning fikricha ota-onasi faqat bir-biri bilan munosabatda bo'lib, unga e'tibor bermay qo'yishyapti. Unga tushunarli bo'lmagan narsalar haqida gaplashadilar. Bu unga yoqmaydi, natijada injiq bo'lib qoladi. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo'lib qolgani uchun onasi undan ko'ngli to'lib, kamroq e'tibor beradi, bu esa bolaga yoqmaydi. Shuning uchun ota-ona bu davrdagi bolalarga e'tiborliroq bo'lishlari lozim. Shunday vaziyat ham bo'ladiki, oilada bola yo onasi bilan qoladi, yoki otasi bilan yashaydi. Ko'pincha bola balog'atga yetmaganligi uchun onasi bilan yashaydi. Bunday oila noto'liq oila deyiladi. Bunday oilada o'sayotgan bola avval otasi yo'qligini his qilmaydi, lekin ulg'aygan sari buni his qila boshlaydi, natijada u qo'zg'aluvchan, hissiyotga beriluvchan bo'lib qoladi. Bu paytda onasi qaysidir qarindoshidan iltimos qilib, otasi o'rniga bola bilan muloqotda bo'lishlarini so'rashi zarur. Ota-onalar farzandi oldida mas'uliyatni his qilishlari lozim. Chunki bola ota-onasining munosabatlarida aybdor emas. Agar bola sog'lom o'ssa, uni bolalar bog'chasiga beriladi. U yerda bolaning muloqot doirasi kengayadi u o'z tengdoshlari bilan yangicha munosabatlarga kirishadi.

Bu davrdagi bolalar o'yini ham o'ziga xos bo'ladi. Bolalar o'yinda turli rollarni o'ynaydilar. O'yin qoidalariga rioya qila boshlaydilar. Muloqot shakllari bolada hali guruh bo'lib o'ynamasidan avval, ya'ni o'z- o'zi bilan o'ynagan davridan shakllana boshlaydi. Bola o'yin o'ynayotganida ko'proq o'zining hatti-harakatlariga e'tibor beradi. O'zaro munosabatlar orqali bola boshqa bolalar bilan muloqotga kirisha boshlaydi. 4 yoshli bolalar esa ko'proq boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Bu bosqichda bolalar o'zaro o'yinchoqlarini almashtiradilar, bir-birlariga yordam bera boshlaydilar. Hamqorlikda o'ynaladigan o'yinda bolalar bir-birlarini tushunishga, yordam berishga o'rganadilar. Endi bola o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladi. O'yin o'ynaganda bolalar ko'pincha boshliq bo'lishga harakat qiladilar. Kim o'yinni tashkil qilsa u doimo boshliq bo'lgisi keladi. Shunda konflikt (nizolar) kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagan bola "men o'ynamayman, sen bilan," deb noroziligini bildiradi. O'yin vaziyati va o'zaro munosabatlar bolaning nutqini rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. Chunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar.

O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos hususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Ayniqsa o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Ilk bolalik davrida bola o'g'il bola bilan qiz bolani ajrata olmaydi. O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ajrata boshlaydilar. Kattalar bolaga o'g'il bola va qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa "yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak", "qiz bolamisan?" deb, qizlarga esa "daraxtga chiqma, sen qiz bolasan" kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar hulq - atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos hususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o'ziga xos hususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog'liq, ya'ni mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil qilinishi muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar endi o'zlari mustaqil harakat qila oladilar. O'zlari yuvinadilar, kiyinadilar. Lekin baribir ular ota-onalarining erkalashlariga, diqqat-e'tiborida bo'lishga harakat qiladilar. Ota-onalar bola tarbiyasida quyidagi usullardan foydalanadilar:

*1. Avtoritar uslub* - boshqarish qattiqqo'llik asosida olib boriladi. Boladagi tashabbus ota-onalar tomonidan ta'qiqlanadi. Har bir hatti-harakati albatta jazolanadi. Bu usul orqali tarbiyalangan bolalar qo'rqqoq, jur'atsiz bo'lib qoladilar, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. Chunki ota-ona unga sharoit yaratib bermaydi.

2. *Liberal uslub* - bu usulda ota-ona farzandiga befarq bo'ladi, u nimaga qiziqadi, nimaga layoqati borligiga qiziqmaydi. Bola nima yomon, nima yaxsxiligini bila olmaydi. Natijada bolalar mustaqil va faol harakat qila olmaydilar.

3. *Demokratik uslub* - tarbiyaning mahsuldor usuli bo'lib, unda ota-ona farzandiga bor mehrini berib, uning qiziqishlari, imkoniyatlari bilan hisoblashadi. Bolaning erkin fikrlashini istaydi. Bu usul bolani to'g'ri tarbiyalash imkonini beradi.

Ayrim oilalarda bola yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-ona unga barcha mehrini berib, uni erkalatib, xudbin (egoist) qilib qo'yishlari mumkin. Yoki bola ukali bo'lganida o'zini yomon his qilishi mumkin. Chunki ota-ona diqqat-e'tiborini endi ko'proq kichik farzandiga qaratadi.. Bunday holatlarda kattalar bolaga u endi mustaqil ish qila olishi, aqlliligini tushuntirsalar, shunda u kichik ukalariga nisbatan mehrlil bo'ladi.

Guruhga uyda tarbiyalangan yangi bola kelib qushilganida tarbiyachi boshqa bolalarga u bilan iliq munosabatda bo'lishlarini tushuntirishi lozim. Unga ko'proq e'tibor berish, yaxshi muomalada bo'lish kerak, shunda bola yangi muhitga tezroq ko'nikadi. Agar tarbiyachi yangi kelgan bolalarga mashg'ulotlar davomida yaxshi munosabatda bo'lsa, qolgan bolalar undan o'rganadilar. Tarbiyachi bolalar bilan do'st sifatida munosabatda bo'lsa, bunday guruh uyushgan bo'ladi, bir-birlari bilan iliq munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali irodaviy sifatlar shakllanadi. O'yinda bolaning emotsional rag'batlantirilishi yaxshi natija beradi. O'yin faoliyati bolalarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'yin orqali bolalarda boshqalarga nisbatan g'amho'rlik, to'g'ri munosabatda bo'lish, ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi. O'yin faoliyatida bolalar o'yin qoidasiga rioya qiladilar, "onasi unday qilmaydi", "doktor bunday ukol qilmaydi" kabi fikrlari bilan bir-birlarini harakatlarini to'g'rilab turadilar. O'yin bolaning kattalar hayotini to'g'ri tushunishlariga yordam beradi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj o'yinda qondiriladi. O'yin qoidasini buzganda bola samimiylik bilan "endi bunday qilmayman" deydi. Demak, o'yin bolani samimiylikka, his-tuyg'ularini tarbiyalashga, boshqalarga yaxshilik qilishga, to'g'ri muloqotda bo'lishga o'rgatadi. O'yin qoidasini buzadigan bolalar oxiri yakkalanib qoladilar, qolgan bolalar uni yoqtirmaydilar, u bilan o'ynagilari kelmaydi, hatto u bilan muloqotda bo'lishni ham istashmaydi. O'yinni musobaqa tarzida tashkil qilishda tarbiyachi ehtiyotkor bo'lishi lozim. Chunki o'yinda yutqazgan bolalarda yutgan bolalarga nisbatan adovat tug'ilishi mumkin. O'yindan so'ng ular nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ular "u yig'layapti", "u yiqildi" kabi 3 - shaxs birligini qo'llash orqali og'zaki fikrini bayon etadilar. Maktab yoshiga yetgandagina bu holat yo'qoladi. Bolalarning nutqi hali tarbiyalanmagan bo'lgani uchun ular tarbiyachining fikrini oxirigacha eshitgilari kelmaydi. Ular o'yin qoidasini eshitmasdan tezroq o'ynagilari keladi. Bolalarga egotsentrik (o'ziga qaratilgan) nutq xos bo'ladi.

Bola bu davrda ham o'yinga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. U yangi o'yinchoqqa nisbatan "eski" o'zining doim o'ynaydigan o'yinchog'i bilan o'ynashni yaxshi ko'radi. Qo'g'irchoq- sadoqat va refleksiyaning shakllanishida ajoyib vosita. Bolaning qo'girchoq'i bilan bo'ladigan muloqoti uning kattalar bilan bo'ladigan muloqotiga taqlid qilishidir. Qiz bolalar ko'proq qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar (o'yinchoq) bilan muloqotda bo'lsalar, o'g'il bolalar esa turli o'yinchoqlar (samolyot, koptoq, to'pponcha, mashina, velosiped) bilan muloqotda bo'ladilar. Qiz bolalar o'g'il bola qo'g'irchoq o'ynasa uning ustidan kuladilar, tanbeh beradilar. Demak, bolalar jinsga qarab o'yinchoqlarni tanlaydilar. Maktab yoshiga yetganda ham bolalar o'zlarining sevgan o'yinchoqlaridan voz kechmaydilar.

### **Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar**

1. O'yin faoliyati va uning bog'cha yoshidagi bolalar psixologik rivojlanishidagi ahamiyati?
2. Bolalarni psixologik jihatdan maktabga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

## DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Mavzu bo'yicha informatsion–ko'rgazmali ma'ruza.
<b>Mavzu rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti</li> <li>2. Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixiologik hususiyatlari</li> <li>3. Bog'cha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarning rivojlanishi</li> <li>4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi</li> <li>5. Maktabga psixologik tayyorgarlik</li> </ol>
<b>Darsning maqsadi:</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti haqidagi qarashlarni ochib beradi.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda yuz beradigan psixik o'zgarishlar haqida aytib bera oladi.
Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixiologik hususiyatlarini yoritib beradi.	Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixiologik hususiyatlarini aytib bera oladi.
Bog'cha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi fikrlari bilan tanishtiradi.	Bilish jarayonining rivojlanishi, bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishi, maktabga psixologik tayyorgarlik to'g'risidagi fikrlarni izohlab beradi.
<b>O'qitish usullari</b>	Kichik guruhlarda ishlash, Veer texnologiyasi, Ajurli arra metodi.
<b>O'qitish vositalari</b>	Lazerli proektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.
<b>O'qitish shakllari</b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol – javob, o'z – o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<b>Bosqichlar, vaqt</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>O'quvchi-talaba</b>
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun o'quvchilarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radi.
	1.2. "Veer" texnologiyasidan foydalangan holda o'quvchilarga quyidagicha savol bilan murojaat qiladi. -“Go'daklik davri va ilk bolalik davrida yuz beradigan psixiologik o'zgarishlarni taqqoslang?”	Mustaqil topshiriq ustida ishlaydi.



	1.3. O'quvchilarni 3 ta kichik guruhlarga bo'ladi. Mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Kichik guruhlarga bo'linadi.
	1.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Javoblarni tinglaydi, umumlashtiradi. Topshiriqlarning bajari-lishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. G'oliblarni aniqlaydi. Faol talabalarni rag'batlantiradi.	Jamoa bo'lib, bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, bahs–munozara yuritadi, qo'shimchalar qiladilar
II bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va vazifalarini tushuntiradi. Mavzu bo'yicha reja va tayanch iboralarni ilova qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	2.2. “Ajurli arra” uslubidan foydalanilgan holda o'quvchilarga tarqatma materiallar beradi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi va quyidagicha tavsiyalarni ilova qilishadi: a) berilgan materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling; b) bir–biringizdan so'rang va o'quv materialini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling; v) o'z jamoangizga qaytish zaruriyatini hisobga olib, materialning muhim tomoniga o'quv e'tiborni qarating;	Matn va topshiriqlarni o'zlashtirishga kirishadilar.
	2.4. Har bir matn mavzu rejasi asosida tuzilgan bo'lib, o'quvchilar bu savolni qanchalik o'rganganligini tekshirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi.	Savol – javoblarga faol qatnashadi.
	2.5. O'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, vizual-materiallar orqadi mavzuni qolib ketgan tomonlarini yoritib beradi.	Tinglaydilar. Yozib oladilar.
III bosqich. Yakuniy. (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi.
	3.2. Insert uslubidan foydalanilgan holda 1–bahs darsini o'qib kelishni hamda savollarga javob berishni uyga vazifa qilib beradi.	Eshitadi. Aniqlaydi, yozib oladi.

### “Veer” texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnikaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi.


### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

- “5”- a'lo
- “4”- yaxshi
- “3”- qoniqarli

### “Ajurli arra” qoidalari

1. Topshiriqni bo'lish: Topshiriq va matnni bir necha asosiy qismlarga qirqiladi.
2. Birinchi guruhlar: har bir guruh a'zolari qirqilgan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar.
3. Ekspert guruhlar: Qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan talabalar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhga birlashadilar.
4. Birlamchi guruhlar: Talabalar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi.



## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIHOLOGIK HUSUSIYATLARI

### Reja

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi
2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi
3. O'quv faoliyati hususiyatlari
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi

### Tayanch iboralar:

Kichik maktab yoshi, psihologik o'zgarish, krizis, psixika, diqqat, tafakkur, psihologik rivojlanish, xotira, tasavvur, hulq-atvor, xarakter, nutq, faoliyat, motiv, psixik zo'riqish

### Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib, to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psihologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psihologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z diqqatini o'quv jarayoniga yonaltirgan holda, maqsadga erishish uchun irodasini mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurni kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofida bilgan bilan psihologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayoti tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunishi ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolari bolaning o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakldagi muomala munosabati uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofda bilgan unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalarda o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofda bilgan bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga

beradigan baholariga qarab “Men yaxshi bolaman” emas, balki bu xatti-harakatlar o’zgalari ko’z o’ngida qanday namoyon bo’lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta’limiga bog’chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi.

### **Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning aqliy rivojlanishi**

Maktabga kelish arafasida bolaning so’z boyligi turli masalalar bo’yicha o’z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar o’z yoshidagi normal rivojlanayotgan bola o’z nutqida 500-600 so’zni ishlatasa, olti yoshli bola 3000-7000 so’zni ishlatadi. Boshlang’ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog’lovchilardan iborat bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar o’z nutqlarida qaysi so’zlarni ishlatgan ma’qul, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o’z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni o’zlashtirish ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o’ziga xos yana bir hususiyati borki, bola nutqda faqatgina o’z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o’z suhbatdoshining diqqatini o’ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to’g’ri tuzish va so’zlarni ham to’g’ri yozishga ma’lum talablar qo’yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so’zlarni qanday eshitgan bo’lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to’g’ri talaffuz etishga va yozishga o’rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqida ma’lumot ham yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada hali o’zi yozgan fikrlarni so’z va harflarni nazorat etish malakasi hali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o’quvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun material to’plash, asosiysini ajratib olish, ma’lum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumllarni to’g’ri tuzish, aynan mazmunga to’g’ri keladigan so’zlarni topish va ularni to’g’ri yozish ham, tinish belgilarini to’g’ri qo’yish, o’z holatlarini topa olish, to’g’rilay olish ham aqliy rivojlanishining ko’rsatkichlaridan hisoblanadi.

O’qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o’quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta’lim jarayonida ularning bilimlari ko’lami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o’z idroklarining aniqligi, ravonligi, o’tkirliги bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o’ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim hususiyatlarini o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

7-10 yoshdagi o’quvchining idroki, uning xatti-harakati, o’yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog’liqdir. O’quvchi o’zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmushi sharoitiga mos, shuningdek o’qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Maktabga birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o’qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasi yuqori bo’lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go’zalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o’z munosabatini bildira oladi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog’lomligida uning bilish faolligida ko’rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, o’rganishiga qaratilgan bo’ladi. Bola o’ynab turib olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va borliqlaridan xabardor bo’lishga intiladi. Masalan, bola o’zi mustaqil ravishda qanday

predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar asosan xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko'p asosan "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Nima orqali?" savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar.

Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola albatta mantiqiy ham fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki intellektual rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyat psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etishi hali birmuncha qiyinroq.

6,7-10,11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrof-dagilarning talabi yoki shaxsiy harakati bilan intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslashish imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolliqi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektida uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini intellektual masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning hayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o'quvchilarda hayol paydo bo'ladi.

**Xotiraning rivojlanishi.** O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini eslab qolishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida kursatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubhasiz ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

**Tasavvurning rivojlanishi.** Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishini so'raydi. Bu holat albatta biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirish mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar hali mustaqil tasavvur harakatlari qilishga qiynaladilar.

Psixolog *Piaje* tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishida, shuningdek ertak va xikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar asosan real borliqni tasavvur etsalar boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga bog'liq kichik maktab yoshidagi bolalarni realistik va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum obrazlar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qo'rquvni yengish, do'st topish, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha hayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. Tasavvur bolani vaqtinchalik bo'shashiga va bu bo'shashish vaqtida ota-onasiz yashashini davom ettirish uchun kuch to'plashga imkoniyat yaratadi. O'z bolasiga doimiy baqiradigan asabiy ona o'z farzandining tasavvurida mehribon farishta, o'z onasini katta, qo'rqinchli xavfdan qutqarayotgan qahramonlik yoki bolaga doimiy ravishda ozor berganligi uchun ham o'lib yotgan ona sifatida tasavvur etishi mumkin. O'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlar motivatsiyasini tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy hususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **O'quv faoliyati hususiyatlari**

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan mustahkam emotsional bog'liq bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plash, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanishini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Shu yoshdagi bola boshqa davrlarga qaraganda ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini ijtimoiy mavqeini sinf jamoasi va oila muhitidagi axvolni o'zgartiradi, uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarini egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim hususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Ammo u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish bilan amalga oshiriladi va

o'quvchida samaraliroq ishlash moyili, istagi va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan fahrlanish o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni o'quv faoliyatining asosiy komponentlari o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (*V.V.Davidov* bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarisa bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajarilgan harakatlar natijalarini o'z xatti-harakatlari hususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish hususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar va ularni egallagan bilan aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlang'ich sinf ta'limi dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yo'naltirish orqali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligi natijasidir. O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar taffakuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktablar dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri shundaki shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari bu aqliy rivojlanganlik va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. *N.S.Leytes* mulohazalariga ko'ra inson yoshi kattalashgan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quvchanligi albatta o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zining xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga normativ talablar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O'qituvchining o'quvchilariga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud. **Imperativ (avtoritar)** uslub bu qattiq qo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysinishlarini talab etadi. Lekin nima uchun qattiqqo'llik qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermoqchi, shuningdek o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham

o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilardan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib o'qituvchining ruhsati bilan javob berishni, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham baxs - munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchlari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik hususiyatlari, jumladan, nerv sistemasining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomni, lekin o'quvchida xavotirlik, ximoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatgichini berishi, lekin bu o'zlashtirish asosan faqat xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, xozirjavoblik kabi hususiyatlarni rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi, bolada doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

**Imperativ uslubdagi o'qituvchini** o'quvchilari o'qituvchi sinfda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu asosan to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining "ustozim meni yaxshi ko'radi" degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjuddir.

**Demokratik uslub o'qituvchi** bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Bu borada darsdagi intizom bu majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida tushuniladi. Bu uslub bolalarda ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvaffaqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. O'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti- harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga ma'suliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

**Liberal uslub** kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlari mutlaqo qarshi bo'lgan uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida mutlaqo qo'llab bo'lmaydi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala munosabatdagi imperativ uslub asosan ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zeriktirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligini asosan uch xil ko'rinishi bor. Bu *jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.*

**Jismoniy faollik** - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishga tabiiy ehtiyojidir. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro juda bog'liqdir. Chunki psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi.

**Psixik faollik** - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Psixik faollik deganda bolani o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga avvalo bir qancha maktab qoidalarga bo'ysunish qiyin. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning



doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. O'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'sunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala munosabat uslubining ahamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim hususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql soxibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda katta.

### **Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxsiy hislatlarning tarkib topishi**

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy hususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlari - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy hususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab yoshi davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu hususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidaga fikr va baholariga qarab o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi asosan to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat, past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi hususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy hususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir qatorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik asosan o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati, unga zavq bergan taqdiridagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik hususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq hususiyatli bo'lsa unda asta-sekinlik bilan bo'ysinuvchanlik, mustaqil bo'la olmaslik hususiyati mustahkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda quloqsizlik, yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillini shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7-11 yoshli davrda bolalar o'zlarining individual hususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari, atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining

tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshdagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi hulq-atvor va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli rivishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishiga, hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi hulq-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda o'rtoqlar va kollektivning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Ahloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy hususiyatlari shakllanadi.

### **Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasini integral xarakteristikasi**

5-6 yoshli davrida ko'zga tashlangan bolalarning hususiyatlari 4 yil davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi hamda o'smirlik davrining boshlariga kelib juda ko'p shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ko'pchilik bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik, mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

### **Kichik maktab yoshidagi bolalar muloqoti**

Bola endi maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo'lgan bo'lsa, endi maktab o'qituvchisi, sinf rahbari bilan ham muloqotda bo'ladi. Bolalarda bu davrda mas'uliyat hissi shakllanadi.

Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa bola gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar yozganida o'zining shu ishiga baho berilishini, o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga - o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi o'quvchi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalarda eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun

e'tiborini yozish texnikasiga va o'tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og'zaki nutqi orqali belgilanadi, ya'ni u so'zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib o'qish bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydanilmaydi, bolalarning yozma nutqlari ularning og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o'rgatib borishlari zarur.

### **Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar**

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik hususiyatlari
2. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo'llari qanday?
3. Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati
4. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar
5. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar

### **DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bahs-munozarali dars
<b>Mavzu rejasi</b>	1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi 2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi 3. O'quv faoliyati hususiyatlari 4. Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi
<b>Darsning maqsadi:</b> Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik hususiyatlari haqida ma'lumot berish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi haqida gapirib beradi.	Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishini aytib bera oladi.
Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini misollar bilan yoritib beradi.	Bolalarning aqliy rivojlanishi va o'quv faoliyati hususiyatlarini ochib beradilar.
Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsining shakllanishini izohlab beradi.	Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsining shakllanishini izohlab bera oladi.
<b>O'qitish usullari</b>	Kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, fikrlar hujumi
<b>O'qitish vositalari</b>	Proektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.
<b>O'qitish shakllari</b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
I bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (15 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini boshlash uchun o'quvchilarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar.
	1.2. O'quvchilarni 4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. Mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatgichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Interfaol usullardan foydalanish holda kichik guruhlariga bo'linadi.
	1.3.O'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida har bir guruhga ekspert qog'ozlarini tarqatadi, (o'quvchilar ekspert qog'ozlarida berilgan topshiriqlarni bajarishlari shart).	Topshiriq bilan tanishib chiqadilar.
	1.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Javoblarni tinglaydi, umumlashtiradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan aniqlab, g'oliblarni belgilaydi. Faol o'quvchilarni rag'batlantiradi.	Jamoa bo'lib, bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, bahs-munozara yuritadilar
II bosqich. Asosiy (55 minut)	2.1. Yangi mavzuning maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.	Diqqat bilan tinglab, mavzuni yozib oladilar.
	2.2. Tayanch iboralar va tushunchalar bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar.
	2.3. Reja savollari bo'yicha mavzu materiallarini gapirib beradi, vizual materiallardan foydalanadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	2.4. Rejadagi 1-savol bo'yicha, - Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi deganda nimalarni tushundingiz? - mazmunidagi savolni beradi.	Savolga javob beradilar.
	2.5. Mavzuning 2-savolini yoritishda "Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishiga tarif bering",- deb topshiriq beradi.	Savolga javob beradilar.
	2.6. Mavzudagi 3-rejani hayotiy misollar bilan yoritib beradi.	"Ha" yoki "Yo'q" jadvalini to'ldiradilar.
	2.7. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Fikrlar hujumi" texnikasidan foydalangan holda "Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishining asosiy yo'nalishlari?" degan savol bilan murojaat qiladi. Javoblarni tinglab, yangi mavzuni xulosalaydi.	Erkin fikr bildiradilar.
III bosqich Yakuniy. (10 minut)	3.1. Faol guruhlarini aniqlab, o'quvchilarni rag'batlantiradi.	Tinglaydilar.
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar tavsiya etiladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.

### Kichik guruhlarda ishlash

- Guruhdagi ishni rejalashtiradi.
- Guruh ichida topshiriqlarni taqsimlaydi.
- Yakka tartibda topshiriqlarni bajarishadi.
- Guruh muzokarasini o'tkazish qoidalariga asoslanib yakka tartibda erishilgan natijalarni muhokama qilishadi va guruh ishining umumiy natijasini shakllantirishadi.
- Taqdimot uchun birgalikda olib borilgan ish natijalarini tayyorlashadi.
- Ushbu materiallar qismini boshqalar ham o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o'zaro tekshiruv savollarini tayyorlashadi.

### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

	Baholash mezonlar ko'rsatkichlari	1 topshir.	2 topshir	3 topshir	Jami
1.	Berilgan topshiriq to'liq yoritildi. (2 ball).				
2.	Misollar keltirildi. (1,5 ball)				
3.	Guruh a'zolari faol qatnashdi. (1,5 ball)				
<b>Jami:</b>					

### Fikriy hujum metodini o'tkazish

Bu metoddan maqsad, mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Auditoriya 5 yoki 6 guruhga bo'linadi. Har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda to'g'ri "Fikrlar hujumi" o'tkaziladi. Shundan so'ng guruhlardan bir kishi chiqib o'zlarini g'oyalari haqida axborot beradi. Barcha guruh vakillari eshitib bo'lingandan so'ng o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi va baho beriladi.

## O'SMIRLAR PSIXOLOGIIYASI TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

### Reja:

1. O'smirlik yoshining psixologik hususiyatlari.
2. O'smirlarning intellektual rivojlanishi.
3. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi.

### Tayanch iboralar:

O'smirlik davri, fiziologik o'zgarish, psixik rivojlanishdagi krizis, negativ, pozitiv, abuliyat, avtomatizm, avtomat nutq, agrozii, adaptatsiya, adekvatlik, adolat, akkomadatsiya

O'smirlik davri 10–11, 14–15 yoshni tashkil etadi. Ko'pchilik o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish asosan 5–sinf dan boshlanadi. “Endi u bola emas–u, hali katta ham emas”-bu formula o'smirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekresiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekresiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik hususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smirlik davri “O'tish davri”, “Krizis davr”, “Qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlar xatti-harakatida noadekvatlik, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida *L.S.Viyutskiy* bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning hulq-atvoriga hos bo'lgan alohida hususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir hulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi hususiyatlar xos.

Kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush hulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli paydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning hulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smir shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z

fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi. Bunday holatlarga tushgan o'smir tashvishga tushadi, unda krizis holati kuzatiladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdegilar, kattalar, shuningdek ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni asabiylashishlariga sabab bo'ladi va natijada o'smirlik davri krizisi kuzatiladi.

**O'smirlik davrida yetakchi faoliyat** – bu o'qish, muloqat hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarni aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy hususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik munosabatlarini qo'llab quvvatlaydi.

O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan bo'ladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Ular kattalar tomonidan cheklangan haq-huquqlariga, qarshilik va e'tirozlariga qattiq qayg'uradilar. Lekin shunga qaramasdan muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirda kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan hal etishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalarga qilinadigan muomila – munosabatidan qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smirlik davriga kimningdir hatti-harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning hatti-harakatlarini imitatsiya, taqlid qiladilar.

Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatida mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik hususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda "Biz" hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'st juda qadrlil hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smirning do'stlari bilan so'rashishi va ko'rishishida (qo'l berib, quchoqlab ko'rishish), birga o'tirish va yurishida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishdagi, birgalikdagi harakatlarini yodi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshidagilarga ta'sir ko'rsatish, tarbiya berish uchun eng qulay sharoit–bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Agar kattalar o'smirlarning teng, do'stona, uni to'la tushunib aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligi asosida bo'lsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarni, ba'zan esa depressiyani ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Ko'pgina bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin ma'suliyatning o'z bo'ynilariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual

xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. O'smirlar o'qishidagi asosiy motiv bu ularning kattaliklarini xis ettiradigan, anglatadigan o'qish turlariga tayyorlanishlaridir. Ular uchun mashg'ulotlarning asosan mustaqillik beriladigan shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarini orttirishlari o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. Bilim, o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan umuman o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning ongli motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar asosan o'smirning hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. O'smirlarning o'quv materiallarini faqat mexanik xotiraga asoslanishlari halaqit berishlari mumkin. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirish qiyin. Buning uchun albatta o'quvchi o'quv materialini mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim. Bu davrda bolalarning idrok, diqqat va tasavvurlari o'zgaradi, lekin bu o'zgarish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan holda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo'ladi. O'smirlik davrida bolani anglash, o'z-o'zini anglash darajasi ko'tariladi va unda o'zi, boshqa odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. O'yin faoliyati asta-sekin kamayib, yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o'zini-o'zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda o'smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi.

**O'smirlik krizisi.** Bu davrga kelib bola organizmi jadallik bilan va nomutanosib o'sadi. Bu o'sish ba'zan bolaning o'zini nohush his qilishga va ayrim fiziologik kasalliklarni kelib chiqarishga sabab bo'lishi mumkin. Bu holatlarning barchasi bolani tashvishga soladi va uning asabiylashishiga olib keladi. O'zini katta bo'lib o'zgarayotganini his qilgan o'smirda endi kattalar hayoti bilan yashash ehtiyoji yuzaga kela boshlaydi. O'smir o'zini kattalardek tutishga, katta bo'lib qolganini ko'rsatishga harakat qila boshlaydi. Juda ko'pgina o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal yaxshi his qilmagan o'smir juda qattiq tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Shuningdek bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi uning psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi O'smirda aks hollarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. O'zi haqidagi mavjud fikrlarning bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni ikkinchi tomondan tashvishlantirib, asabiylashishiga sabab bo'ladi. Bu esa bolada o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, ko'pincha ota-onasiga qarshi chiqayotganini anglay olmayotganini tashvishga soladi. Bu holat ham o'zlarini ichidan asabiylashishlariga sabab bo'ladi. Kattalarning bu davrdagi eng asosiy vazifalari o'smirning muammosini to'g'ri anglashi va erkin, to'g'ri yashashiga yordam berishidir.

### **O'smirlarning intellektual rivojlanishi**

**Nutqning rivojlanishi.** O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiiy va jamiyatdagi narsa, voqea va



hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirilishi bilan bir qatorda inson dunyo qarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab inson aynan nutq, bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomilada so'zlarni ishlatish qoidalarini – “Qanday qilib to'g'ri yozish kerak?”, “Qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?” kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga juda katta e'tibor beradilar, kitob, gazeta, radio va televidenie diktoralari xatoliklariga diqqatlarini qaratadilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni bir muncha barham toptirishlariga olib keladi.

O'smir so'zlarining kelib chiqish tarixiga, ularni aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki zamonaviy katta odamlar singari so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi albatta namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy kuchli omil bo'lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ham og'zaki, ham yozma mavjud bo'lishi bilan ham kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq ham jadal rivojlanadi. 5–sinfdan boshlab, to 9–sinfgacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lishi darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. 5–6–sinflardagi o'quvchilar og'zaki va yozma matn uchun rejasini tuza oladilar va rejaga amal qila oladilar.

**Tafakkurning rivojlanishi.** O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof olamdagi bog'lanishlar mazmunini maksimal darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishlarida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning hisobiga isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. *J.Piajening* ta'kidlashicha “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi”. Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11–12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tara olishi o'quv materiallarini shunchalik tez, chuqur egallashi va uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik asosan nihoyatda qiziquvchanlik hamda atrofdegilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek ulardan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari ko'pgina mazmunli, chuqur o'ylangan va aynan o'sha masala yuzasidan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli gepotezalar tuza oladilar, tahminiy fikr yurita oladilar, tadqiq o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha alternativlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishda kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati bir muncha o'sdi. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

- tadbirkorlik, tejamkorlik, hisoblilik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik.

Ko'rsatilgan barcha sifatlar bo'lgan taqdirdagina amaliy tufakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1–sinfdan boshlab rivojlantira borish nihoyatda muhim. O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini, o'quvchilar o'z–o'zini boshqarishni yo'lga qo'yish shuningdek, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok ettirish orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlariga o'zi kirituvchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikni berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob–kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin. O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez o'ylab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni muammo yuzaga kelishi bilan orqaga tashamay tez yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin.

O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy hususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

#### **Diqqat, xotiraning rivojlanishi.**

O'smirlik davrida diqqat, xotira, tasavvur to'la mustaqillik kasb etib, endi o'smir ularni o'z ifodasiga ko'ra boshqara oladigan bo'ladi. Bu davrda qaysi yetakchi funktsiya (diqqatmi, xotirami yoki tasavvur) ustunlik qilayotgani yaqqol namoyon bo'lib, har bir o'smir o'zi uchun ahamiyatliroq bo'lgan funktsiyani e'tiborga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu funktsiyalarning rivojlanish hususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

**Diqqat.** Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab –quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatish uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilish mumkin. Lekin o'smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi. Aynan 13 –14 hamda 16 yoshlarda charchash hollari tez-tez kuzatiladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi. Diqqatning ko'rinishlariga - o'smirlik davri erishish va yo'qotish bo'yicha qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan bosqich hisoblanadi.

#### **O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi**

Jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi hulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta'sir o'tkazadi. Lekin bu bevosita ta'sirdir. Sotsial omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yoshdan o'rta maktabga o'tish, ya'ni yakka o'qituvchi rahbarligidan ko'pchilik o'qituvchilar tasarrufiga o'tish va muloqotdagi o'zgarishlar, ijtimoiy foydali ishlarni kengaytirib borish, mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish, shu bilan birga bolani oiladagi o'rni ham o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarining o'sib borishi munosabati bilan o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham qatnasha boshlaydi. Katta o'smirlarga nisbatan kichik o'smirlarda paydo bo'ladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilishiga emas balki atrofdagi shart sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla, ya'ni sotsial sharoitlar ta'siri bilan bog'lash zarur.

Shu sotsial sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iqlimni o'zgartirish bilan kichik o'smirdagi yomon hulq-atvor kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiiy xislatlarni oldini olish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar kichik o'smirdagi bu o'zgarishlar urushqoqlik va salbiy alomatlar o'jarliklarining ildizlari qaerdan kelib chiqadigan va nimaga bog'langanligi, nimani ta'siri ekanligini bilmay turib noto'g'ri tashxis va xulosalar keltirib chiqaradilar va bu aksariyat holda fojiga olib kelishi mumkin.

Aslida esa bu o'smir yoki maktab yoshdagi bolalarning psixik holatlarini va psixik rivojlanayotganliklarini hisobga olish va psixik muammolarini yechish, erkin va to'g'ri yechimlar uchun yordam berish, ularni aqliy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlar yordamida ularga psixologik yondashish zarur va muhimdir. Kichik o'smir yoshdagilar bilan ishlayotganda o'quvchini har bir tashqi va ichki reaksiyasi ortida uning o'z psixologik sabablari borligini bilish muhimdir. Bu "madaniyatsiz", "zararli", "tushunib bo'lmaydigan" deb nom olgan xatti-harakatlar bir qarashda shunday baholanadi, lekin bu xatti-harakatlar shaxs qaror topishi maxsus bosqichi uchun xos hususiyatdir. Kichik o'smir psixologik "mexanizmi" sxematik ravishda quyidagicha baholanadi. Endokrin garmonlarini paydo bo'lishi va ularning markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'lgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalarning faolligini jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi hamda bolada o'zini kattalardek his etish, mustaqil bo'lish tuyg'ularini tuyush uchun qulay shart-sharoitlarni olib keladi. Biroq psixik rivojlanishni bu bosqichda ham bola hali mustaqil harakat qilishga to'la tayyor bo'lmaydi. Asosiy ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri o'z mustaqilligini imkoniyatidan ortiq darajada baholashdir. O'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash bilan kichik o'smirni psixik imkoniyatlari o'rtasida tafovud paydo bo'ladi. Bu ziddiyatni hal etilishi qanday sodir bo'ladi va u bolani tashqi ko'rinishi, hulq-atvorida qanday namoyon bo'ladi?

Ma'lumki, har bir bolaning munosabatlari aniq vaziyatlarda ko'rinadi, mustahkamlanadi va qayd etiladi. Bola o'zidagi mustaqillikni shakllantirish uchun o'zi mustaqil ishlarni bajarishiga to'g'ri keladi. Lekin ikkinchi tomondan bir marta mustaqil ish bajarish uchun ehtimoliy shart-sharoitlardan holi bo'lishga harakat qiladi. Lekin mustaqil harakat qilish uchun bola boshqa mexanizmlarga ega emas. Bular o'smirni o'z kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligi o'z oldida turgan va uning natijasini aniq tassavur eta olmaslik kabi alomatlardir. Bu belgilar mana shu yoshda kishini mustaqil harakat qilishga qodir bo'lishga ayni hollarda tevarak-atrofdagi kishilarga qarshi borib o'zini haq ekanligini qattiq turib ximoya qilishga, boshqa hollarda esa vaziyatni vazminlik bilan qabul qilishga da'vat etadi. Kichik o'smirda o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini anglashni shakllantirishni bir qancha yo'llari mavjud. Masalan: bu davrda kattalarga taqlid qilish yoki oilada o'z hurmatini talab qilish, o'z so'zini o'tkazish, o'zini hurmatli, obro'li katta yoshli kishini obraziga o'xshatib rivojlantirish kuchli bo'ladi. Ularga biror so'z yoki tanbeh bilan murojaat qilsangiz u o'zini mustaqil fikrlay olishi va biror ishni albatta udasidan chiqa oladigandek ko'rsatadi. Vaholanki, hali o'smirni psixologik imkoniyatlari yetarli emas yoki rivojlanmagan, kattalar, o'qituvchilar o'smirdagi bu jarayonni psixologik nuqtai-nazaridan baholay olishimiz, unga soxta pedogogik yuzaki yondashmay aksincha unga o'z imkoniyatlarini o'stirishga, o'z ichki va tashqi qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirishimiz muhim. O'smir yoshdagi bolani birinchi galda intiladigan narsasi u o'zini endi kichkina bola emas, katta bo'lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib-bilmay yo'l qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish, uni "katta bo'lib qolganlik" tuyg'usini so'ndirib emas, balki katta odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatish zarur. Demak, bu o'smirni to'laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bog'liq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to'g'ri tushunmog'i va bolalarni o'zlarini kattalardek tutishlariga to'sqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy izga solish uchun intilishi kerak. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

O'z tengdoshlari bilan tenglik asosida muammoni munosabatlar asosida hal etish o'smir uchun alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar atrof dunyoni, bir-birlarini birgalikda anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatlidir. O'smirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimroqdir. O'z ishlari sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg'u bermagan holda o'zi xohlagan kishisi bilan do'st bo'lish huquqini talab etadi. O'z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la nomoyon eta oladi. Ana shu shaxsiy erkinlikni u katta bo'lishi huquqi deb anglaydi. Ota-onalarning o'smirlarga shu erkinlikning bermasligi yoki o'smirning shunday deb bilishi natijasida ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta g'urur norma va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday ximoya qilishi o'smirlarining alohida nazoratida bo'ladi. Ular orasida sodiqlik va to'g'rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik, bevafoqlik, o'z so'zida turmaslik, egoizm, qizg'anchilik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaklash, unga qarshi baykot e'lon qilish va uni yolg'izlatib qo'yish shaklida bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zini hurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini ximoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

### **O'smirlik davrida psixik rivojlanishdagi yangilanishlar**

O'smirlik davrida asosan bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlarga hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik hususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko'tariladi. Nutq asosan yuqori darajada rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O'smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o'rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturi va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi, o'smirlarning o'zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, hulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillikni (yosh bolalarga xos jismoniy va psixologik holat) kuzatish mumkin.

5-6 sinf o'quvilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish hususiyati xos. Ayniqsa 6 sinfdan boshlab o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlar yuqori baholanadi. O'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin.

O'smirlik davrida turli fanlarni turli xil o'qituvchilar o'qitish munosabati yuzaga keladi. Kattalar shaxsi va faoliyatni baholashning yangi mezonlari ham ularda shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan, o'quvchilarni ajratmaydigan o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham quyidagicha o'zgarishlar amalga oshadilar. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar asosan o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan bahosi differensial xarakter da (hulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti-harakatlariga bo'lina boshlaydi).

## O'smirlarning kattalar bilan bo'ladigan muloqoti

Naslimiz davomchilarini nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muomala madaniyatini tarkib toptirishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, o'smir va o'spirinlarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish psiholog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o'rgatish zarur. O'smir va o'spirinlarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psihologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishni tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psihologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir.

Maktabning o'rta va yuqori sinflarda yozma nutq mazmunli, ta'sirli bo'lib, grammatik jihatdan tobora to'g'ri, mukammal tuzilib boradi va oqibatda bunday nutq og'zaki nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bolalar nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi o'quvchilar nutqini o'stirishda namuna bo'lib xizmat qilishi kerak.

O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Yozma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, ma'ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli reflekslar paydo bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib qolgan bo'lsa, unda bu kamchiliklarni tugatish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalarda yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur.

O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. Chunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar.

Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ba'zi hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, uyda (oilada), mahallada, ko'cha - ko'ylarda bo'ladi.

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki kattalar ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan hafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolar keltirib chiqishi mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson ro'y beradi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. "Oltin so'zlar"(azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlar taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga e'tibor berishimiz kerak. Chunki "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz emas.

Kattalar ham bir-birlariga verbal, noverbal va paralingvistik ta'sir ko'rsatadilar. Biz vaqti kelganda imo-ishora, mimika, pauzalar orqali ham bir-birimizga ta'sir eta olamiz. Bir og'iz so'z bilan xursand, yoki xafa qila olamiz. Shuning uchun kattalar doimo bir-birlariga samimiy munosabatda bo'lishlari lozim.

Kattalar muloqoti ma'lum bir yoshlarda o'ziga xos bo'ladi. Masalan, kattalar ma'lumotlariga, yoshlariga, jinslariga, kasblariga qarab muloqotda bo'ladilar. Keksalar muloqoti o'ziga xosdir. Ular xuddi kichik bolalardek izzat-talab, injiq, e'tibor talab bo'lib qoladilar. Keksalarga ehtiyotkor bo'lib muomalada bo'lish zarur, chunki ko'ngillari nozik bo'ladi. Ularga ko'ngillarini ko'taradigan so'zlarni ko'proq qo'llash zarur.

Demak, har bir yoshga kiradigan kishilar, shu jumladan, kattalar ham o'ziga xos muloqotga kirishadilar. Muloqot har bir davrga xos holda amalga oshiriladi.

### **Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar**

1. O'smirlik davrining asosiy psixik hususiyatlari
2. O'smirlik davridagi yetakchi faoliyati
3. O'quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o'smirdagi bilish jarayonlarining rivojlanishi
4. O'smirlik davri inqirozi, sabablari va namoyon bo'lishi
5. "Tarbiyasi qiyin" o'smir hulq-atvoridagi salbiy hususiyatlar va ularga psixologik yondoshuv
6. O'smirlik yoshida individual yondoshuvning psixologik jihatlari.

### **DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqti: 80 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	"Qanday?" va "Nima uchun?" texnikalaridan foydalanilgan, bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bahs-munozarali dars.
<b>Mavzu rejas</b>	1. O'smirlik yoshining psixologik hususiyatlari. 2. O'smirlarning intellektual rivojlanishi. 3. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi.
<b>Darsning maqsadi:</b> O'smirlik yoshidagi psixologik, intellektual va shaxs shakllanishidagi o'zgarishlarni talabalarga o'rgatish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
O'smirlik yoshining psixologik hususiyatlarini yoritib beradi.	"O'smirlik yoshi" tushunchasining mohiyatini izohlab beradi.
O'smirlarning intellektual rivojlanishi bilan tanishtiradi.	O'smirlarning intellektual o'zgarishlari haqida aytib beradi.
O'smirlik davrida shaxsning shakllanishini yoritib beradi.	O'smirlarda yuz berayotgan jarayonlarni izohlab beradi.
<b>O'qitish usullari</b>	Kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, "Qanday?" hamda "Nima uchun?", "T-sxema" grafik tashkil qiluvchilar.
<b>O'qitish vositalari</b>	Proektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.
<b>O'qitish shakllari</b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<b>Bosqichlar vaqt</b>	<b>Faoliyat</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>O'quvchi-talaba</b>
<i>I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 minut)</i>	1.1 O'quv mashg'ulotini boshlash uchun talabalarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar
	1.2. O'quvchilarni 4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. Mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatgichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Interfaol usullardan foydalangan holda kichik guruhlariga bo'linadi
	1.3. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi.	Tinglaydilar
<i>II bosqich. Asosiy (60 minut)</i>	2.1. Yangi mavzuning , maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.	Diqqat bilan tinglab, mavzuni yozib oladilar
	2.2. Tayanch iboralar va tushunchalar bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar
	2.3. Vizual materiallardan foydalanilgan holda yangi mavzuni tushuntiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
	2.4. "Nima uchun?" grafik tashkil etuvchisidan foydalanilgan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi.	Jamoa bo'lib jadvalni to'ldiradilar
	2.5. Mavzuning birinchi rejasini to'ldirib, ikkinchi rejadagi o'smirlarning intellektual rivojlanishiga izoh beradi. "Qanday?" grafik tashkil etuvchisidan foydalanilgan holda o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi, "O'smirlik yoshida nutq, tafakkur, xotira va diqqat qay darajada rivojlanadi" izoh beradi.	Tinglaydilar, erkin o'z fikrlarini bildiradilar
	2.6. O'quvchi – talabalarni faollashtirish maqsadida, savollar bilan murojaat qiladi: 1) O'smirlik yoshida qanday jismoniy o'zgarishlar ro'y beradi? 2) O'smirlik davri krizisi, sabablari va nomoyon bo'lishi. 3) O'smirlik yoshida individual yondoshuvning psixologik jihatlarini aytib bera olasizmi?	Savollarga javob beradilar
	2.7. Javoblarni umumlashtirib, har bir guruhga topshiriqlar beradi. Topshiriqlarni bajarilishiga yordam beradi, taqdimotini tinglaydi.	Topshiriqlar ustida mustaqil ishlab, taqdimotini tayyorlaydilar. Erkin bahs-munozara yuritadilar.
<i>III bosqich. Yakuniy. (10 minut)</i>	3.1. Yakunlar chiqaradi. Faol guruhlarini aniqlab, o'quvchilarni rag'batlantiradi.	Tinglaydilar
	3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: 1. Hozirgi zamon o'smirlarida yuz berayotgan ruhiy jarayonlar haqida esse yozing.	Yozib oladilar

### Talabalarni baholash mezonlari ko'rsatkichlari

Guruh	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Mavzuni to'liq biladi	Faollik	Misollar keltirildi	Jami
	Ball	1,0	0,5	1,5	3
1					
2					
3					
4					

### Guruhlarga qo'yilgan ballar ko'rsatkichlari


Guruh	1	2	3	Umumiy ball	Baho
1					
2					
3					
4					

2,2 – 3 ball – a'lo

1,2 – 2 ball – yaxshi


0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

### “Nima uchun?” sxemasi







## 1-o'quv topshiriq: "Nima uchun?" texnikasi



## "Qanday?" ierarxik diagrammasi



## 2-o'quv topshiriq: "Qanday?" organayzerini to'ldiring



## 3-o'quv topshiriq: "T-sxema" texnikasi

Har bir guruhga "T-sxema" texnikasidan foydalanilgan holda topshiriq tarqatiladi.

*Ikkita ro'yxat tayyorlang. Biriga o'z-o'zingizni hurmat qilish mezonlaringizni, ikkinchisiga – sizni boshqalar nima uchun hurmat qilishi sabablarini kiriting. Ularni qiyoslab ko'ring. Kimni ranjitish osonroqligi haqida mulohaza yuritib ko'ring. Bu*

*haqda o'zingizga ma'lum voqealarni so'zlab bering. Shunday voqealarni tushuntira turib, yuqorida tuzgan ro'yxatingizdan nimalarga e'tibor bermaslik mumkin bo'lsa, shularni o'chiring.*

### **“Asoslangan esse” yozish qoidasi**

***Asoslangan esse**- qo'yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma'lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o'zining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. **Maqsad** - muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishonirish.*

## ILK O'SPIRINLIK YOSHINING PSIHOLOGIK HUSUSIYATLARI

### Reja:

1. Ilk o'spirinlik davrining psixik hususiyatlari
2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish
3. Ilk o'spirinlik davridagi yoshlarning shaxsiy hususiyatlari

### Tayanch iboralar:

O'spirinlik, ijtimoiy hayotdagi faollik, tashxis markazi, o'z-o'zini anglash, sevgi-muhabbat va do'stlik hislari, ambitsiya, analizator, asab tizimi, affekt, aql, idenfikatsiya.

Ilk o'spirinlik davri kamolot bo'sag'asi deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psihologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psihologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning fazalari ijtimoiy yetilishi muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimiz taraqqiyoti ikki-uch yil avvalgi avlodga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil oldin tugallanmoqda. Fiziologlar bu protsesni 2 chi darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab 3 ta fazaga ajratadilar:

I faza - prepuberitant

II faza- puberitant

III faza - pastpuberitant

Yosh psihologiyasi o'spirinlikning yoshini I- II fazalar bilan bog'lab kelar edi. Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshi chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin bu taraqqiyot etapining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlar hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

### O'spirinlikning jismoniy taraqqiyoti

Ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu akademik litsey va kabs-hunar kollejlari o'quvchilaridir. Bo'yni o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o'g'il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan: 16 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ortiq bo'ladi. Jismoniy taraqqiyot asosan barchasi to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishdan kam farq qiladi. Bo'yni va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi, hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo'y, og'irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo'ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarining shakllanishi va funksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda ana shu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga hos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekresiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Bu yoshda nerv sistemasining va xususan miya rivojlanishida o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro'y beradi. Bosh miya po'sti qismlarini assotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta (yarim shar)

qatlarning analetik- sintetik faoliyati murakkablashadi. Jinsiy yetilish muddati irqiy va milliy hususiyatlarga va iqlimga bog'liq bo'lmaydi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi, hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri asosan unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'z-o'zini anglashiga to'liq ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

Uning nafaqat mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirga ko'proq bola deb qarasarlar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rnini topishga nisbatan intilish anglagan holatida bo'la boshlaydilar. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egalay boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilar keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini va buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.

O'spirin bola bilan katta odam o'rtasidagi oraliq mavqeni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rnini kattalarga bog'liqdir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mazmun va yo'nalishini belgilab beradilar. Bolaning bajaradigan roli kattalar rovidan sifat jihatdan farq qiladi. Hayot faoliyati murakkablashgan sari o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi. 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay ham boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik hususiyatlari saqlanib qoladi.

O'spirinlar (16 –18 yoshlar) o'zlarining psixologik hususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy, ham aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy hususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Shu tufayli ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat, ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, lekin o'qishga qiziqish o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglash bilan motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari ham o'zgaradi va bu o'z navbatida o'spirinning fanlarga, hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabat ham o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'z ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish-o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg'ularning boyligi, xilma-xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo'lish bilan ajralib turadi. Ahloqiy va ijtimoiy siyosiy hisslarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan ahloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg'ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi. O'spirinlik yoshida o'quvchilarda o'rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya psixologlari *I.V.Straxov* bilan *A.L.Shnirman* tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir hususiyatlari bilan farq qiladi.

1) O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi. Bularda-oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va h.k.

2) Do'stlik hislari ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlar va faoliyatning juda keng doirasini qamrab oladi.

3) Do'stlik ancha emotsional bo'ladi, ya'ni do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr bo'yi davom etadi. O'rtoqlik munosabatlari kollektivni jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o'rtog'ing borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylik emotsional sofdillik kabi hislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo'shatadilar. Do'stlarga samimiy mehribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga, hamda uning emotsional hayot hususiyatlariga bog'liqdir. O'spirin hamma vaqt rostgo'y, samimiy bo'lishni istaydi.

O'spirinlik yoshida alohida bir his-sevgi paydo bo'ladi. Bu maktab o'quvchisining emotsional hayotida mutlaqo yangi bir holat bo'lib, hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi odatda sof, pokiza, beg'ubor, xilma-hil kechinmalarga boy, muloyimlik, hayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi hislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi. O'rtoqlarga munosabatlar doirasi kengayadi. Ayniqsa, qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Dastlab bolalarga xos sodda sevislik 16-17 yoshda birinchi jiddiy moyillik va qattiq sevgi ehtiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'spirinlarda sevgi hissining bir qancha holatlarga bog'liq. Birinchidan – jinsiy yetilish, ikkinchidan – ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj, uchinchidan – bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsional bog'liqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuyg'u kuchaygan shaklda birinchi bora asosan ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. Ilk o'spirinlar yolg'iz bo'lishni istamaganligi uchun ham o'zlari faol ravishda o'zaro yaqin muloqot, bir-birlari bilan intim munosabatni izlaydilar. Ba'zan o'spirinlar bu xislarga shunchalik berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutlaqo unutib qo'yadilar. Bu davrda o'spirinlarda sevislik mumkin bo'lgan qiz yoki yigit ideali paydo bo'ladi va ko'p yillar davrida bu ideal saqlanib turadi. O'spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir yoqtirishiga, sevishiga turtki bo'ladi. O'spirinlarning ideal obrazlari ba'zan real bo'lmaydi, ya'ni ular hech kimni "unga" o'xshatmaydilar. Bundan esa ularda ishonchsizlik hamda yolg'izlik hissi ham yuzaga kelishi mumkin. Ilk o'spirinlarga shu mavzuda badiiy adabiyotlar o'qish, kinofilmlar, teatrlar tomosha qilishni tavsiya etish, hamda turli debatlar o'tkazish, ularga o'zlarini kelgusi hayotlarini o'zlariga mos turmush o'rtoqlar topish masalasiga jiddiyroq yondashishlariga yordam beradi.

### **O'spirinlik davrida aqliy rivojlanish**

Yuqori sinf o'quvchilarning bilish jarayonlari turli hil nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama o'ylagan o'z fikrini berishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofidagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, tayyor ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlari mulohaza yurguzib qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha baxs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkur eta oladilar, nazariy fikr yuritib o'zlarini–o'zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol ahloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda baxslashga olib o'z munosabatlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushinchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va o'z–o'zini anglash sezilarli darajada o'sadi. O'spirinning o'z–o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot

motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrga kelib bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol ravishda kechadi. Lekin bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi ko'zatuvcilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z hususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayoniga munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqazo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'spirin o'quvchilarning o'quv fanlariga munosabatlari quyidagi holatlarga bog'liqdir:

1. Fanning dunyoqarashdagi roliga
2. Fanning bilishdagi ahamiyatiga
3. Fanning ijtimoiy ahamiyatiga
4. Fanning amaliy ahamiyatiga
5. Fanning o'zlashtirish darajasiga
6. Fanning o'zlashtirish uslubiyotiga

O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy hususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqish kuchayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo'l, vositalari esa ta'lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy hususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O'spirin u yoki bu xildagi, turli janrdagi adabiy asarlarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. *Tafakkurning mazmundorligi* deganda o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqeilik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. *Tafakkurning chuqurligi* deganda esa moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari sifatleri, ularning o'zaro bog'lanish va munosabatlari o'spirinning fikrlash faoliyatida to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi va chuqurligi sifatleri bilan muntazam bog'liq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qilish o'quvchanligini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqeilikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanilganini bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni tadqiq qilishni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun ularning o'qish faoliyatlarini faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirish kerak. Ta'limda onglilik o'quvchining yuqori darajasidagi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko'rsatib o'zlashtirganda, o'quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rganadilar. *G.E.Zalesskiy* o'quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baho berish usullarni maxsus o'rgatish juda ham muhim va zarur ekanligini tadqiqot asosida ko'rsatib bergan. Bu o'rinda ham asosan o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, to'g'ri rahbarlik qilgan holda tanishish lozim. O'spirinlarning

aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. O'spirin adabiyot asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai-nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlari unda fikrlash, mustaqil o'ylash to'g'ri xukm va xulosalar chiqarish, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir. O'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammoli tomonlari yuzasidan baxslashuvi insoniy hislatlarning muayyan darajada ishtirok etishni aql tanqidiyligining aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona tanqidiy nuqtai-nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo tug'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik hususiyati rivojlana boshlaydi. Aql tanqidiyligining rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. O'rganilayotgan hodisa to'g'risida xukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyati rivojlanadi. O'spirin qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi. Demak, maktabda o'tiladigan darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o'spirinlar o'zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Bularning barchasi ilmiy–nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak-atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini o'sishiga, aqliy imkoniyatlarini vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashga muhim shart–sharoit yaratadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'smirlik yoshida o'quvchilar aqliy faoliyatning omillar va usullari bilan qurollangan bo'ladilar.

Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi. O'spirinlarni kasbga yo'naltirishda ularning his-tuyg'u va irodalarini hisobga olishning ham muhim ahamiyati bor. Chunki, o'quvchilarning his-tuyg'usi, kayfiyati, hayajonli holatlarda e'tiborga olinmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'spirinlar u yoki bu kasbni o'z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat'iylik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi umuminsoniy xislatlarga ega bo'lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o'rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlar aqliy rivolanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron-bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarni tuzadi.

Hozirgi yigit va qizlarni 30–40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda ularning umumiy saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. Intellektual qiziqishlar doirasi keng va ko'p qirralidir. Radio, televidenie, ilmiy–ommabop asarlar, kinofilmlar, fan va texnika taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda. Lekin o'spirinlar qiziqishlari aksariyat hollarda o'z tanlagan kasb va yo'nalish shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangan bo'ladi. O'spirinlik yoshiga kelib yigit, qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O'spirinlar dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qasharlari tizimidan iboratdir.

Hayotda turli xil kasblar mavjud. Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o'z hayotini asosan ana shu bir kasbga bag'ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davridan boshlab, bolalarning rolli o'yinlarida ko'rinadi. Demak, bola o'yin orqali



to'la kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi. Masalan: “magazin” yoki “bozor” o'yini orqali bola ham “sotuvchi” ham “haridor” bo'la oladi, “pul” va “tovar” bilan muomila qilishni o'rganadi. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb atash mumkin. Keyingi yosh davrlarda bu tayyorgarlik turli faoliyatlarda va turlicha ko'rinishlarda davom etadi. “Men kim bo'laman?” savoliga to'qnash keladi. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy–psihologik hamda ahloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalaridan ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan–to'g'ri bog'liq. Tajribalarning ko'rsatishicha, agar o'spirinlik davriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layoqatlarni yuzaga kelishiga umid bog'lash qiyin. Misol uchun bolalik paytlarida texnika bilan muomila qila olmagan, slesarlik asbob–uskunalaridan foydalana olmagan, o'z qo'li bilan nimanidir bajara olmagan bola talantli injener konstruktor bo'lib yetishishi ancha mushkul yoki litsey va kollejlarda matematik, lingvistik, badiiy–ijodiy layoqatlarini ko'rsata olmagan bola katta bo'lganida hech qachon kuchli matematik, filolog yoki musavvir bo'lib yetisha olmaydi.

Har qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi avvalo o'spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Bu yoshdagi bolalarga muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalishlari bo'yicha mashg'ul bo'lmagan o'spirinlarga ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishiga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug'ullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan nerv sistemasi tipi, analizatorlar hususiyati emotsional–idoraviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

### **Ilk o'spirinlik davridagi yoshlarning shaxsiy hususiyatlari**

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy hususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib hamkasb tanlashga nisbatan ma'suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning ahloqan o'z–o'zini anglashi shuningdek, ahloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq ahloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ahloqiy masalalarni yechish manbai – bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy – ommabop badiiy, publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan xushyor, aqliy – amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan o'tgan yillardek “xaqqoniylik bu hammaga bir xil emas, balki har kimdan imkoniyatiga qarab va hammaga ishiga yoki inson manfaatlariga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi” deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko'p o'smirlar ahloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum ahloq normalari qat'iylashgan hususiyatlarga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, ahloqiylik va ahloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatda bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan ahloq normalari asosida o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi. Ikkinchidan o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi. Uchinchidan o'zining psixik hususiyati va hislatlarini anglashi. To'rtinchidan ijtimoiy, ahloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarni barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'lagandir. Lekin bularni hammasi sizga Ma'lumki,, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning "men"ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va h.o. o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish hususiyatiga ega bo'lgan o'smirlik vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy hususiyatlarini kuzata boshlaydilar, ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, husn, yuzdagi husinbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o'g'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi – bu o'pirinlikning o'zini anglashi ancha muhim komponent bo'lib hisoblanadi.

O'spirinlikda o'z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi. O'spirin ham o'smir singari o'z qimmatini nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benihoya bilgisi keladi. O'ziga baho berish 2 usulda bo'ladi.

1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o'zini yuqotmaydi yoki yosh bolani yong'indan qutqazdi – "men qo'rroq emasman" deydi. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. "Men qobiliyatliman" - deydi. Ahloqqa oid bunday xatti-harakatlar, o'spirinning o'z qat'iyiligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, ya'ni o'zi haqidagi boshqa ishlarni, fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan "mardlik" deb ma'qullangan xatti-harakatni o'qituvchi "qalbaki o'rtoqlik" deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'ylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Hatto, kattalarning o'zini anglashi qarama-qarshiliklardan holi emas. O'spirinlarda yanada kuchliroq bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar o'zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko'proq uchraydi. Bu holat shunchaki o'sishni bildirib qolmasdan, balki shaxsda mohiyat jihatidan tubdan boshqacha tarzda o'z shaxsiyatining ma'naviy-ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi maqsad va vazifalarini anglash, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o'z-o'zini anglash, turmush, yashash, o'qish, mehnat va sport faoliyatlari taqazosi bilan namoyon bo'ladi. O'quv muassasa mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muamala ko'lamining kengayishi o'ziga xos tipologik aqliy, ahloqiy, irodaviy, hissiy hususiyatlarini oqilona baholash, qo'yilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish o'z-o'zini anglashni jadallashtiradi. O'spirin o'quvchilarning o'z-o'zini anglashga aloqador o'ziga xos hususiyatlari mavjud ular, dastavval o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'spirin o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir hususiyati–bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatini e'zozlash, sezish va fahmlashga ko'proq moyilligidir. O'spirin o'quvchida o'z-o'zini anglash negizida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini

tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiiq qilib ko'rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'spirin o'quvchisi ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy hislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kixilarga xos ko'p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izcxil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va hislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar, o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O'spirin o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini tarbiyalashni to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta'sir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba'zi bir yaramas yurish-turish ko'rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatqich zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarning asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir.

O'spirinlarda balog'atga yetganlik tuyg'usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg'usiga o'sib o'tadi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy sanoatga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi, xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarini roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlik, mas'uliyatlik, o'z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlarini barqaror hususiyat kasb etib boradi. O'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlarini, o'zini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladilar. Do'st va dushmanlari kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki, o'spirinlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Ba'zan o'spirinlar o'zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga xaddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'spirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa o'spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini hurmatlash va uning hususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o'z-o'zini hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psihologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar – qahramonlik, yaxshi ota, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar, qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va h.o. O'zaro munosabat va emotsional hayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'spirinning o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashda hal qila oladi. Hozirgi zamon psihologiyasida shu narsa ko'zga tashlandi. Ko'pchilik o'spirinlar bo'sh vaqtlarni bironta joyda o'tkazishni afzal ko'radilar. Ayniqsa shahar bolalari bo'sh vaqtlarini maktab va uydan tashqari joylarda

o'tkazishni afzal ko'radilar. Qishloq bolalari bo'sh vaqtlarini madaniy dam olishga qaratadi. Ammo shahar bolalari bo'sh vaqtlarini ko'proq kattalar bilan emas, balki o'z tengqurlari bilan o'tkazishni afzal ko'radilar. Masalan: ayrim o'spirinlar ota-onalari salgina ehtiyotsizlik qildimi hafa bo'lib, qovog'ini osadilar, yuz o'girib o'tiradilar, gap qaytaradilar. Natijada ota-ona o'rtasiga sovuqchilik tushadi. Munosabatlar bular o'rtasida murakkablashadi. Uydan chiqib ketadilar. Lekin siyosiy qarashlar, dunyoqarashlar, kasb tanlash ancha chuqur muammolarga kelganimizda shuni aytish mumkinki, ota-onalar obro'si odatdagidek bolalarga o'z tengqurlariga nisbatan ko'proq ta'sir etadi.

Kollektivizm va grupp hayoti – erta o'spirinlik bu faqatgina o'zini analiz qilish yoshigina bo'lib qolmay, shu bilan birga eng yosh “kollektiv” hamdir. Masalan: ba'zi o'spirinlar sinfda masqarabozlik qilib, bolalarni jig'iga tegadilar. Bunday paytda o'spirinlarda o'zining gruppadagi holatiga qanoatsizlik paydo bo'ladi. Katta yoshdagi bolalar hayoti murakkablasha boradi. Bunda birinchidan uyushgan maktab kollektivlari, ikkinchidan maktabdan tashqari kollektivlar, sport jamiyati klublar, to'garaklar, uchinchidan formal bo'lmagan stixiyali grupp va kompaniyalar. Bular shaxslararo aloqa qilish protsessida vujudga keladi.

### **Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ilk o'spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish hususiyatlari nimalardan iborat?
2. O'spirinlik aqliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik nimalardan iborat?
3. Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi nimalarda nomoyon bo'ladi?
4. O'spirinlik davrida kasb tanlashning o'ziga xos hususiyatlari.


## DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b><i>Talabalar soni:</i></b>	<b><i>Vahti: 90 daqiqa</i></b>
<b><i>O'quv mashg'ulotining shakli</i></b>	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga qaratilgan bahs-munozarali dars.
<b><i>Mavzu rejasi</i></b>	1. Ilk o'spirinlik davrining psixik hususiyatlari 2. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish 3. Ilk o'spirinlik davridagi yoshlarning shaxsiy hususiyatlari
<b><i>Darsning maqsadi:</i></b> Talabalarda ilk o'spirinlik davri haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<b><i>Pedagogik vazifalar</i></b>	<b><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></b>
Ilk o'spirinlik davri, undagi psixik o'zgarishlar to'g'risidagi bilimlarni tushuntirib beradi	Ilk o'spirinlik davriga ta'rif bera oladi
Ilk o'spirinlik davridagi aqliy rivojlanish va yoshlarda shaxsiy hususiyatlarga ta'rif beradi	O'spirinlarda kechadigan jismoniy, aqliy, ruhiy o'zgarishlarga ta'rif bera oladi
O'spirinlarning kattalar bilan muloqot munosabati va o'spirinlik krizisi to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi	Tafakkur, diqqat, nutq, muloqot va shaxsiy faoliyatning o'spirinlarda rivojlanish darajasi va ularda yuz beradigan krizisni ta'riflay oladilar
<b><i>O'qitish usullari</i></b>	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozara, suhbat, O'yla - juft bo'lib ishla – fikr almash, 4x4, Klaster, Insert.
<b><i>O'qitish vositalari</i></b>	Darslik, tarqatma materiallar, marker va vatman.
<b><i>O'qitish shakllari</i></b>	Jamoaviy, frontal, juftlikda ishlash.
<b><i>O'qitish sharoitlari</i></b>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan xona.
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini boshlash uchun o'quvchilarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar
II bosqich. Asosiy (70 minut)	2.1. O'qituvchi ilk o'spirinlik davri va undagi psixik hususiyatlar haqidagi gapirib beradi. Talabarga "Klaster" texnikasidan foydalanilgan holda "O'smir va o'spirinlardagi psixik holatlarning farqi nimada?"- deb savol bilan murojaat qiladi.	Diqqat bilan tinglab, mavzuni yozib oladilar. Jamoa bo'lib "Klaster"ni to'ldiradilar
	2.2. O'quvchi talabalarning fikrlarini umumlashtirib, ularga "4x4" texnikasidan foydalanilgan holda, har bir guruhga qo'yidagicha savol bilan murojaat qiladi: "Ilk o'spirinlik yoshiga yetgan sog'lom bolalarda yuz beradigan psixik, jismoniy va aqliy o'zgarishlar ro'yxatini tuzing".	Tinglaydilar. Kichik guruhlarda ishlaydilar
	2.3. O'qituvchi o'quvchi-talabalarning fikrlarini umumlashtirib bo'lgach, ilk o'spirinlik davridagi kriziy haqida ma'lumotlar beradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
	2.4. Har bir guruhning ishini ko'rib chiqib, ularga qo'yidagi savollar bilan murojaat qiladi: 1. O'spirinlik yoshiga yetgan bolalarni o'zlarini jamoa oldida qanday tutadilar? 2. Ilk o'spirinlik yoshiga yetgan bolalar nima sababdan kattalar bilan kelisha olmaydilar? 3. O'spirinlarning katta bilan muloqoti qay darajada shakllanadi? Shu tariqa mavzuning 3 va 4 savoli yoritib beriladi.	Matnlarni diqqat bilan tinglab, savollarga – javob beradilar. Yozib oladilar.
	2.6. O'quvchi va talaba mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash maqsadida "Siz o'spirinlik yoshida bo'lganingizda" deb nomlangan rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinni taklif etadi.	Rollarga bo'linib, o'z pozitsiyalarini egalaydilar
III bosqich. Yakuniy. (10 minut)	3.1. Faol guruhlar aniqlanib, talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezoni orqali baholaydi.	O'zini qiziqtirgan savollar beradi

## KLASTERNI TO'LDIRING



### Klasterni tuzish qoidalari

1. Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating.

### “4x4” texnikasi

Ushbu texnika orqali qisqa vaqt mobaynida barcha o'quvchi talabalar birorta masalani muhokama qiladi va guruh a'zolaridan aksariyatining qarashlarini bilib olish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

## ILK YETUKLIK DAVRI. ULARNING HAYOTIY FAOLIYATIDAGI AFZALLIKLARI

### Reja:

1. Yoshlik davri va uning o'ziga xos psixologik hususiyatlari
2. Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari
3. Etuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari

### Tayanch iboralar:

Yoshlik davri, yetuklik davri, mehnat, idrok, faoliyat, individ, individual yondoshish, inson psixologiyasi, irsiyat, iste'dod, ishonch, kasb tanlash, malumot, metod, mahorat, mutaxassislik, tashabbus, psixik holat.

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos hususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:

1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining hususiyatiga moslashish (ko'nikish) mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi 3 yildan 8 yilgacha - ish staji nazarda tutiladi) yoki kasbkorlik, mahoratini egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish. Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart. Hozirgi mutaxassislarning ko'pxiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z mohiyatiga ko'ra uch xildir, ular:

a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhiti shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kishilarning xarakter hislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlarini, ma'naviyati, an'analari va hokazo;

b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning yetishmasligi va boshqalar;

v) mutaxassislik bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar: ishlab chiqarishning mohiyati, hususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko'nikmaning bo'shligi yoki ular bilan yetarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to'la anglab yetmaslik, xavfsizlik texnikasi mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik ifodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni yengish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayonlari va hususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari *Fulds, Raven, Pako* kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. *B.G.Ananev* o'zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va noverbal aqliy (mantiqiy va mnemik funksiyalar) sodda jarayonlarga (organizmda issiqlik paydo bo'lishidan metabolizm - modda almashinuvigacha), hatto shaxsning hususiyatigacha bo'lgan holatlarni o'z



ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlil i orqali ko'rsatib o'tadi.

Ko'zlarning farqlashdagi sezgirligi inson yoshiga qarab o'zgarishini tadqiq qilgan *S.V.Kravkov* sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta'kidlaydi. *B.G.Ananev* laboratoriyasida olingan natijalar inson funksional darajasining oshishi 23-27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funksional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funksional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikro davrlarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati har xil kechishini ko'rsatib turibdi. *YU.N.Kulyutkin* katta kixsilarning diqqat, xotira, tafakkur bilish jarayonlarini birgalikda o'rgangan. *YU.N.Kulyutkin* o'z tadqiqotida 0-130 shkalagacha oraliqni tekshirib, 22-25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5 tafakkur 102,5 ballga tengligini, 26-29 yoshlarda esa diqqat 102,8, xotira 97,01 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim, *V.Shevchuk* voyaga yetgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq qilib, 11-20 yoshlar oralig'ida 12,5 foiz, 21-30 yoshlarda esa 66 foiz ekanini aniqladi. Ziyolilarning ilmiy mahsuli dinamikasini o'rgangan *Z.F.Esareva* uning boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, psixologlarda 27-30, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlarni tashkil qilishini ko'rsatib o'tadi.

Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan *V.Shevchuk* ijtimoiy faoliyatga kirishish eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu hol odamlarning 45,4 foizida bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto, u 45 yoshda 3 foizga teng bo'ladi.

Kixsilarda ko'rish maydoni chegarasi (idrok) hususiyatini o'rgangan *L.N.Kuleshova* va *M. D. Aleksandrovalar* 18-35 yoshlardagi haydovchilarda uning uch xil: normadan ortiq 11 foiz, normada 47 foiz, qolganlarida etalon bo'yicha normadan kam bo'lishini ta'kidlaydilar.

23-28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o'zgarishi, takomillashuvi: ko'rish maydonining ko'lami, ko'z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari, anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarishligining o'sishi boshqa faoliyat va ko'rish ta'sirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo'ladi. 22-25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemologik (xotira, tafakkur) va attentional (diqqat hususiyati va xossasining) majmuasidan iborat bo'ladi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, ya'ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma'naviyat olami, barqarorlikni, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai-nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo'shilgan a'zo unda o'z o'rnini va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsa-da chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shixs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir.

Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari hislar, shaxsiy nuqtai-nazar bo'shshib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart. Oiladagi shaxslararo munosabatning ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanish kerak. Lekin oila tinchligi, totuvligi va axilligiga halal bermaslik niyatida yosh yigit va qizlar (kelinlar) vijdon amriga qarshi xatti-harakat qilishga ham majbur bo'ladilar, o'z maslamlari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan

umumiy “til” topishga intiladilar. Shunga ko’ra oila muhiti ham yigit va qizlarning ruhiyati hamda ma’naviyatini o’zgartiradigan omil vazifasini o’taydi.

Inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va hulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko’ngilchanlik, do’stlar ra’yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida o’zgarishlar yuzaga keladi. Yuksak hislar, barqaror e’tiqod, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyg’ulari poymol bo’ladi, ya’ni “Do’sting uchun zahar yut” qabilida ish tutiladi. Natijada mas’uliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafoqlik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarini ishbilarmolikni, amaliy ko’nikmalarni egallash imkoniyati ham bo’ladi. Shu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtai nazaridan yondashmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanishga ham harakat qilish ayni muddaodir.

Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalariga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo’l-ko’l-xiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati - yoshlarga bog’liq, shuning uchun ularning istiqbol rejaları, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma’naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

### **Yoshlik davri va uning o’ziga xos psixologik hususiyatlari**

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo’lib, bu davrning o’ziga xos hususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalgam oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlardan farqlanadi:

Mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a’zolarining hususiyatiga moslashish, ko’nikish mutaxassislik sifatida o’zini takomillalashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko’rsatish.

Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo’lsa-da lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o’rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo’ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o’z mehnat faoliyatini oliy ma’lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o’tishlari shart.

Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko’rish, perefirik va kinestetik sezgirlikning o’zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma’lumotni chet el psixologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananov o’zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o’zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va noverbal aqliy sodda jarayonlarga, xatto shaxsning hususiyatigacha bo’lgan holat larni o’z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma’lumotlar va ularning chuqur sifat tahlil i orqali ko’rsatib o’tadi.

23-28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o’zgarishi, takomillashuvi: ko’rish maydoning ko’lami, ko’z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o’zgarishligining o’sishi boshqa faoliyat va ko’rish ta’sirchanligi, qisqa muddatli ko’rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo’ladi: 22-25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemolik-xotira, tafakkur va attentional-diqqat hususiyati va xossasining majmuasidan iborat bo’ladi.

Yoshlik davrida yigit va qizlar komolotiga uchta muhim psixologik mexanizm:

- mehnat jamoasi
- oila mikro muhiti
- norasmiy ulfatlar ta’sir ko’rsatadi.

Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma’naviyat olami, barqarorlikni yo’qligi, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan ananalar va odatlar yangi azoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o’zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta’sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo’qolishi mumkin.

Mehnat jamoasiga yangi qo'sxilgan azo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun birqator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsada chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shaxs xarakter ini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir.

Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari xislar, shaxsiy nuqtai nazar bo'shshib qoladi. Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush-o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomila qilishi shart bo'lib qoladi.

Inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy maylli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi hulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar rayiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakter ida o'zgarishlar yuzaga keladi.

### **Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari**

Kamol topishning bu bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayolar kiradilar. Yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvatini, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoatchilik ishlariga to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayolning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatida muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari etaklaydi.

Etuklik, kattalik, donishmandlik, rahnomolik, g'amho'rlik, xomiylik davridir. Boshqa yosh davrlardagi kabi mazkur davrda inson qanday ishlarni, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli, ko'ngilsizliklar vujudga kelayotganligini anglay boshlaydi. O'ziga o'zi hisob berish shu davrning muhim psixologik hususiyatlaridan biridir.

Etuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu hol butun kuch-quvvat, aqliy, zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi hisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi.

Etuklik davri faoliyatining mahsuldorligini o'rgangan G.Leman uning cho'qqisi kimyogarlarda 30yosh, matematiklarda 30-34 geologlar va astronomlarda 30-35 yosh ekanligini va o'rtacha mahsuldorlik cho'qqisi 37 yoshda bo'lishini qayd qilgan. Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo'ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy komolotga ayollar ilgari kelgan bo'lsalar, endi erkaklar oldinga o'tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir qiladi. Natijada unda takabburlik, mag'rurlik xislari paydo bo'ladi, o'zining boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi.

Umuman, komolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir-chikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik do'stlik, dunyo lazzatlaridan foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar.

### **Etuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari**

Etuklik davri 36-55(60) yoshlardagi erkak va ayollarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yaxgi xislat namoyon bo'ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo'lsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o'zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o'z fikrlari bildiradilar. Hayotda qo'ldan boy bergan

imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda etti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuy'gusini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrining biror daqiqasi behuda o'tishiga achinadilar, yoshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar.

Etuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bu, chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga jug'rofiyqlim va xokazolarga ham bog'liqdir. Mazkur davrnig o'zgaruvchanligi insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz tarbiyaviy ta'sir) belgilaydi.

Umuman yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, xis tuyg'ularga serobligi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi.

#### **Tekshirish va muhokama uchun savollar:**

1. Yoshlik davri va uning o'ziga xos psixologik hususiyatlari nimalardan iborat?
2. Etuklik davrining birinchi bosqichida insonda qanday psixologik holatlar vujudga keladi?
3. Etuklik davrining ikkinchi bosqichida yuz beradigan o'zgarishlar nimalardan iborat?

## DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Informatsion ma'lumotga ega bo'lgan bahs-munozarali dars.
<b>Mavzu rejasi</b>	1. Yoshlik davri va uning o'ziga xos psixologik hususiyatlari 2. Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari 3. Etuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlari
<b>Darsning maqsadi:</b> Ilk yetuklik davri to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Yoshlik davri va uning o'ziga xos psixologik hususiyatlari bilan tanishtiradi.	Yoshlik davri, unda yuz beradigan psixologik o'zgarishlar to'g'risidagi bilimlarni izohlab beradi
Etuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik hususiyatlarini yoritib beradi.	Yetuklik davri tushunchalarini izohlab beradi.
Etuklik davrining ikkinchi bosqichigi ta'rif beradi.	Yetuklik davrining bosqichlariga ta'rif beradi.
<b>O'qitish usullari</b>	Bahs – munozara, FSMU, Blits – so'rov va asoslangan esse.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ko'rgazma materiallar, lazerli proektor, ahborot ta'minoti.
<b>O'qitish shakllari</b>	Juft – juft bo'lib, jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Kerakli jihojlar bilan ta'minlangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol – javob, o'z – o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun talabalarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radi
II bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi. Yangi mavzuning rejasi, tayanch ibora va tushunchalariga izoh beradi. Har bir o'quvchiga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Tarqatmalardan foydalanadilar
	2.2. Reja savollari bo'yicha ma'ruza materiallarini gapirib beradi, vizual materiallardan foydalanadi. Diqqatni jalb qiluvchi savollar beradi. Rejadagi birinchi savol bo'yicha – “Yoshlik davri” deganda nimani tushunasiz?” Rejadagi ikkinchi savol bo'yicha – “Yetuklik davri” deganda nimani tushunasiz?” Rejadagi uchinchi savol bo'yicha – “Yetuklikdavrining necha bosqichi bor?”	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savollarga javob beradilar
	2.3. O'quvchi-talabalarni juftliklarga ajratib, FSMU texnologiyasidan foydalanilgan holda jadvalni to'ldirishni taklif etadi. Jadvalni to'ldirishga yordam beradi.	Juft-juft bo'lib FSMU jadvalini to'ldiradilar
	2.4. Doskaga jadvalni chizadi va uni talabalar yordamida to'ldiradi.	O'zlari to'ldirgan FSMU jadvali bilan taqqoslaydi
	2.5. Mavzuning asosiy jihatlariga e'tiborni qaratadi va ularni yozib olishni taklif qiladi.	Tinglaydilar, yozadilar
III bosqich. Yakuniy. (10 minut)	3.1. Blits – so'rov texnikasidan foydalanilgan holda, o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida savollar beradi.	Savollarga javob beradilar
	3.2. Mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun uyga vazifa beradi: “Etuklik davridagi psixologik, jismoniy, aqliy hususiyatlar”.	Yozib oladilar

## FSMU texnologiyasi

- (F) – Fikringizni bayon eting.  
(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.  
(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.  
(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

### Etuklik davri deganda nimani tushunasiz?

F Fikringizni bayon eting.

S Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.

M Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U Fikringizni umumlashtiring.

### “Blits-so'rov” savollari

№	Savollar	Javoblar
1.	Yoshlik davriga ta'rif bering	
2.	Etuklik darvi necha qismdan iborat?	
3.	Ilk yetuklik davridagi psixologik o'zgarishlar	
4.	Ilk yetuklik davridagi ijtimoiy munosabatlar qanday kechadi?	
5.	Gerontologiya bu?	
6.	Ilk yetuklik davrida yuz beradigan o'zgarishlar nimalardan iborat?	

## KECHIKKAN YETUKLIK VA UNDAAN KEYINGI PSIXOGERONTOLOGIYA TUSHUNCHASI

### Reja:

1. Psixogerontologiya haqida umumiy tushuncha
2. Biologik keksayish
3. Keksayish davridagi shaxs psixologiyasi
4. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari
5. Uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik hususiyatlari

### Tayanch atamalar:

Kechikkan yetuklik davri, psixogerontologiya, gerontologiya, keksayish, involyutsiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik, asab sistemasining qarishi, falsafiy fikr, biologik keksayish

### Psixogerontologiya haqida umumiy tushuncha

Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan S.Holl asoslagan bo'lsa-da, lekin bu yo'nalishning o'ziga xos hususiyatlari to'grisida *Mark Tulliy Sitseron* ("Katta Katon yoki keksayish haqida" asarida), *I.I.Mechnikov* ("Optimizm etyudlari" kitobida), O'rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va mulohazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog *S.Holl* (1846-1924) "Keksayish" monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g'oyalarni ilgari surgan. O'sha asar keng ilm ahli ichiga tez yoyilishiga qaramay, uning izdoshlari birdaniga ko'paymadi.

Yigirmanchi asrning 30-yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy - biologik tadqiqotlarning ko'payishi, shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondashishning paydo bo'lishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha ta'sir ko'rsatdi. Ana shy tariqa keksayishga tibbiy, ijtimoiy jihatdan yondashish bilan bir qatorda psixologik jabhasi jihatdan yondashish ham vujudga keldi va psixogerontologiyaning tadqiqot sohasi kengayib bordi shu soha bo'yicha ingliz tilida maxsus jurnallar chiqa boshladi. Ilmiy izlanishlarning aksariyati keksayish davridagi odamlar shaxsining hususiyatlari, diqqati, xotirasi, tafakkuri, aql-zakovatiga bag'ishlangan bo'lib, boshqa psixik holatlar, jarayonlar juda kam tadqiq qilingan. Hozir keksayish psixologiyasi ham gerontologiyaga, ham yosh psixologiyasi sohasiga taalluqli degan ikki xil ilmiy nazariya mavjud, vaholanki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini doimo ilmiy axborot va ma'lumotlar bilan boyitib turadi.

Psixogerontologiya fanida gerontologiya, involyutsiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud. **Gerontologiya** - grekcha so'z bo'lib, keksayishning, keksalikning kelib chiqishi demakdir. **Geriatrya** so'zi keksaygan inson shaxsini davolashni bildiradi. **Involyutsiya** tushunchasi evolyutsiyaning teskarisi bo'lib, o'sishdan orqaga qaytishni ifodalaydi. **Gerogigiena** - keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash sohasidir. Gerogigiena keksa odamlarda asab ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun xizmat kiladi. **Geteroxronlik** - bir xil yoshdagi odamlarda ruhiy jarayonlarning turlicha (har xil vaqt va muddatda) namoyon bo'lishidir.

Psixogerontologiya fanida gerontogenezning evolyutsion omillari qatoriga *I.V.Davidovskiy* nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarini kiritadi. *D.Bromley* insonning qarish sikli uchta bosqichdan iborat bo'lishini ta'kidlaydi:

- 1) "ishdan, xizmatdan uzoqlashish" (iste'fo) 66-70 yosh;
- 2) keksalik (70 va undan katta yosh);
- 3) munkillagan keksalik (hasta keksalik va o'lim)-maksimum 110 yosh.

Shu bilan birga keksayishning qonuniyatlari ham kashf qilingan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) geteroxronlik (har xil vaqtlilik) qonuni;
- 2) o'ziga xoslik qonuni;



3) xilma-xillik qonuni.

I.V.Davidovskiy “Keksayish nima?” nomli asarida ta’kidlaganidek, inson 50-60 yosha to’lganda yoki undan oshgan chog’ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning o’limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish yoshidan 15-20 yil ilgari ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug’ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko’ruvchilar asosan ozg’in, faol, harakatchan odamlar bo’lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga dahldor tinka quritar kasalliklardan holi bo’ladilar.

Tadqiqotchi *P.P.Lazerev* 1928 yilda umr o’tishi bilan ko’ruv apparati markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi. Keyinchalik, 1967 yilda amerikalik psiholog *Gregori* bu fikrni tajribadan o’tkazdi va inson keksayishi bilan reseptor apparatining optik funksiyasi zaiflashadi, ko’ruv sezgisi va idrokini xiralashtiradi, dedi. Ko’zning rangni sezishi yosh ulg’ayishi bilan o’zgarib boradi, hatto, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Shuni, alohida ta’kidlash kerakki, rang ajratish, spektri nurlarini yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot *Gelmgolsga* qiyos beriladi. Ko’rishning pasayishi geteroxron xususiyat kasb etib, spektrning qisqa va tekis qismida (ko’k va qizil rangda) aniqroq aks etadi.

Psixogerontologik nuqtai-nazardan sezish vaqtini tadqiq qilgan *ye.N.Sokolov*, *ye.I.Boyko*, *A.R.Luriyalar* sezish vaqti yosh davrining informatsion stimuly funksiyasidan boshqa narsa emas deya xulosa chiqaradilar. Ular sezish vaqtining egri chiziqli ko’rsatkichlarini sxema tarzida ishlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita xususiyatni chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o’xshash ma’lumotlar *D.Birron*, *D.Botvinnik* tajribalarida ham olingan.

Psixogerontologiyada keksa erkak va ayollarning psixologik xususiyatlarini o’rganishda ko’proq test (sinov)dan foydalaniladi. Testlar o’z maqsadi, mohiyati hamda tizimiga binoan bir nechta ko’rinishga ega:

1) maqsadga yo’naltirilgan, bilim saviyani aniqlovchi standart testlar - imtixon - sinov natijasi;

2) insonning aql-zakovatini o’lchashga moslashtirilgan aql testlari;

3) inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo’ljallangan testlar;

4) inson iste’dodi, iqtidori hamda qobiliyat darajasini aniqlashga qaratilgan testlar.

Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o’rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo’riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kixsilarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug’ullanish xis-tuyg’usini uyg’otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo’l qo’yiladi, lekin ularni aynan o’sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o’tgandan keyin takror o’tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psixologiyasini tadqiq qilishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda.

### **Biologik keksayish**

Nafaqa yoshiga to’lgan kixsilarning ishini davom ettirish istagi va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo’yadi. Bu talablar *M.D.Aleksandrova* va uning shogirdi ta’kidlaganidek, 60 yoshdan oshgan odamlarning somatik sihatligi ularning ishlab chiqishda qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruhiy salomatligi ishlashda qay darajada yordamlashuvini, sog’lom keksa odamning psixofiziologik funksiyalari, psixik jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari va kasb-korlik uchun zarur talablarga mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir. Shularning so’nggi qismini tadqiq qilish bevosita psixologlarning zimmasida bo’lib, yosh ulg’ayib borishiga qarab fiziologik funksiyalarning o’zgarishini psixometriya ma’lumotlariga tayanib muayyan usulda o’rganishi lozim. Bu usulda bir qancha elat jamoa, xududning xuddi shu yoshdagi aholisi bilan

solishtiriladi. Tadqiqotning bu usuli ayrim ruhiy jarayonlarning yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

**Asab sistemasining qarishi.** V.D.Mixaylova- Luk Asheva, M.M.Aleksandrovs kaya kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o'zgarishi o'rganilgan bo'lib, bu hol makroskopiya va mikroskopiya ma'lumotlari asosida ifodalangan.

Makroskopiya ma'lumotlariga ko'ra:

- a) keksalik davrida miyaning og'irligi 20-30 foiz yengillashadi;
- b) bir davrning o'zida miya bilan kalla suyagining hajmi o'rtasida disproporsiya kuchayadi;
- v) keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayishi kuzatiladi, bular ayniqsa miya qobig'ining peshona qismida yaqqol ko'rinadi va yetuk yoshdagi odamlarga qaraganda 3-4 ta yo'l qisqaradi;

g) miyaning zichligi ortadi.

Mikroskopiyaning natijalariga binoan:

- 1) nerv hujayralarining umumiy miqdori kamayadi, bu o'zgarish qobig'ining III-V zonalarida aniq bilinadi;
- 2) Purkine hujayralarining miqdori keskin kamayadi, hujayralarning yo'qolishi yetuk kixxilarga nisbatan 25 foiz ko'p bo'ladi;
- 3) nerv hujayralari ajinlashadi, yadro esa noto'g'ri ko'rinishga ega bo'la boshlaydi;
- 4) nerv tolalari yo'g'onlashadi;
- 5) xabar olib boruvchi yo'lda mielin tolalarining miqdori ozayadi.

**Sensor-perseptiv funssiyalarning qarishi.** Ko'rish funksiyasining yosh davri dinamikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, amerikalik psiholog *Kruk* tadqiqotining ma'lumotlariga qaraganda agar vaqt hech bir cheklanmasa, ko'ruv stimullarini idrok qilish 20-50 yoshli odamlarda bir tekis, aniq va to'g'ri amalga oshishi mumkin. Mabodo vaqt cheklangan bo'lsa, idrok qilinayotgan jism qisqa vaqt namoyish qilinsa, qo'zg'atuvchining kuchi o'zgarib tursa yoshlar bilan kattalar o'rtasida keskin farq vujudga keladi. Oddiy turmushda bu hol jismlarga uzoq muddat termulish imkoniyati va sun'iy yorug'likdan foydalanish ko'ruv idroki pasayishining oldini oladi va muvaqqat uzilishni barham toptiradi. *L.E.Birron* va *L. Botvinnik*, quyidagicha xulosa chiqardilar: sensor informatsiyani qayta ishlash va stimullarni baholash uchun keksa kixxilarga ko'p vaqt kerak. Ko'rish pasayishining ikkita sababi bo'lib, bir ko'z gavharining torayishi, ikkinchisi ko'z akkomodatsiyasining yomonlashuvidir.

S. Pakoning fikricha, idrok qilinayotgan ob'ekt va uning stimullari qanchalik murakkablashib borsa, tajribada yosh davrining farqlari shunchalik ortib boradi.

Bir guruh psihologlarning uqtirishicha, idrok funksiyasidagi yosh davriga bog'liq pasayishning asosiy sabablaridan biri miya po'stining gnostik zonasidagi neyronlar miqdorining kamayishidir, *U.Mayls* va *A.Uelford* uning pasayishini aytganlar.

**Eshitish.** Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasini 14-15 yoshlarga to'g'ri keladi, undan keyingi kamolot davrlarida biroq pasayish yuz beradi. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson yoshining ulg'ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mo'tadil holat hisoblanib, organizmning biologik qarishi bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi. Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobiliyatini yomonlashtiradi. Eshitish o'quvini yo'qotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko'p uchraydi.

Ta'm bilish sezgisida ham yosh ulg'ayishi va keksalik tufayli ayrim o'zgarishlar vujudga keladi. Macalan nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o'zgarmasada, lekin undan keyingi o'sish davrida maza so'rg'ichlari miqdorining kamayishi evaziga sezgi chegaralarining kengayishi sodir bo'ladi.

Hid sezgirligining o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir. Bundan tashqari, hid bilish sezgirligi kamayishining sabablari havoning

ifloslanishi, zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamini yetishmasligidir.

Keksayganda og'rik va teri-tuyush sezgirligi ham pasayadi. Tebranish sezgirligi ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaning orqa qismlaridagi degenativ o'zgarish ana shu holatni keltirib chiqaradi.

### **Keksayish davridagi shaxs psixologiyasi**

Keksayish davriga 61 (56) - 74 yoshli erkak va ayollar kiradilar. Bu davrdagi kixilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh davrlardagilardan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

a) mutlaqo iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar;

b) nafaqaxo'r erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Ularning his-tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq namoyon bo'ladi. Ularning his-tuyg'ulari vujudga kelishi jihatdan ikki xildir:

1) barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z qadr-qimmatini saqlayotgan, nufuz talab erkak va ayollar;

2) kayfiyati barqaror, osoyishta hulq-atvorli, oila muhitining sardoriga aylangan, tabiat va jamiyat go'zalliklaridan bahramand bo'layotgan, ijtimoiy faoliyatdan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kixilar. Ularning bir guruhi moddiy boylik ma'naviyat bilan qo'shib olib borishga intilsalar, boshqalari to'plangan moddiy boylik bilan qanoat hosil qiluvchilar, qolgan umrini xotirjam, zahmat chekmay utkazishga ahd-u paymon qilgan erkak va ayollardan iboratdir. Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz ham mana shu ikkala omilning mahsuli hisoblanadi.

Keksayish davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Ruhiiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), ahloqqacha (farosatlilik, hushyorlik, hozirjavoblik, topqirlik) va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka) kabi ruhiy holatlarda o'z aksini topadi. Ayollarning zaifa deb nomlanishi ham bejiz emas, chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruhiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi (ko'z yoshi quvonchdan bo'lsa, irodaning zaifligini ko'rsatadi, g'am-g'ussa, o'kinish tug'yon sababli bo'lsa, his-tuyg'uni boshqarish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi. Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mehr-muhabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob beruvchanligi jihatdan ertaroq qarishga olib keladi (asab sistemasining buzilishi, irodaviy zo'riqish, aqliy tanglik holatlari).

Psixologlar keksayish davridagi erkak va ayollarning ruhiy dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganlar. Amerikalik *V.Shevchuk* mazkur yoshdagi odamlarning ijtimoiy faoliyatda qatnashishi xususiyatini tekshirib, 65 yoshlilarning 24,1 foizi 70 yoshlilarning 17,4 foizi, 75 yoshlarning 7,7 foizi ijtimoiy faoliyatdan voz kechganligini aniqlagan. Oliy maktab muallimlarining ilmiy mahsuldorligi dinamikasini tadqiq qilgan *M.D.Aleksandrova* matematika, fizika, biologiya, psixologiya va boshqa sohalarning vakillari o'rtasida keksayishning birinchi bosqichida (61-66 yoshlarda) bir oz farq mavjud bo'lsa-da, uning ikkinchi bosqichida (67-72 yoshlarda) o'sha tafovut ham yo'qolib borishini ta'kidlaydi. *L.I.Zaharova* esa keksayish davridagi erkak va ayollarning oliy nerv faoliyatini tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydonining chegarasi uchun quyidagilar muhim rol o'ynashini uqtiradi:

- 1) ko'rish yo'llari analizatori chekka qismlarining holati;
- 2) markaziy nerv sistemasiiing umumiy faolliigi;
- 3) insonning yoshi;
- 4) ko'rish analizatorining faoliyat ko'rsatish sharoiti;
- 5) insonning jinsi.

Amerikalik psixolog *D.Veksler* keksayishda aqlni o'lchash uchun 1939 yilda maxsus test ishlab chiqqan va "Katta kixilar aqlini o'lchash va baholash" nomli kitobida test o'tkazish usullarini batafsil bayon qilgan.

“Veksler batareyasi” 11 ta subtestdan iborat bo’lib, ulardan 7 tasi verbal (so’zlardan tuzilgan), 4 tasi noverbal (alomatlardan iborat)dir. Barcha ko’rsatkichlar bo’yicha eng yuqori natijaga 15-25 yoshlilar, boshqa ma’lumotlarga ko’ra 26-29 yoshlilar erishadilar, keyin 40-45 dan asta-sekin pasayish boshlanadi, 60-65 yoshlarda bu ko’rsatkich yanada quyiga tushadi.

D. Veksler keskin o’zgaruvchan va kam o’zgaruvchan yosh davri funksiyalariga alohida e’tibor beradi. Birinchisiga qisqa muddatli xotira, o’xshashlik, simvollar, koss kubchalari, ikkinchisiga - lug’at boyligi, umumiy ma’lumotlilik, rasm tuzish (tartibga keltirish ma’nosida), tugallanmagan rasmlarni idrok qilish kiradi. Mazkur variatsiyalardan foydalanib, eksperimental psixologiyaga yangi ko’rsatkich kiritishni taklif qiladi, u deterioratsiya koeffitsienti deb ataydi, (deterioratsiya - yomonlashuv, buzilish demakdir).

Yosh odamlarda mazkur koeffitsient 5 foizdan oshmaydi, keksalarda esa 20 foizga yaqinlashadi. Ko’rinib turibdiki, yosh ulg’ayishi bilan nomutanosiblik darajasi o’sib boradi.

D.Veksler testi to’g’risida har xil tanqidiy mulohazalar mavjud bo’lsada, lekin muallifning yoshlarga tatbiq qilgan testi ularning aqliy tayyorgarligi darajasini, o’qishga o’quvligini bildirsa, keksalarda u hayotiy tajribalarga asoslangan donishmandlikni anglatadi, degan fikr to’g’ridir.

### **Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari**

Keksalik davriga 75-90 yoshdagi erkak va ayollar (buva va buvilar) kiradi va bunday odamlarning boshqa yosh davrlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan hususiyatlari yaqqol ko’zga tashlanadi. Keksalarni jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko’nikkan qariyalar guruhlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy faollik fahriylar jamoasida, kasbiy jamoalar faoliyatida qatnashishda o’z ifodasini topadi.

Keksalik davrida foni dunyodan umidsizlik tuyg’usi paydo bo’ladi va bu hol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi. Lekin “O’g’limni uylantirsam, dunyodan armonim yo’q” qabilidagi mulohazalar doimiy odatga aylanib qolgan. Keksalikning ikkinchi muhim hususiyati betoblikda, vasiyat qilish, qarindosh-urug’lardan rozi-rizolik tilashishdir. Jismoniy harakat imkoniyatiga ega bo’lgan qariyalar mehnat qilishga intiladilar, biroq uning mahsulidan ko’ngillari sira to’lmaydi. Ular tarixiy voqealarni tirik guvoh sifatida batafsil bayon qilib beradilar. Nutqdagi juz’iy kamchiliklarni hisobga olmaganda (ayrim mantiqiy bog’lanishdagi nuqson, talaffuzning buzilishi) keng ko’lamdagi axborotlarni o’zgalarga uzatish imkoniyatiga ega.

Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, hususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o’zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma’lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to’plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi... Irodaning kuchsizlanishi og’riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg’usini yemira boshlaydi. Natijada tashqi ta’sirni qabul qilishda diqqatni saralash hususiyati o’z ahamiyatini yo’qotib borishi sababli qari odam bola tabiat arazchan, ko’ngli bo’sh, hissiyotga beriluvchan xarakter li bo’lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda hayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko’pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o’rtasida ko’pgina sabablarga ko’ra nomutanosiblik tug’iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan ob’ektga to’play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg’ul bo’la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto’g’ri idrok qilish, ya’ni illyuziyalar ko’proq o’rin egallaydi. Monokulyar va binokulyar ko’rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter hislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislari yetakchi rol o’ynay boshlaydi.

Psixologlardan *I.Baylash* va *D.Zabeklar* keksalarda xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, eruditsiya, nutq sur’ati kabilarni tadqiq qilib, ular o’rtasidagi korrelyatsion bog’lanishni (xotira-0,20, idrok-0,28, mantiqiy tafakkur -0,37, eruditsiya -0,33, nutq tezligi-0,40 ligini) aniqlaganlar. Amerikalik psixologlar *Frend* va *Zabeklar* keksalik davrida tafakkurning tanqidiyligini o’rganishda deduksiya va sillorizmlardan foydalanib, keksalikda tafakkurning ob’ekti torayishi va keskin rad qilish kuchayishini aniqlaganlar. *D.Bromley* qariyalarda ijodiy tafakkurning

pasayishi, o'ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuvini va dogmatizmga asoslanishini topgan.

*B.A.Grekov* so'z assotsiatsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining hususiyatini tekshirgan. Uning ma'lumotlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) 70-80 yoshlardagi keksalikda xotira (ayniqsa mexanik esda olib qolish) zaiflashadi;
- 2) 70-89 yoshlarda mantiqiy-ma'noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi;
- 3) obrazli xotira zaiflashadi;
- 4) 70-89 yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma'noning ichki aloqasi yotadi;
- 5) uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi;
- 6) 90 yoshda nutqning ichki bog'lanishi buziladi;
- 7) xotiraning obrazli, hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo'ysunmay qoladi.

Psixologiyada qariyalarda aqliy faollikni o'rganishda korreksion sinov va krepilin sinovidan foydalaniladi. Kamolotning umumiy modeli *U.Shayening* uch omilli variantlari yordamida yaratiladi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida keksalikni uchta tomondan: yosh psixologiyasi, psixogerontologiya va tibbiy psixologiya yo'nalishlarida o'rganish zarur ma'lulotlar to'plash imkoniyatini bermoqda.

Sog'lom qariyalarda donishmandlik umrning oxirgi nafasiga qadar saqlanishi tajribalarda qayd qilindi. Psixopatologik holatlar barcha qariyalar uchun majburiy bosqich emasligi ham tasdiqlangan.

Keksalik davrida, umuman ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi donishmandlikda farq mavjud bo'lsa ham, lekin qariyalar orasidagi donishmandlik, donolik hislatlari ikkala jinsga ham xosdir. Shuning uchu ikkala jins o'rtasida biologik qarishda tafovut mavjud bo'lsada, lekin ruhiy jihatdan zaiflashuv jarayonida o'zaro yaqinlik xukm suradi.

Psixogerontologiyada yuksak ijodiy faoliyatning o'ziga xos ko'rinishlarini tadqiq qilish rassomlar, yozuvchilar va bastakorlarning ijodini, huquqshunoslarning qobiliyati va mahoratini, hisobchilarning kasbiy malakalarini o'rganish yo'nalishlarida amalga oshirilgan.

*G.Leman* o'z tadqiqotlarida turli sohalardagi mutaxassislar faoliyatini tahlil qilib, ularning o'ziga xos hususiyatlarini atroflicha ifodalagan. Masalan fransuz rassomi Klod Mone 50 yoshda 86 yoshigacha ijodiy quvvatini sira bo'shashtirmay, sermaxsul mehnat qilgan. Uning ijodida hech qanday tushkunlik ro'y bermagan. Ijodiy mahsuldorlik evolusiyasi Titsian, L.Kronax, O.Tian, Mikelanela kabi o'nlab ijodkorlarga xosdir.

*G.Leman* o'z tadqiqotlarida ijodiy faollikning o'ziga xos ko'rinishlarini yozuvchi misolida o'rgangan. Muallif hind yozuvchisi R.Tagorning ijodiyotini tahlil qilib, uning ijod cho'qqisi 69 yoshda bo'lganini aniqlagan (yozuvchilar ijodiyot cho'qqisi 34 yoshda, 43 yoshda ham uchraydi). R.Tagorning 25 yoshida yozgan "Kelin" she'ri bilan 78 yoshda yozgan "Sarob" asari o'rtasidagi o'xshashlik va ustunlik chuqur ifodalangan.

*G.Leman* bastakor I.S.Bax (1685-1750) ijodiyotini tekshirib, uning durdona asarlari keksalikda yaratilganini aniqlagan. *G.Leman* o'z tajribalarida huquqshunoslik, hisobchilik kasblaridagi shaxslarni o'rganib, ular ijodiyotini muhim jihatlarini ochib bergan.

*A.R.Luriya* xotiraning o'ziga xos hususiyatini jurnalist misolida o'rganib, keksa kixsilar psixikasi bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plagan.

Keksalik yoshidagi chol va kampilarda o'z shaxsiyatiga yangicha munosabatlar paydo bo'ladi. Ko'pincha ular o'zlarini kamroq bezovta qilishga, jismoniy kuch-quvvatni ayashga, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga odatlanadilar, organizmlarining toliqishiga yo'l qo'ymaydilar, iloji boricha nutq faoliyatiga kamroq murojaat qiladilar, ortiqcha axborotlarni qabul qilmaydilar. Shuning uchun keksayganda "jon shirin bo'lib qoladi".

Keksalikda er-xotin o'rtasidagi munosabat yanada mustahkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot kezida barcha taassurotlar, ma'lumotlar, kechinmalar, his-tuyg'ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qumsash, hamdardlik kabi yuksak tuyg'ular totuvlikni yanada mustahkamlaydi.

Keksalik davrining yana bir hususiyati boshqa kixxilarga, begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shy yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular yer yuzidagi jamiki inson zotiga yaxsxilik tilaydilar. Bu so'nggi yuksak tuyg'u baynalminalchilikning tabiiy ko'rinishidir. Qariyalardagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylik singari tuyg'ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg'usiga aclo o'xshamaydi.

### **Uzoq umr ko'ruv chilarning psixologik hususiyatlari**

Yirik jahon psihologlari S.Pako, G.Offre, L.Bine, U.Maynot, E.Medavir, A.Komfort, I.V.Davidovskiy, B.G.Ananev, N.V.Nagorniy, ye.D.Aleksandrova va boshqalar uzoq umr ko'rish sirlarini ekologik omillar orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladigan omillardir.

Insonning ijtimoiy muhiti sharoitlari ichiga kasb mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyati kabilar kiradi. Jahon fani to'plagan ma'lumotlarga ko'ra ochiq havoda ortiqcha zo'riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug'ullangan odamlarda harakatning tezligi, qad-qomatning tikligi, ma'naviy tetiklik, ruhiy faollik uzoqroq saqlanadi. Mana shy holat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanuvchi kixxillarda ham bo'ladi.

“Umrni uzaytirish muammolari” nomli (1952) kitobda dog'istonliklarda uzoq umr ko'rishning asosiy sabablari quyidagilar ekani ta'kidlangan:

1. Respublikaning tog'li qismidagi iqlim sharoiti va jo'g'rofiy omillar;
2. Sutkasiga 3-4 marta iste'mol qilinadigan go'shtli, o'simlik moyli va sutli oziq-ovqatlar, chekishning, ichish va ortiqcha jinsiy aloqaning taqiqlangani;
3. Avloddan-avlodga asrlar davomida o'tib kelayotgan madaniy an'analar, o'ziga xos turmush tarzi va uning hususiyatlari;
4. Gigienaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilinishi va butun umr bo'yi jismoniy mehnat bilan shug'ullanish;
5. Bir maromda ham passiv, ham aktiv xordiq chiqarish;
6. Aholi turmush darajasining moddiy-maishiy jihatdan yaqinlashishi va hokazolar.

S.Pako va uning izdoshlari ta'kidlaganidek, keksayish jarayonida ayrim psixofiziologik va psixologik jarayonlarning barqarorlashuvi inson umrining uzayishiga, unda ijodiy faollik uzluksiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mehnat bilan doimo shug'ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi. Shu bilan birga iqtidorli va aqlni peshlash mashqlari bilan shug'ullangan kixxillarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib, boshqa bilish funksiyalarining faoliyati bir tekis harakatni vujudga keltiradi.

Uzoq umr ko'rishning, umr uzayishining muhim omillaridan yana bittasi kasb-korlik faoliyatiga bog'liq psixiy holatning, barqarorlashuvidir. Ana shy holatga insonning ko'rish idrokida fazoni farqlash (fazoviy tasavvur) qobiliyati kiradi. Fransuz gerontologi va oftalmologi G.Offre “Gerontologiya asoslari” (1960) kitobidan joy olgan “Ko'zning keksalarga xos o'zgarishi” asarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltiradi. Uning fikricha, keksalikda presbioniya (grekcha, qarilikda ko'rishning zaiflashuvi) hodisasi ro'y berib, yaqinni ko'rish yomonlashadi. G.Offrening fikricha, 10 yoshdan ko'rish akkomodatsiyasining kuchi pasayishi, agarda 10 yoshda akkomodatsiya kuchi 16 dioptriyaga (grekcha optik o'lchov) teng bo'lsa, 40-45 yoshda - 4, keyinchalik esa bir dioptriyaga tushib ketishi mumkin. 50-60 yoshlarda akkomodatsiya o'zining eng quyi darajasiga tushadi, biroq shundan keyingi yosh davrlarida barqarorlashib boradi. Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda akkomodatsiyaning kuchi shunchalik kamayib boradiki, yaqinni faqat ko'zoynak bilan ko'riladigan bo'ladi.

Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kixxillarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug'ullanish his-tuyg'usini uyg'otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yiladi, lekin ularni aynan o'sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o'tgandan keyin takror

o'tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psixologiyasini tadqiq qishishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda.

S.Pako va uning izdoshlari ta'kidlaganidek, keksayish jarayonida ayrim psixofiziologik va psixologik jarayonlarning barqarorlashuvi inson umrining uzayishiga, unda ijodiy faollik uzluksiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mehnat bilan doimo shug'ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi. Shu bilan birga iqtidorli va aqlni peshlash mashqlari bilan shug'ullangan kixalarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib, boshqa bilish funk-siyalarining faoliyati bir tekis harakatni vujudga keltiradi.

#### **Muhokama va takrorlash uchun savollar:**

1. Psixogerontologiyaga ta'rif bering.
2. Biologik keksayish deganda nimani tushunasiz?
3. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari

### **DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan bahs-munozarali dars.
<b>Mavzu rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Psixogerontologiya haqida umumiy tushuncha</li> <li>2. Biologik keksayish</li> <li>3. Keksayish davridagi shaxs psixologiyasi</li> <li>4. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari</li> <li>5. Uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik hususiyatlari</li> </ol>
<b>Darsning maqsadi:</b>	Keksalik davri psixologiyasi to'g'risidagi bilimlarni talabalarga singdirish.
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Psixogerontologiya haqida tushuncha beradi.	Keksalarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini izohlaydi.
Keksayish davridagi psixologik, jismoniy holatlarni yoritib beradi.	Keksalikda bo'ladigan o'zgarishlarga o'z munosabatini bildira oladi.
Keksalik davrida shaxs psixologiyasining boshqa davrilardan farqi bilan tanishtiradi.	Keksalik davrida shaxs psixologiyasiga tasnif bera oladi.
<b>O'qitish usullari</b>	T–sxema, rolli o'yini, rezyume, kichik guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ko'rgazma materiallar, lazerli proektor, ahborot ta'minoti.
<b>O'qitish shakllari</b>	Juft – juft bo'lib, jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Kerakli jihojlar bilan ta'minlangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol – javob, o'z – o'zini nazorat qilish, “5”balli reyting tizimi asosida.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun o'quvchi (talaba)larning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar
	1.2. Uyga berilgan vazifaning nazoratini o'tkazadi. "Etuklik davridagi psixologik, jismoniy, aqliy hususiyatlar" mavzusida yozilgan eng yaxshi mustaqil ish muallifini aniqlaydi va rag'batlantiradi.	Uyga berilgan vazifalarni o'qib beradilar
II bosqich. Asosiy (70 minut)	2.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi. Yangi mavzuning rejasi, tayanch ibora va tushunchalariga izoh beradi. Har bir o'quvchi-talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi. Baholash mezonini bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	2.2. Birinchi savolni o'qituvchi slaydlar yordamida yoritib beradi, talabalarni faollashtirish maqsadida ularga jonlantiruvchi savollar beradi. 1. "Psixogerontologiya" so'zi sizda qanday tasavvur uyg'otadi? 2. Psixogerontologiyaga asos solgan olimlarni bilasizmi?	Tinglaydilar, yozib oladilar va savollarga javob beradilar
	2.3. Talabalarni kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga "Rezyume" uslubidan foydalanilgan holda topshiriqlar beradi.	Interfaol usullardan foydalanilgan holda kichik guruhlariga bo'linadilar. Topshiriq ustida mustaqil ishlaydilar
	2.4. O'quvchi-talabalarning javoblarini umumlashtirib, har bir guruhga yuqorida berilgan topshiriq asosida kichkina parchani rollarga bo'lib qo'yib berishni taklif etadi. O'quvchi-talabalarni bahs-munozaraga tortish maqsadida qo'yidagi savol bilan ularga murojaat qiladi: Keksalik davriga qadam qo'ygan insonlarda qanday psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi?	Rollarga bo'linib, matnni birgalikda o'qiydilar. Savollarga javob beradilar
	2.5. Slaydlar yordamida keksalikda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga alohida to'xtalib, yoritib beradi.	Tinglaydilar yozib oladilar
III bosqich. Yakuniy. (10 minut)	3.1. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o'zaro baholashni tashkil etadi. Sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	Qo'shimchalar qilinadi, baholanadi
	3.2. Mustaqil uyda tayyorgarlik ko'rish maqsadida uyga vazifalar beradi: O'quv yurtida "Tarbiya psixologiyasi" mavzusida plakatlar, kolajlar va rasmlar ko'rgazmasini tashkil eting.	Yozib oladilar



## Kichik guruhlarda ishlash

Ta'limning guruhli shakli, eng avvalo, "ta'lim beruvchi - ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechishni va "ta'lim beruvchi – guruh - ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda simpatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;

- ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini suraydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarining rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holat lardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan qo'rqishdan holi bo'ladi.

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyishini ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish, umumiy mahsulot olish-muammoni yechish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar kuyidagilarni bilishadi:

- o'rganilayotgan materialni oldin o'tilgan material bilan bog'liqligini izlab topishni;
- birgalikda o'tilayotgan o'quv materialini muhokama qilishni;
- shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifoda etish va argumentlashni;
- bir-birlarini muvaffaqiyatlarini ko'rsatishni;
- berilgan ishni oxiriga yetkazishga intilishda bir-birini qo'llab-quvvatlashni;
- individual farqning mavjudligiga qaramasdan hamkorlik qilishni;
- ma'lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruhda mahsuldor ishlashni;

Ta'lim oluvchilar kuyidagi hususiyatlarga ega:

- kommunikatsiyaga va turli usullarda muloqot qilishga;
- kooperatsiyaga va harakatlar usullarini almashtirishga;
- bir-birini tushunishga va simpatiyaga;
- o'zini va guruhning mehnati natijalari uchun mas'uliyatli bo'lishga;
- refleksiya-ga-bu orqali qatnashchini, o'zining shaxsiy harakatlariga munosabati belgilanadi va ushbu harakatlarni aynan o'xshash korreksiya ta'minlanadi.

Ta'limning ushbu shakli, to'g'ri tashkil qilingan pedagogik rahbarlik va boshqaruv paytida, jamoatchilikning asosiy shartlarini amalga oshirishda, ya'ni umumiy maqsadni anglashda, vazifalarni maqsadli taqsimlashda, o'zaro bog'liq va nazoratda ko'maklashadi.

## Rezyume texnologiyasi


Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar. Muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

### O'quv topshiriq

*Keksalik davrida nima sababdan insonlar yosh bolalar kabi injiq bo'lib qoladilar? Quyida keltirilgan javob variantlarini tahlil qiling va o'z javoblaringiz bilan to'ldiring.*

Keksalik davrida yuzaga keladigan injiqliklar	Injiqlikning sabablari

### SVOT - tahlil



**Savol:** O'zbekiston Respublikasining psixogerontologiyaga qo'shayotgan hissasini SVOT jadvali asosida tahlil qiling.

<b>S</b>	<b>O</b>
<b>V</b>	<b>T</b>

## TARBIYA PSIHLOGIYASI

### Reja:

1. Shaxsni tarkib toptirishning umumiy psixologik qonuniyatlari.
2. Tarbiyaviy ish metodlari va formalarining psixologik asoslari.

### Tayanch iboralar:

Tarbiya, shaxs, maqsad, muammo, faoliyat, umuminsoniy qadriyatlar, talim, o'rganish, bilishni boshqarish, motiv, bilim, ko'nikma, tushuncha, ijodiy tafakkur.

Shaxs odam ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar sistemasining ta'siri ostida va unda o'zi bajaradigan faoliyat ta'siri ostida tarkib topadi.

Ijtimoiy muhitning, kollektivning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirilar ekan, sotsial psixologiya ishlab chiqayotgan referent guruh tushunchasiga asoslanish zarur. Gap shundaki, hamma odamlar ham, xatto eng yaqin tevarak-atrofdagi odamlar ham maktab o'quvchisining shaxsiga ta'sir qilavermaydi, ko'plarning fikrlariga u befarq qaraydi. Har bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zan bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhlarining fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan mulohazalari bilan hisoblashadi. Oila, sinf, sinfdagi ayrim o'quvchilar, ba'zi o'qituvchilar, hovlidagi ulfatlar, yaqin do'st va hokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez-tez uchrab turadigan tarbiyaviy ta'sirlariga befarq yoki xatto salbiy munosabatda bo'lish hollariga ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lmagan referent guruh pozitsiyasida turishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikriga ko'ra, agar tarbiyachi, maktab o'quvchisiga hech narsa va hech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyachining maktab o'quvchisining ahloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlaqo xabarsiz ekanligini bildiradi.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyasining hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan, ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, formalari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodifiy va stixiyali ta'sirlardan ajralib turadi. A.S.Makarenko alohida ta'kidlab bunday degan edi, sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukammal shaxs vujudga kelgan yoki aksincha, to'g'ri tarbiyaviy ish olib borilgan paytda buzilgan shaxs tarkib topgan birorta holni bilmayman.

Maktab o'quvchisining muayyan qoidalar va normalarni bilishi ma'naviy hulq-atvorning zarur shartidir. Biroq ahloq normalarini shu tariqa bilish o'z-o'zidan ahloqiy hulq-atvorni tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlarni ma'naviy hulq-atvor amaliyotisiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy hulq-atvor o'rtasidagi ajralishda ifodalanadigan "ahloqiy formalizm" deb ataluvchi formalizmning yuzaga kelishiga olib boradi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchisi, maktab o'quvchisining hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ijodiy, ahloqiy, sotsial, ijtimoiy hulq-atvor tajribasi uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy narsa bo'lishi kerak. O'quvchida bu narsa tarbiyachi rahbarligida hosil bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarda bilimlar sistemasini—tabiiy, ahloqiy va g'oyaviy-siyosiy bilimlar sistemasini, (bu bilimlar muayyan darajada yetakchi rol o'ynagan paytda) tarkib toptirish bilan yuz berishi kerak.

Psixologlar (avvalo L.I.Bojovich va uning xodimlari) bola va maktab o'quvchisining shaxsini tarkib toptirishda uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning to'g'ri hulq-atvor tajribasini orttirishigina emas, balki uning hulq-atvorining (ma'lum harakatga undovchi fikrlari, his-tuyg'ulari, maqsadlari sistemasini) to'g'ri motivlarini tarbiyalash ham hal qiluvchi narsa ekanligini ko'rsatib beradilar.

Psihologlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, birgina faoliyatning o'zida (bu faoliyatning bola uchun nima sababdan yuz berishiga ham qarab) shaxsning har xil (va xatto bir biriga qarama-qarshi bo'lgan) sifatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, biz tarbiyalanuvchilarni boshqalarni ochiqdan-ochiq va dadil tanqid qilishga o'rgatamiz. Ana shunday qilish bilan bolada prinsipiiallik, jasurlik, sofdillik, tanqidiy ko'z bilan qarash fazilatlarini tarkib topadi deb hisoblaydilar. Ammo biz aytilganlarni hisobga olmasak, hamisha ham o'zimiz ko'zlagan maqsadga erishavermaymiz. Chunki hulq-atvorning ana shu to'g'ri formasi negizida maktab o'quvchisi amal qiladigan motivlar yotadi. Bu hulq-atvor shaxsan o'quvchining o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarab, unda har xil sifatlari tarkib topishi mumkin. Agar o'quvchi o'z o'rtog'ini prinsipiial motivlar asosida tanqid qiladigan bo'lsa, bu tanqid uning o'rtog'ida xarakter ning prinsipiiallik, qat'iylik, xalollik singari sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi; bordi-yu, o'z aybini o'rtog'ining bo'yniga qo'yish istagi bilan tanqid qiladigan bo'lsa, bu xudbinlik, individualizmning tarkib topishiga yordam beradi. Agar shaxsiy g'araz bilan tanqid qilinadigan bo'lsa, unda shu asosda qasoskorlik, makkorlik, insofsizlik hislatlari tarkib topadi. Agar bunday tanqid qilishga, nihoyat, o'qituvchidan qo'rkish va unga yoqish istagi yoki mag'rurlik istagi, prinsipiiallik sabab bo'lsa, unda laganbardorlik, ikki yuzlamachilik singari hislatlar tarkib topishi mumkin. Binobarin, to'g'ri hulq-atvor tajribasi bu xatti-harakat muayyan motivlar asosida amalga oshirilgan vaqtdagina ko'zlangan maqsadga olib keladi. Shuning uchun hulq-atvorning to'g'ri motivlarini tajribada tarbiyalash va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'quvchilarida muayyan vaziyatlarda tarbiyaviy ta'sirlar vositasida yuzaga keladigan ijobiy motivlar ularning tajribasida mustahkamlanishi va barcha boshlang'ich vaziyatlarga tarqalishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, shaxsning har bir sifat strukturasi, binobarin, maktab o'quvchisining tegishli xatti-harakatiga ijobiy munosabatda bo'lishiga imkon beradigan motiv, ikkinchidan, xatti-harakatlarning mustahkamlangan usuli kiradi. Shunday qilib, shaxsning sifati L.J.Bojonovichning iborasi bilan aytganda, xatti-harakat motivlari va bu motivlar tegishli formalarining o'ziga xos birikmasidir. Xatti-harakat barqaror, xukmron (asosiy) motivlarning sistemasini ba'zi psihologlar (L.I.Bojonovich, M.S.Neymark) shaxsning yo'nalishi deb ta'riflaydilar. M.S.Neymark maktab o'quvchilarining yo'nalishini tadqiq qildi va bu yo'nalishning uchta asosiy turini – kollektiv, shaxsiy va ishchanlik yo'nalishlarini (ishga, faoliyat jarayoniga bo'lgan yo'nalishni, ijodiy faoliyatga qiziqishni) alohida ajratib ko'rsatdi. Yo'nalishning kollektiv, shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri xarakter istikasiga ega bo'lmasligi kerak. Haqiqiy kollektiv yo'nalishdan tashqari "xudbinlik guruhi" deb atalgan yo'nalish – boshqa kollektivlarning qiziqishlarini mutlaqo mensimagan holda faqat bitta kollektivning, (guruh, sinf) qiziqishlarinigina e'tirof etadigan yo'nalish ham bor. Shaxsiy yo'nalish shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yo'nalish sifatida hamma vaqt ham kollektiv yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lavermaydi.

Psihologlar tarbiyaviy ish metodlarining psihologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrakt tarzda qarab va uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Bu metodlar qo'llanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan o'quvchining yosh va individual hususiyatlarini, ikkinchidan, shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar kollektivining hususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun, maktab o'quvchisining barcha vaziyat va holat larida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kixilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri hulq-atvorli bo'lishni mashq qilish (bu – eng muhim) zarur.

Bilimlar – ahloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini egallamasdan turib haqiqiy e'tiqodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z-o'zidan bu bilimlar ahloqiy hulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi. Psihologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, ahloqiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. O'quvchilarning tasodifiy hollar, ko'chadagilarning bema'ni ta'siri, kattalarning yaramas xatti-harakatlari ta'sirida tarkib topadigan ahloqiy

tushunsalari tarbiyachilar va kollektiv tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilinmasa, xato, noto'g'ri, buzuq tushunchalarga aylanib qolishi mumkin. Ba'zan o'quvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni o'zi mustaqil tushuna olmay, noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy prinsiplar va ustanovkalar ruhiga ko'ra bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mumkin. Ko'pchilik noto'g'ri xatti-harakatlarning yuz berishiga ana shular sabab bo'ladi.

Ahloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri hulq-atvorni yuzaga keltirish bilan ahloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi ahloqiy bilimning turli-tuman formalari, ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin otashin so'zning (jamoalarda uyushtiriladigan etnik suhbatlar, leksiyalar, munozaralar) ta'siri bu ishni ancha to'ldirishi mumkin.

Aktiv ta'sir ko'rsatishning ajoyib ustasi bo'lgan A.S.Makarenko ham ahloqiy (etik) suhbatlarning chinakam tarafdori edi. Uning o'zi nazariy ahloqiy turdagi suhbatlarning konspektini yozar, ularda eng yaxshi bunday ahloqiy nazariyaning katta samaralarini ko'rar edi.

Muayyan prinsiplar ishlab chiqilgan bo'lib, ahloqqa doir suhbatlar o'sha prinsiplar asosida tuzilishi kerak. Bu prinsiplar quyidagilar:

1. Ahloqqa doir suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib qo'yishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.
2. Odatda, suhbat o'tkaziladigan kollektivni, uning yo'nalishini, bu kollektiv a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qish va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.
3. Bunday suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'kazib turmaslik darkor. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan, mamlakat yoki kollektiv hayotidagi biror voqeaga to'g'rilab o'tkazilsa, juda yaxshi natija beradi.
4. Suhbatni yorqin, yaxsxilab tanlab olingan konkret misollarni, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab, umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.
5. Emotsional tarzda keltirilgan, yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish, kinofilmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish yoxud ularni kollektiv bo'lib eslash) zarur.
6. O'quvchilarning ongiga singdiriladigan qoidalarining yaxsxilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir. Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki o'quvchida rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pincha uni kattalarning dalillariga ehtiyotkorlik bilan, ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelishmaslikka, kattalarning iltimoslari va talablariga qarshi chiqishga majbur etishi mumkin. Boshqa narsani ham nazarda tutish kerak: o'quvchi ko'pincha kattalarning o'ziga aqlli kishi deb murojaat qilishlaridan, uning ko'p narsani tushunishiga ishonishlaridan mag'rurlanib yuradi. Unda bu ishonchni oqlash, ana shunday munosabatga munosib kishi bo'lish istagi yuzaga keladi.
7. O'quvchilarda maksimal aktivlik uyg'otish, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va uzlarini ahloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'quvchilarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, ahloq normalari haqidagi xulosalarni ularning aktiv ishtirokida (ammo o'qituvchining rahbarligida) chiqartirish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida muhokamaga qo'yilishi kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.
8. O'quvchilarda chuqur va ta'sirchan emotsiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va shavq-zavksiz emas, balki emotsional tarzda jonli qilib o'tkazganidagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi o'smirlarga

yuqishini unutmasligi darkor. O'smirlarning o'zlari his etadigan tuyg'ularni taxminan quyidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir: "Nima uchun bu hodisa menda shunchalik g'azab va nafrat uyg'otadi?", "Nima uchun men bu xatti-harakatlardan shunchalik hayratlandim?".

Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o'quvchi shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'pincha o'qituvchiga tahlid qilib, unga o'xshashga harkat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib yetmasdan qiladi, ikkinchidan o'qituvchining tashqi ko'rinishi va qiliqlariga taqlid qiladi, chunki u hali shaxsning namoyon bo'lishini tahlil qilishga va shaxsning barqaror hislatlarini anglab yetishga qodir emas. O'smir va katta maktab yoshidagi o'quvchi ko'pchilik hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb hisoblay boshlagandan e'tiboran kattalarning xatti-harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak-atrofdagi kixxilarning, ayniqsa, o'ziga eng yaqin va o'zi uchun eng obro'li kixxilarning xatti-harakatiga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi. O'qituvchi qanchalik obro'li bo'lsa, uning e'tiqodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi. O'smir kattalarning biror xislatlariga taqlid qilayotib, ko'pincha bu xislatlarni shunchalik ilib olish bilan birga, ularning salbiy xislatlari va xatti-harakatlarini ham o'ziga singdirib oladi. Agar o'qituvchi muayyan maqsadni ko'zlaydigan va prinsipial matonatli, o'z burchini qat'iyat bilan bajaradigan bo'lsa, xuddi shu narsalarni o'z tarbiyalanuvchilaridan ham talab qilish unga oson bo'ladi. Aksincha, o'qituvchining tajangligi, qo'polligi, o'zini qo'lga ola olmasligi, manmanligi o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar va ota-onalar ba'zan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'siriga yetarlicha baho bermaydilar. Holbuki, ularning qilayotgan ishlari, o'zlarining qanday tutishlari ularning aytgan gaplariga, o'rgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

To'g'ri xatti-harakatlarda amaliy tajribani uyushtirish, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shaxsni tarbiyalashda muhim, asosiy omildir. Tarbiyachi o'quvchilarda xatti-harakatlarning shunday forma va usullarini tarkib toptirmog'i kerakki, bu forma va usullarda tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida yuzaga keladigan o'quvchi e'tiqodlari amalga oshsin. Xatti-harakatlarning aytib o'tilgan formalari motivlarni, o'quvchining ehtiyoj va munosabatlarini "moddiylashtirish" ifodasi, vositasi, formasiga aylanib qolgandagina barqaror omilga aylanib mustahkamlanadi. A.S.Makarenko xuddi ana shu ma'noda "hulq-atvor gimnastikasi" to'g'ri xatti-harakatlarni mashq qilishni uyushtirish zarurligi to'g'risida gapirgan edi.

Ahloqiy xatti-harakatlarni mashq qilish – bu turli variantlardagi xatti-harakatlarni aslida bir-biriga o'xshash vaziyatlarda uyushgan va muayyan maqsadni ko'zlagan holda takrorlashdir. Faqat ana shunday qilingandagina xatti-harakatlarning barqaror va ayni vaqtda umumlashgan formalari tarkib topadi. Sun'iy mashqlar emas, balki o'quvchi hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlari nazarda tutiladi, albatta.

O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili – o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs hislatlarini tarkib toptirish sohasida hulq-atordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir sistemadir, - degan edi I.P.Pavlov.

Agar o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishni kattalar, kollektiv yetarli darajada boshqarib va tashkil qilib turmasalar, unda o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalash mazmunida (nimani tarbiyalashda) hamda uning formasida (qanday tarbiyalashda) jiddiy xatolar qilishi mumkin.

O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zidan tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 ta vazifani ko'zda tutishi kerak.

**Birinchi vazifa** – o'quvchida o'zida shaxsning ijobiy hislatlarini taraqqiyot ettirishga va o'z hulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish.

**Ikkinchi vazifa** – o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda, o'z hulq-atvoridagi hususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushunib olishida, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlashish vazifasi kelib chiqadi.

**Uchinchi vazifa** – o'qituvchi tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash programmasini tuzishda, shaxs hulq-atvori hislatlarining qaysi hususiyatlarini (masalan, o'zini ushlay bilish, qat'iylik va shuning singarilarni) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hamda hal qilib olishda o'quvchiga yordam beradilar. Xuddi shu yerda shaxs sifatlarini to'g'ri va ob'ektiv baholashda, ularni kelib chiqish sabablari hamda mazmuni jihatidan baholashda ham o'quvchilarga ko'maklashish muhimdir.

Nihoyat, **to'rtinchi vazifa** – o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchini shaxsning ijobiy hislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llarini ko'rsatadilar.

Tarbiya shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilgan va unda hayotiy e'tiqod va his-tuyg'ular, ma'naviy hulq-atvor hosil qilish jarayonidir. "Talim-tarbiyani yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning porloq kelajagini uyg'unlik asosida o'stirish imkoniyatini yaratish" (I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisning IX sessiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi) hozirgi kunning asosiy masalasidir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" shuni nazarda tutadiki, boshqa muhim masalalar qatorida Milliy qayta tiklanish mafkurasi va jamiyat boyliklari asosida o'quvchilarni ma'naviy va ahloqiy hislatlarini o'stirish, o'quvchilarning hulq madaniyatini shakllantirish, barkamol naslni tabiyalab yetishtirish orqali haqiqiy inson qilib tarbiyalash lozim.

Hozirgi zamon tabiyasining maqsad va vazifalari avvalo, yoshlarni chinakam marifatli kishi qilib, inson qadrini, milliy qadriyatimizni anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimining jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egalaydigan fidoyi insonni tabiyalashdir.

Tabiya - maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadining mavjudligi bilan, tasir ko'rsatishining maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, shakllari hamda usullarini qo'llanishi bilan tasodifiy va stixiyali tasirlardan ajralib turadi. Sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukammal shaxs vujudga kelmaydi.

O'quvchilarning hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ijobiy ahloqiy, ijtimoiy hulq-atvor tajribasi shaxsning tarkib topishida muhim ahamiyatga ega. Malumki, birgina faoliyatning o'zida shaxsning har xil va xatto bir-biriga qarama-qarshi sifatlarini tarkib toptirish mumkin. Buning asosida maktab o'quvchisi amal qiladigan motivlar yotadi. Bu hulq-atvor shaxsan o'quvchining o'zi uchun qanday manoga ega bo'lishiga qarab, unda har xil sifatlarini tarkib topishiga sabab bo'ladi.

Masalan: o'quvchi o'rtog'ini prinsipial asosda tanqid qilsa - unda qat'iylik, xalollik; agar o'z aybini o'rtog'iga qo'yish bo'lsa xudbinlik individualizm, egoizm paydo bo'ladi.

Faoliyat - odamni shaxs sifatida shakllantirish asosi hisoblanadi. Bola o'yin, o'qish va mehnat faoliyatiga qanday munosabatda bo'lsa, unda shu faoliyat asosida ijobiy va salbiy sifatlar shakllanishi mumkin. O'qish va o'yinga ijobiy munosabat, ilmga intilishga qiziqish, mehnatsevarlik kabilar bilan, salbiy munosabat esa ishyoqmaslik, dangasalik, o'zini idora qila olmaslik kabilar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham faoliyatining yetakchi tiplarini uyushtirish bola shaxsini shakllanishiga maqsadga muvofiq tasir etish vositasidir.

Ahloqiy ehtiyojlarning tub mohiyati bu:

1. Insonning ahloqiyliги boshqalar bilan muloqotda bo'lishini, ijtimoiy shart-sharoit mavjud bo'lishini;
2. Individual ongning ahloqiy tomonlarni shakllanishini ijtimoiy shart-sharoitdagi tarbiyaga bog'liqligi bilan belgilanadi va nihoyat, hayotning konkret hollarini hisobga olgan holda ahloqiy ehtiyojni his-tuyg'uga, fikrlashiga bog'liqligi muhimdir.

Ahloqiy fazilatlarni namayon bo'lishi ijtimoiy burch tushunchasi bola ongiga qanday singdirilishiga bog'liq. Burch - bu jamiyat va jamoaning inson oldiga qo'ygan turli-tuman talablarini ifodalovchi tushunchadir.

**Ijtimoiy burch** - keng manodagi tushuncha bo'lib, bu odamiylik, vatanparvarlik burchi, kasb burchi, ota-ona oldidagi burchdir.

Yoshlarning ahloqiy fazilatlarini tarbiyalashda umuminsoniy va milliy boyliklardan foydalanish muhimdir. Chunki umuminsoniy va milliy boyliklar hamda ularning shaxs shakllanishidagi roli ahamiyatlidir. Milliy an'analar, urf-odatlarimizning tiklanishi milliy, umumbashariy va umummanaviy qadriyatlarga asoslangan ahloq normalarini yaratish va ularni bolalarimiz, yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularni jamiyatimiz uchun fidokor, bilimdon inson qilib tarbiyalashga asos bo'la oladi.

**Milliy an'analar** - har bir xalqning manaviy hayotining mahsuli bo'lib, o'sha xalqning ijtimoiy fikri milliy an'analarni ularning ma'naviy ehtiyojiga aylantiradi. Milliy an'analar yoshlarda ijtimoiy ongni tarbiyalaydi, ularning har tomonlama kamolga yetgan inson bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. U shaxs xarakterini ijobiy tomonga shakllantirishda faol ishtirok etadi, yoshlar mafkurasiga psixologik tasir qiladi.

Bola shaxsini tarbiyalashda ijtimoiy foydali faoliyat ham muhim rol o'ynaydi. Chunki u tarbiyaning eng qulay sharti va vositasi hisoblanadi.

Ijtimoiy foydali faoliyat, mehnat tarbiya vositasi bo'lishi uchun:

- bolaning mehnati ijtimoiy foydali mehnat bo'lishiga;
- ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan foydali mahsulot mehnat natijasi bo'lishiga;
- mehnat jamoa mehnati bo'lishiga;
- u tashabuskor va ijodiy mehnat bo'lishiga;
- mehnatda o'z-o'zini uyushtirish va mustaqil faollik ko'rsatishning har xil shakllari qo'llanilishiga ahamiyat berish kerak;
- o'quvchilarning mehnati – ularning o'zlari uchun qiziqarli bo'lishi;
- bolaning kuchiga mos bo'lishi;
- o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lishi;
- mehnat uchun jazolashga mutlaqo yo'l qo'yilmaslik kerak.
- uni sinchiklab puxta, vijdonan bajarish, mehnat anjomlarini asrash va tejashga o'rgatadigan bo'lishi lozim.

### **Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari.**

Tarbiyasi "qiyin" bo'lgan bolalar bilan ishlash:

- a) ularning individual hususiyatlarini aniqlash;
- b) qiziqish va e'tiqodlarini hisobga olish;
- v) tarbiyaviy iyusullarini tanlash;
- g) tarbiyaning maxsus sharoitlarini aniqlash.

Shaxsning manaviy sifatlarini shakllantirishda ma'naviy ong va hulq-atvor birligi muhimdir. Yoshlarni o'z-o'zini anglashi, yaxshi-yomon va adolatli-adolatsizlikni his qilgan holda uni o'z-o'ziga tatbiq qilishi, o'zini tarbiyalash tarbiyaning psixologik mexanizmini tashkil qiladi.

O'z-o'zini tarbiyalashda 4 ta vazifa nazarda tutiladi:

1. O'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z hulq-atvoridagi yomon tomonlardan holis bo'lishga intilish.
2. O'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, o'z hulq-atvoridagi hususiyatlarini diqqat bilan va oqilona tushuna olishida, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishida yordamlashish.
3. O'z-o'zini tarbiyalash rejasini tuzishda, shaxs hulq-atvori hislatlarini qaysi hususiyatlarini taraqqiy ettirish, qaysisiga barham berish kerakligini aniqlash.
4. Tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini aniqlashi.



## **Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash**

Vatanparvarlikni shakllantirishda:

1. Ona vatanga muhabbat, uni sevish, e'zozlashga o'rgatish.
2. Mustaqil O'zbekiston tushunchasining mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish.
3. Yoshlarni xalqimiz an'alariga, udumlariga, tili va madaniyati, ruhiyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatish.
4. Buyuk daholarimiz qoldirgan ma'naviy me'roslarni asrab avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish.
5. Yoshlarda sog'lom kuch, sog'lom tafakkur, iymon-e'tiqodni uyg'otish.
6. Vatan oldidagi ma'suliyat, millat manfaati uchun kurashning mohiyatini anglash.
7. O'quvchilarda unib-o'sgan yurtiga, voyaga yetkazgan ota-onasiga va talim-tarbiya bergan ustoziga ta'zim qilish malakasini shakllantirish.

## **Mustahkamlashga oid savollar:**

1. Shaxs tushunchasini tavsiflang.
2. Qanday tarbiyaviy ish formalari haqida gapira olasiz?
3. Ahloqiy suhbat mavzulariga misol keltiring. Ushbu suhbatni qay tarzda uyushtirgan bo'lar edingiz?
4. O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
5. Tarbiya nima?
6. Hozirga mustaqillik davrida tarbiya jarayonida qanday muammolar paydo bo'ldi va uni qanday qilib bartaraf qilinmoqda?
7. Faoliyat shaxs taraqqiyotida qanday rol o'ynaydi?
8. Yetakchi faoliyat va shaxs shakllanishini qanday izohlaysiz?


## DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Informatsion ma'lumotga ega bo'lgan bahs-munozarali dars.
<b>Mavzu rejasi</b>	1. Shaxsni tarkib toptirishning umumiy psixologik qonuniyatlari 2. Tarbiyaviy ish metodlari va formalarining psixologik asoslari
<b>Darsning maqsadi:</b> Tarbiya psixologiyasi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Tarbiya psixologiyasi to'g'risidagi bilimlarga xarakter istika beradi.	Tarbiya psixologiyasining mohiyatini yoritib bera oladi.
Shaxsni tarkib toptirishning umumiy psixologik qonuniyatlari haqida ma'lumotlar beradi.	Shaxsni tarkib toptirishning mohiyati, belgilari, tiplari, shakllari va umumiy psixologik funksiyalariga ta'rif beradi.
Tarbiyaviy ish metodlari va formalarining psixologik asoslarini tushuntirib beradi.	Tarbiyaviy ish metodlari va uning psixologik asoslarini aytib bera oladi.
Huquq-boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy instituti ekanligini ochib beradi.	Jamiyatning huquqiy holati, qonunning ustivorligi, konstitutsiya va Parlament kabi tushunchalarning mohiyatini izohlab beradi.
Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari mohiyatini ochib beradi.	Tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalash psixologiyasi haqida tasavvurga ega bo'ladi.
<b>O'qitish usullari</b>	Ma'ruza, B.B.B. texnikasi va blits – so'rov
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matnlari, taqdimot uchun varaqalar, marker va skoch.
<b>O'qitish shakllari</b>	Frontal, jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Kerakli jihojlar bilan ta'minlangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol – javob, o'z – o'zini nazorat qilish.

## DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<i>Bosqichlar, vaqt</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 minut)	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun talabalarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radi
	1.2. O'tilgan mavzuni tayanch iboralari asosida "Blits-so'rov" o'tkazadi.	Blits-so'rovda faol qatnashadilar
	1.3. Talabalarning javoblarini umumlashtirib, faol talabalarni baholash mezonlari orqali baholaydi.	Tinglaydilar
II bosqich. Asosiy (60 minut)	Yangi mavzuni e'lon qiladi. Yangi mavzuning rejasi, tayanch ibora va tushunchalariga izoh beradi. Har bir talabaga mavzu bo'yicha B.B.B. jadvalini tarqatadi. Mavzu rejasi asosida jadvalning ikkinchi ustunini to'ldirishni vazifa qilib beradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar, tarqatmalardan foydalanadilar. Jadvalni to'ldiradi.
	2.2. "Insert" texnikasidan foydalanilgan holda, ma'ruzada belgilangan belgilar asosida talabalarga quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: 1) nimani ular bilishadi? (ya'ni mustaqil gapirib bera olishadi) 2) nima tushunarsiz bo'lib qoldi va o'zlashtirilmadi? 3) qanday qo'shimcha ma'lumot talab qilinadi? Yuqoridagilardan kelib chiqib, uchinchi va to'rtinchi ustunni to'ldirishni hamda tayanch tushunchalarning tartib raqamlaridan foydalanishni taklif etadi.	Uchinchi va to'rtinchi ustunlarni to'ldiradilar
	2.3. Blits-so'rov orqali bir necha javoblar tinglanadi va juft-juft bo'lib ishlashni taklif qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Savollarga javob beradilar
	2.4. Talabalarning javoblarini umumlashtirib, juft-juft bo'lib ishlash uchun topshiriqlar beradi: 1) B.B.B. jadvalining to'rtta ustunidagi javoblarni tahlil qiling; 2) o'zlashtirilmagan savollarni umumlashtiring; 3) birgalikda manbalardan javoblarni izlab toping; 4) Javob berishga tayyorgarlik ko'ring. Juft-juft bo'lib ishlashga yordam beradi.	Juft-juft bo'lib topshiriqni bajaradilar. Bahs-munozara yuritadilar.
	2.5. Javoblar tinglab bo'lingach, slaydlar yordamida o'quv mashg'ulotining o'rganilmagan qismlari tushuntiriladi.	Tinglaydilar, yozadilar
	2.6. Tayanch tushuncha va iboralarga qaytiladi, talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. B.B.B. jadvalining beshinchi ustunini to'ldirishni taklif qiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar, jadvalni to'ldiradilar.
III bosqich. Yakuniy. (15 minut)	3.1. Mavzuning har bir savoliga umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi
	3.2. Talabalarning faolligi baholash mezonlari orqali baholanadi.	O'zini qiziqtirgan savollar beradi.

## B.B.B. texnikasi



## BBB texnikasining qoidasi

1. "Insert" texnikasidan foydalanilgan holda matnni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo'yilgan belgilar asosida BBB jadvalini to'ldiring.

## "Insert" texnikasining qoidasi:

1. Matnni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:
  - V – bilaman;
  - Q – yangi ma'lumot;
  - bilganlarimga zid;
  - ? – meni o'ylantirmoqda.

1. Pedagogik psixologiyada ta'limni mustahkamlash.
2. Pedagogik psixologiya nazariyasini o'rganan holatda amaliyotga qo'llash.

### 3. Zamonaviy psixologiyada bilimlar haqida.

#### **Tayanch tushunchalar:**

Jamiyat, o'qituvchi, hususiyat, o'zaro munosabat, pedagogik qobiliyat, takt, munosabat, metodologik tamoyillar, pedagogik psixologiya.

Ma'lumki,, qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da shaxs kamoloti eng asosiy masala qilib olingan. Respublikamizda ularda ko'rsatib o'tilgan ishlarni ruyobga chiqarish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'lim-tarbiya ishi mazmunini tubdan o'zgartirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Pedagogik psixologiya psixologiya fanining muhim tarmoqlaridan biridir. Pedagogik psixologiya murakkab tuzilishiga ega bo'lib, inson hayotining barcha sohalarining, ayniqsa, ta'lim va tarbiyaviy tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik psixologiya kursining maqsadi – talabalarga ta'lim va tarbiyaning mazmuni, undagi psixologik qonuniyatlar, inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, pedagogik psixologiyaning metodlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifalariga bakalavrlarni ijtimoiy faoliyatining ta'lim va tarbiya kabi yo'nalishlarida o'qituvchi shaxsi mehnatini tashkil etish, pedagogik jamoalarda ishni tashkil etish omillari, mexanizmlari va shart-sharoitlari bilan tanishtirish, ta'lim faoliyat motivlarini mukammal o'zlashtirish, o'quvchilarning ta'limdagi qobiliyat va iqtidorini o'stirish yo'llari hamda ylapni rivojlantirish omillariga o'rgatish, bu borada ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiati va mohiyatini tushunishga ko'maklashishdan iboratdir.

Har bir yosh davrning psixologik hususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his qilish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishida ruhiy to'siq vujudga keladi. Shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarsxilik, inqiroz rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi – nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, muomala, muloqot, mustaqil hulq-atvorni shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir. Kixsillardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni aniqlash va ularga pedagogik psixologiya hususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

Umuman ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oila, tarbiya, muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida pedagogik psixologiyadan foydalanish ta'lim va tarbiyaning shaxslararo ijobiy munosabatlarini o'rganishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

Ta'limdagi yangilanish, asosan, "Davlat ta'lim standartlari"ni ishlab chiqishnigina amalga oshirmay, balki ta'lim jarayoni orqali o'quvchining o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi har tomonlama rivojlangan o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'zining to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv – tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga bog'liq. Bugungi kunda har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga "Davlat ta'lim standartlari"da belgilangan bilimlar me'yorini o'rgatish, demakki, "yaxshi fizik", "yaxshi adabiyotchi", "yaxshi tarixchi" bo'lish emas, balki o'z fanini o'qitish orqali o'quvchi shaxsining yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlarini tarbiyalay oladigan – yaxshi o'qituvchi bo'lishi lozim.

Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun esa o'quv jarayonini yaxshi, to'g'ri, odilona va oqilona boshqapa olishi juda muhimdir.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya alohida predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishida turli dunyoqarashlar o'rtasida olib borilgan doimiy kurash katta ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalar-da, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti borasidagi xikmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyliги, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakter i, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

*Abu Rayxon Beruniy* ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish asosida ko'rilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

*Yusuf Xos Jolib* ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izcxil bayon etadi. "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi") asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

*Abdurahmon Jomiyning* "Bahoriston", "Xirandnomai Iskandari", "Tuxfatul axror" va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

*Alisher Navoiyning* "Xazoyinul maoniy", "Mahbubul qulub" va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kixilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi.

Navoiy "Hamsa"sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat'iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Maxmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogaxiy singari buyuk sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, ahloq-odob, hulq-atvor, oilaviy hayot, kixilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

Yosh avlodning ta'lim va tarbiya bilan bog'liq psixologik muammolari yirik olimlar, faylasuf va yozuvchilarini ham muntazam jalb etib kelgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi acaplar XVII-XVIII diniy-ahloqiy ta'limotlar zamirida yoritilgandir. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq turli asarlarda shakllanib kelgan. V.N.Tatishev, A.N.Radishev, N.I.Novikov va boshqalarning asarlaridagi dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotning o'ziga xos hususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo'g'rilgandir.

Rus tarixchisi *V.N.Tatishevning* "Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat" kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarning ahamiyati, til va nutqning mavqei, yosh davrlarining hususiyatlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

*A.N.Radishev* birinchilar qatori bola psixik taraqqiyotini tabiiy-ilmiy yo'sinda asoslab berishga urindi. Uning "Peterburgdan Moskvaga sayohat" kitobi bu borada pedagogik-psixologik asarlar sirasidan munosib o'rin egallaydi. Yozuvchining fikricha, inson tashqi muhit haqidagi tassurotlarini sezgilar orqali idrok etadi, shu yo'sinda uning tafakkuri, ulg'ayib shakllanadi.

*N.I.Novikov* bashariyat farovonligini ko'zlab, yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng targ'ibot etish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalamoq zarur deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, ahloq, his-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyada yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixida *K.D.Ushinskiyning* o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha psixologiya fanining asosiy vazifasi tarbiyaning maqsadini aniqlashga, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o'rin tutadi deb aytadi. *K.D.Ushinskiyning* "Inson tarbiya predmetidir" asarida pedagogik ta'sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik hususiyatlari, uning o'ziga xos tomonlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda *N.F.Kapterev, N.A.Sikorskiy, A.P.Nechaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, P.P.Blonskiy* singari olimlar bu borada o'zlarining munosib xissalarini qo'shganlar. Ta'kidlash joizki, ayniqsa, *L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, A.N. Leontev, M.Ya.Basovlar* tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqei singari ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kun yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining tayanch tushunchalaridandir.

O'tgan asrning o'rtalarida vujudga kelgan turli nazariyalar, qarashlar, o'quv faoliyati va ta'limning talqinlari (*D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, P.YA.Galperin, Z.I.Kalmikova, N.F.Talizina, D.B.Elkonin V.V.Davidov, L.V.Zankov, L.N.Landa, A.A.Lyublinskaya, N.V.Kuzmina* va boshqalar) nafaqat pedagogik tajribani, balki psixologiya fanining bu tarmog'ini ilmiy-amaliy boyitishga asos bo'ldi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda o'quv materialini o'zlashtirishning mexanizmlari (*S.L.Rubinshteyn, N.Kabanova-Meller, L.B.Itelson*); xotira haqida (*P.I.Zinchenko, A.A.Smironov, V.Ya.Lyaudis*); tafakkur (*N.F.Shemyakin, A.M.Matyushkin*); idrok (*Yu.B.Gippenretter*); bolalarda nutqning rivojlanishi (*M.I.Lisina, A.A.Venger*); shaxsning rivojlanishi (*B.G.Ananev, L.I.Bojovich, V.S.Muxina*); muloqot va nutq (*V.A.Artemov, A.A.Leontev, V.A.Kan-Kalik*); psixik rivojlanishning davrlari (*P.P.Blonskiy, A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, B.G.Ananev, A.V.Petrovskiy*); o'quvchilarning aqliy faoliyati va iste'dod muammolari (*A.A.Bodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy*)ga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar bu fanning yanada rivojlanishiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelmoqda.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik hususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning rivojlanishida turtki bo'ldilar.

Bu borada E.Meyerman, S.Holl, K.Byuler, E.Klapared, E.Dyurkgeym, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Olmon psihologi E.Meyerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki tazyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha eksperimental pedagogikaning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilmog'i dardor.

Amerikalik psiholog-olim S.Holl har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenezda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinklarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. S.Holl o'z tajribalari asosida boy ashvoviy dalillar to'plab, bola haqida psihologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olg'a suradi.

Shveysariyalik psiholog E.Klapared "Bola psihologiyasi va eksperimental pedagogika" asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining hususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psihologi E.Dyurkgeym, ulg'ayish – kixsilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

Yana bir fransuz psihologi P.Janening fikriga ko'ra, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg'ayishini belgilaydi. U aloqa sifatida xatti-harakatni tushunadi, bu esa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning muhim tamoyili hisoblanadi.

Amerikalik psiholog Dj.Bruner shaxsing tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayk, Dj.Uotson, F.Galgtan, A.Bine, A.Anastazi, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy hususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Bu ta'limotlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psihologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda. Respublikamizdagi yetakchi oliygohlarning kafedra va laboratoriyalarida yosh davrlari va ta'lim tarbiyaning psihologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jixozlangan sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Mazkur muammolarning yechimi hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarida bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada Qori Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Voxidov, M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.I.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Jumladan, o'quvchilarning texnik qobiliyatlari, o'quv motivlari, zamonaviy maktab o'quvchisining psihologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari A.Jabborov, F.I.Haydarov, M.M.Mavlonovlar tomonidan, tafakkur va ta'limni boshqarish muammosi E.G.G'ozievning tashabbusida, iste'dodli o'quvchilar va kasb tanlash muammosi B.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilmoqda.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida unga ta'sir ko'rsatib kelgan barcha nazariyalar, ilmiy va amaliy ma'lumotlar, yo'nalishlar hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini



saqlab kelmoqda va fanning istiqbolida muhim ilmiy nazariy manba hisoblanib qolinishi, tabiiydir.

### Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Pedagogik psixologiyaga asos solgan olim.
2. Psixologiyaning hozirgi holati qanday?

### DARSNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<b>Talabalar soni:</b>	<b>Vaqt: 90 daqiqa</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan bahs-munozarali dars.
<b>Mavzu rejasi</b>	1. Pedagogik psixologiyada ta'lim muhim ob'ekt. 2. Pedagogik psixologiya nazariyasini o'rgangan holatda amaliyotga qo'llash. 3. Zamonaviy psixologiyada bilimlar haqida.
<b>Darsning maqsadi:</b> Pedagogik psixologiya haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
Pedagogik psixologiya mohiyatini yoritib beradi.	Pedagogik psixologiyaga ta'rif beradi.
Pedagogik psixologiya nazariyasini o'rgangan holatda amaliyotga qo'llash ahamiyati bilan tanishtiradi.	Amaliyotda pedagogik psixologiyaning mohiyatini izohlab beradi.
Zamonaviy psixologiyada bilimlar haqidagi qarashlarni tushuntirib beradi.	Zamonaviy psixologiyada bilimlar haqidagi qarashlarni aytib beradi.
<b>O'qitish usullari</b>	Kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, delfin texnologiyasi.
<b>O'qitish vositalari</b>	Maruza matnlari, taqdimot uchun plovaklar, marker va skoch.
<b>O'qitish shakllari</b>	Frontal, jamoaviy va guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish sharoitlari</b>	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol – javob, o'z – o'zini nazorat qilish.

### DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

<b>Bosqichlar,</b>	<b>Faoliyat</b>
--------------------	-----------------

<i>vaqt</i>	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi-talaba</i>
<i>I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 minut)</i>	1.1 O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun talabalarning tayyorgarligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radilar
	1.2. O'tilgan mavzuning tayanch ibora va tushunchalari asosida blits – so'rov o'tkazadi.	Javob beradilar fikr–mulohaza bildiradilar
	1.3. O'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, faol talabalarni baholash mezonlari orqali baholaydi.	Tinglaydilar
<i>II bosqich. Asosiy (70 minut)</i>	2.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi. Yangi mavzuning rejasi, tayanch ibora va tushunchalariga izoh beradi. Talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar, guruhlarga bo'linadilar
	2.2. Har bir guruhga aqliy hujum texnikasidan foydalanilgan holda topshiriqlar beradi. Guruhlarda topshiriqlarni bajarilishiga yordam beradi. Ularning taqdimotini tinglaydi. Fikrlarini umumlashtiradi.	Guruhlarda ishlaydilar
	2.3. Talablarni konseptual jadval asosida mavzuni mustahkamlash taklif etiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
	2.4. Delfin texnologiyasidan foydalanilgan holda talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi.	Tinglaydilar, savollarga javob beradilar
	2.5. Talabalarning savollarini umumlashtirib 3 ta guruhga topshiriqlar beradi. Topshiriqlarini bajarilishiga ko'mak beradilar. Taqdimotni tinglab o'z fikrlarini bildiradi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar. Taqdimot o'tkazadilar
	2.6. Zamonaviy psixologiyada bilimlar haqidagi rejani slaydlar yordamida yoritib beradi.	Tinglaydilar yozib oladilar
<i>III bosqich. Yakuniy. (10 minut)</i>	3.1. Mavzuning har bir savoliga umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi
	3.2. Talabalarning faolligini baholash mezonlari orqali baholaydi.	O'zini qiziqtirgan savollar beradi
	3.3. Uyga vazifa beradi: "Pedagogik psixologiyaning zamonaviy ko'rinishi" mavzusida esse yozib keling.	Yozib oladilar


### Talabalarni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

<i>Guruh</i>	<i>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>
--------------	--


	<i>1-vazifa</i>	<i>2-vazifa</i>	<i>3-vazifa</i>	<i>Jami</i>
	<i>5 ball</i>	<i>5 ball</i>	<i>5 ball</i>	<i>15 ball</i>
1				
2				
3				

“Aqliy xujum” texnikasidan foydalanilgan holda qo’yidagi vazifalarni bajaring:


1-guruh



2-guruh



3-guruh



1-o’quv vazifa

**Konseptual jadval:**  
O’rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va uch qatlamli tuzish.

Konseptual jadval tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Taqqolanadigan narsa aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar ajratiladi.


### Konseptual jadval

*Savol:* Ta'limda pedagogik psihologiyaning ahamiyati.

... ga yondashuvlar, ... tushunchalari	Takliflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar			

“Delfin” texnologiyasi

“Delfin” texnologiyasi muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.



### Qarama-qarshi fikrlarning baholar yig'indisi jadvalini to'ldiring

Talabalarning ismi va sharifi	Psixologiyaning ta'lim jarayonida talabalarga ta'sirini ko'rsatib bering								
	1.			2.			3.		
	D	B	K	D	B	K	D	B	K
Ko'paytma yig'indisi									

D – darajali baho.

B – muqobil baho.

K – D va B ko'paytmasi

1-eng yuqori ball.

10-eng past ball.

## TEST SAVOLLARI

**1. Go'daklik davri necha yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.**

- a) 1 oylik
- b) 2 oylik
- v) 3 oylik
- g) 1 yoshgacha bo'lgan davrni

**2. Orientirovka so'zining ma'nosi nima?**

- a) mo'ljal olish
- b) rivojlanish
- v) o'sish
- g) taqqoslash

**3. Ilk bolalik davri, necha yoshlarni o'z ichiga oladi.**

- a) tug'ilgandan boshlab 1yoshgacha
- b) 1-3 yoshgacha
- v) 1-6-7 yoshgacha
- g) 3-6-7 yoshgacha

**4. Go'daklarning organik ehtiyojlari....**

- a) Ovqatlanish, nafas olish
- b) Uyqu
- v) Tananing gigienik holatini tozalash
- g) Hammasi

**5. Ilk bolalik davrining yetakchi faoliyat turi nima hisoblanadi?**

- a) o'qish
- b) o'yin
- v) predmetni o'rganish
- g) gapira olishi

**6. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi necha bosqichga bo'linadi?**

- a) 1
- b) 2
- v) 3
- g) 4

**7. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati?**

- a) o'yin
- b) o'qish
- v) kuzatish
- g) a, b, v, g

**8. Agar 2 yoshli bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yoshli bolaning so'z boyligi nechta bo'ladi?**

- a) 450-500
- b) 500-600
- v) 700-800
- g) 1000-1200

**9. Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra 2 chi davri necha yoshda bo'ladi.?**

- a) 2-3
- b) 3-4
- v) 4-5
- g) 5-6

**10. Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi qanday qilib belgilanadi.?**

- a) 13-12 dan 18 yoshgacha
- b) 15-16 dan 18 yoshgacha
- v) 14-15 dan 18 yoshgacha
- g) 13-16 dan 18 yoshgacha

**11. O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda yana qanday qarashlar vujudga keladi?**

- a) ijtimoiy, siyosiy
- b) iqtisodiy, ilmiy
- v) madaniy, diniy
- g) hamma javoblar to'g'ri

**12. Bolaning "MEN" ligini anglashi jarayoni tahminan necha yoshda paydo bo'ladi?**

- a) 2 yoshda
- b) 3 yoshda
- v) 4 yoshda
- g) 1 yoshda

**13. O'spirinlikda o'z shaxsiy xislatlariga baho berish kuchayadi, o'spirinning o'ziga baho berishi necha usulda bo'linadi?**

- a) 1
- b) 3
- v) 4
- g) 2

**14. O'spirinlik yoshida bolada qanday xarakter li layoqatlar shakllanadi?**

- a) o'qish, bilish
- b) o'qish, mehnat, muloqot
- v) mehnat, kuzatish
- g) to'g'ri javob ko'rsatilmagan

**15. O'spirin yoshining psixologik hususiyatlari bilan boshqa yosh davridagi bolalar qaysi jihatlaridan farq qiladi?**

- a) jismoniy garmonal o'zgarishlar hamda aqliy dunyo qarashi bilan
- b) mehnat faoliyati va bilish jarayoni bilan
- v) faqat aqliy faoliyati bilan farq qiladi
- g) a va b javoblar to'g'ri

**16. Kasb hunar tanlash vaqtida ilk o'spirinlarda qanday sifatlarni hisobga olish zarur?**

- a) moyilligi va qobiliyati
- b) qaysi kasbga qiziqishini
- v) nerv sistemasining tipi analizatorlar hususiyati
- g) barcha javoblar to'g'ri

**17. Go'dak necha oylikdan boshlab kattalar ishtirokida ilk o'yin faoliyatini boshlaydi?**

- a) 3-4 oylikdan
- b) 8-9 oylikdan
- v) 5-6 oylikdan
- g) 1 yoshdan boshlab

**18. Inson ontogenezida ularning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr qanday hisoblanadi?**

- a) o'sish davri
- b) o'spirinlik davri
- v) ilk bolalik davri
- g) go'daklik davri

**19. Ilk o'spirinlik yoshi davriga necha yoshlar kiradi?**

- a) 15-18
- b) 12-18
- v) 15-17
- g) 15-16

**20. Ilk o'spirinlik yoshida inson uchun eng muhim hissiyot zamini?**

- a) o'rtoqlik
- b) do'stlik
- v) sevgi
- g) barchasi to'g'ri

**21. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni o'quv faoliyatining asosiy komponentlari o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi deb aytgan olim.**

- a) V.V.Davidov
- b) YA.A.Kamenskiy
- v) F.N.Dobrin
- g) K.D.Ushinskiy

**22. "Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, rovonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi". Ushbu tarif qaysi yoshdagi davrga xos?**

- a) go'daklik
- b) ilk bolalik
- v) kichik maktab yoshi
- g) o'spirinlik davri

**23. Olti yoshli bolaning so'z boyligi necha miqdorni tashkil etadi?**

- a) 100-200 ta
- b) 50-60 ta
- v) 3000-7000 ta
- g) 1000-2000 ta

**24. "Nima uchun", "qanday qilib", "nima orqali" degan savollarga javob olishga harakat qiladigan yosh davrini ko'rsating.**

- a) ilk bolalik davri
- b) go'daklik davri
- v) kichik maktab yoshi
- g) o'smirlik davri



**25. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos hususiyatlaridan biri ?**

- a) diqqatning barqarorligi
- b) diqqatning yetarlicha barqaror emasligi
- v) diqqatning ob'ektlari ustida uzoq tura olish
- g) diqqatning tez jamlanishi

**26. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qiladi. Quyida qaysi yosh davr nazarda tutilgan?**

- a) o'smirlik davri
- b) kichik maktab yoshi
- v) maktabgacha bo'lgan yosh davr
- g) o'spirinlik davri

**27. Kichik maktab yosh davridan oldingi va undan keyingi davr qanday nomlanadi?**

- a) go'daklik va o'spirinlik
- b) maktabgacha bo'lgan yosh va o'smirlik
- v) ilk bolalik va o'spirinlik
- g) ilk bolalik va o'smirinlik

**28. Temperament tiplariga qaysilar kiradi?**

- a) ekstravert va intravert
- b) flegmatik, holerik
- v) holerik, sangvinik, melanholik, flegmatik
- g) qo'zg'aluvchanlik, holerik

**29. Yosh pedagogika va psixologiyasaning fan sifatida o'rganish sohasi qaysi javobda ko'rsatilgan.**

- a) Ta'lim va tarbiya jarayonining turli bosqichlarida bola shaxsining shakllanish jarayonida aqliy rivojlanishini o'rganadi.
- b) Maktabgacha tarbiyada va maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda tafakkurning rivojlanish jarayonini o'rganadi.
- v) Odam psixikasining yosh davrlar dinamikasini, rivojlanayotgan odam shaxsining psixik sifatlarini va psixik jarayonlarning ontogenezini o'rganadi.
- g) O'quvchilarning bilish faoliyatini va ularda konkret va mavhum tushunchalarini shakllantirish jarayonlarini o'rganadi.

**30. XX asr boshlarida bolalar psixik taraqqiyoti manbalarini har tomonlama talqin etuvchi nechta oqim paydo bo'ladi.**

- a) 1
- b) 2
- v) 3
- g) 4

**31. XX asr boshlarida bolalar psixik taraqqiyoti manbalarini har tomonlama talqin etuvchi nechta oqim paydo bo'ladi.**

- a) 1
- b) 2
- v) 3
- g) 4

**32. Ilk bolalik davrida shakllanadigan muhim sifatlar nimalardan iborat.**

- a) Odamlar gap-so'zlarini tushunish va shaxsiy aktiv nutqini shakllanishi.

- b) Tik turib yura olish, predmetli faoliyat va nutqni egallash.
- v) Oddiy xatti-harakat ko'nikmalarini egallash va o'z-o'ziga xizmat qilishni shakllanishi.
- g) Katta yoshdagi odamlar bilan nutq vositasida muloqotga kirisha olish imkoniyati.

### **33. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning psixik taraqqiyotiga xos hususiyatlar bayon etilgan javobni aniqlang.**

- a) Shu davrda kuch quvvatni o'tkirlanishi, eshitish organini rivojlanishi, lug'at boyligini ortishi, diqqat va xotira hajmining kengayishi psixik jarayonlarda ixtiyoriylikning ortib borishi.
- b) Bolada ikkinchi signal sistemasining jadal rivojlanib borishi va tafakkurning shakllanishi, murakkab tushunchalar paydo bo'lishi, ilmiy bilim va tushunchalarning shakllanishi.
- v) Idrokni shakllanishi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola fikrlashida tushuncha, umumlashtirma so'zlar ishlatilishi va boshqa tafakkur shakllarining bola faoliyati jarayonida qo'llanishi.
- g) Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi yangi sotsial sharoitini kelib chiqishini, bu sharoitning bola syujetli-rolli o'yinlarida ifodalanishi, o'z-o'zini tushunish va o'z-o'zini baholashning o'sishi, harakat motivlari va shaxsiy hulq atvorini boshqalar talabiga moslashtirilishi, o'quv faoliyati elementlarini o'zlashtirilishi.

### **34. Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligi qanday hususiyatda ifodalanadi?**

- a) Bolada o'z xatti-harakatini boshqarish imkoniyati o'sganligida, ta'lim jarayonida o'z tengdoshlarini nazorat eta olishda va qiyin vaqtda ularga rahbarlik qila olishida.
- b) Bininchi sinf programmasi materiallarini o'zlashtira olish imkoniyatini beradigan tashqi dunyo haqidagi tasavvur va bilimlar sistemasining shakllanganligida.
- v) Bola hissiyoti va irodasi rivojlanishidagi ma'lum darajasining shakllanganligi va shu asosda ixtiyoriy ongli o'sish ehtiyojining shakllanganligi, o'z xatti-harakatlarini ixtiyoriy boshqara olishning shakllanganligi.
- g) Shaxsning bilish faoliyati va turli psixik sifatlarini o'sishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining bolada shakllanganligining ifodalashida.

### **35. 3 yosh krizisi (inqirozi) qanday hatti-harakatlarda ifodalanadi?**

- a) O'zini o'zgalardan farqlay (ajrata) olish, o'z imkoniyatlarini tushunish, mustaqillikka intilish, o'z istaklarini katta yoshdagi odamlar xohish istagiga qarama-qarshi qo'yish va kattalarni bolaga munosabatida eski tipdagi munosabatini saqlab qolishi.
- b) Bola o'zining hulqiy xatti-harakatlarida nima yaxshi-yu, nima yomon degan tasavvurga moslay boshlashi, bola harakatida motivlar kurashishi kelib chiqishi, hulqiy normalarga mos ravishda qabul qila olishning shakllanishi.
- v) Bolada injiqlik kelib chiqadi, o'z xatti harakatlarini to'g'ri baholashni talab qiladi, o'z xatti-harakatlari katta yoshdagi odamlar va o'z tengdoshlari nigohida qanday ahamiyatga ega bo'lganligini tushuna boshlaydi.
- g) Bola o'z harakatlarini nazorat qila oladi, o'zini va tengdoshlarining yutuqlarini tushuna boshlaydi, muvaffaqiyatsizlikka uchraganida qaysarlik qiladi, bu uning shu yoshiga xos jismoniy talabidan kelib chiqadi.

### **36. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta'limning roli qaysi javobda berilgan?**

- a) Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kollektiv shakldagi muloqot va faoliyatning shakllanishi va bilimga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi.
- b) Kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqat, esda olib qolish usullari, ijodiy hayol, mavhum tafakkurini shakllanishi.
- v) O'zining shaxsiy hatti-harakatini rejalashtira olish ko'nikmasining shakllanishi, faoliyat strukturasi rivojlanishi.

g) Bilish protsessini rivojlanishi, ta'lim olishdagi muammolarni yechish imkoniyatini beradigan tafakkur jarayonining shakllanishi.

**37. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi mehnatining psixologik hususiyatlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

a) Mehnat kasbga xos asosiy malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi.

b) Mehnat bu davrdagi asosiy yetakchi faoliyat hisoblanadi.

v) Mehnat harakat koordinatsiyalarini o'stiradi, javobgarlik hissini shakllantiradi, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi.

g) O'z-o'ziga xizmat qilish va o'zini nazorat etishning dastlabki, elementar ko'rinishini shakllantiradi.

**38. Kichik maktab yoshida vujudga keladigan yangi o'zgarishlar nimalardan iborat?**

a) Erkinlik, ish-harakat va fikrlarning ichki rejasi.

b) Erkinlik, refleksiya va katta bo'lganligini xis etish.

v) Qiziqishlari yo'nalishining turlichaligi va maxsus qobiliyatlarning yuzaga kelishi.

g) Erkinlik, tanqidiylik, o'z fikrlarining haqqoniyligini asoslab bera olish.

**39. Kichik maktab o'quvchilarining taraqqiyoti nimalardan iborat?**

a) Bola o'z «men»ligini, o'zining psixologik hususiyatlarini anglay boshlaydi. O'z vazifalarini bajarishda javobgarlik hissi paydo bo'ladi.

b) O'z-o'zini tarbiyalash elementlari yuzaga keladi, mustaqillikka erishishga intilish, o'zining shaxsiy hissiyotlarini bilish ehtiyojlari paydo bo'ladi.

v) Ahloq normalari va hulq-atvor qoidalarini egallaydi, bolaning o'z-o'zini anglash va o'z-o'ziga baho berishi kattalar bahosiga bog'liq bo'lib, aniq vaziyatli xarakter ga ega bo'ladi.

g) O'zini tevarak-atrofdagi olamdan ayirib qo'ygan holda o'z «men»ligini anglashi, shaxsiy hulq-atvori yuzaga kelib, uni o'z motivlariga bo'ysundiradi.

**40. Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat qaysi?**

a) predmetli faoliyat

b) o'qish faoliyati

v) muloqot va faoliyat

g) qiyin mehnat faoliyati.

**41. Kichik maktab o'quvchilarining katta odamlar (o'qituvchi va ota-onalar) va o'z tengqurlari bilan bo'ladigan munosabatlari hususiyati nimalardan iborat.**

A. Bunda gap shundaki, kattalar bola uchun obro' tariqasida kelsa, tengqurlari guruhi muhim ahamiyatga ega bo'lgan referent guruh tariqasida keladi.

B. Bunda gap shundaki, sinfda jiplashgan jamoa yuzaga kelib. Kattalar esa ma'naviy xakamlik rolida keladi.

V. Bunda gap shundaki, qadrlil katta odamlar o'quvchi uchun asosiy obro' bo'lib hisoblansa, bolaning o'z tengqurlari bilan bo'ladigan munosabatlar hayotda tasodifan yuzaga keladigan tashqi holatlarda bo'ladi.

G. Bunda gap shundaki, tengqurlar guruhi kichik maktab o'quvchilari uchun yakka referent guruh bo'lib hisoblansa, kattalar bunday hususiyatga ega emas.

**42. O'smirlar bilan kattalar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari nimada aks etadi?**

A. Kattalarda o'smirlarga nisbatan bo'ladigan munosabatlar kichkina bolaga bo'lgan munosabatdek saqlanib qolishida

B. O'smirning moddiy tomondan kattalarga butunlay bog'liq bo'lib turishida.

- V. Bunday munosabatlarning kichik maktab yoshida ham janjalli bo'lib turishida  
G. Ota-onalarning o'smirlarni «kattalashish» darajasini og'ir kechirishlaridadir.

**43. O'smirlilik krizisi.**

- A. o'smirning ijtimoiy mavqei kattalar olamiga o'tishi bilan bog'liq.  
B. o'smir organizmida anatom-fiziologik o'zgarishlarning xarakteri bilan bog'liq.  
V. o'smir shaxsining shakllanish hususiyatlari va unda o'z-o'zini anglashning o'sishi bilan bog'liq.  
G. o'smir o'qish motivlarining asta-sekin tarkib topishi bilan bog'liq.

**44. O'smirlar taraqqiyotidagi ijtimoiy vaziyatlarning asosiy o'zgarishlari nimalardan iborat?**

- A. O'smir va tengqurlari jamoasi o'z o'rnini egallashga intiladi.  
B. Tengqurlar jamoasi o'smir uchun yangi rol ni bajaradi.  
V. O'smir maktab jamoasida o'z o'rnini egallashga intiladi.  
G. O'smir ko'pincha qarsxilik ko'rsatishga moyil bo'ladi.

**45. O'spirinlik davrida vujudga keladigan yangi hususiyatlar nimalardan iborat?**

- A. Ularning o'qishga ongli munosabati o'sadi. Bu yosh davri boshdan kechiraladigan xis-tuyg'ularning boyligi va turli tumanligi bilan boshqalardan farq qiladi, hayotiy maqsad, baxt, burch, sevgi kabi falsafiy-ahloqiy muammolarga qiziqish ortadi, o'z-o'zini anglash ham sifat jihatdan o'zgacha xarakter kasb eta boshlaydi.  
B. Voqelikning ta'siri ostida shakllanadigan va o'spirin o'z hulq-atvorida amal qila boshlaydigan ahloqiy tushunchalar, tasavvurlar, e'tiqod, prinsiplar tarkib topadi. E'tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda o'spirin ahloqiy ideallar ham vujudga keladi.  
V. O'spirinlik davrida vujudga keluvchi eng muhim (yangi tuzilma) o'zgarish mustaqillikka intilishda hamda o'zining katta bo'lib qolganligini ko'rsatish istagida namoyon bo'luvchi, o'spirinning kattalar jamoasining to'liq a'zosi bo'lishga tayyorgarligini sub'ektiv boshdan kechirilishi sifatidagi o'ziga xos kattalik hissining vujudga kelishidir.  
G. Yuqori sinf o'quvchilarining o'qish fanlariga tanlab munosabatda bo'lishi. Bu yoshda yigit va qizlar fanning muayyan sohasiga barqaror qiziqishlarini aniqlaydilar. Bunday qiziqish shaxsning kasbiy yo'nalishining shakllanishiga olib keladi va kasb tanlashni belgilaydi.

**46. Bog'cha yoshida jismoniy jihatdan o'sishida qaysi o'yin turi yordam beradi?**

- A. Harakatli o'yinlar  
B. Dramatik o'yinlar  
V. Qurish, yasash  
G. Jismoniy mehnat

**47. Bola tug'ilgan kundan boshlab qaysi analizatorlari normal ishlaydi?**

- A. Xid bilish  
B. Tam bilish  
V. Teri tuyg'u  
G. Ko'rish

**48. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola xotirasining qaysi turi shakllanadi?**

- A. Ixtiyorsiz  
B. Ixtiyoriy  
V. Mavhumlashgan  
G. Mantiqiy

**49. Bolaning soʻz boyligida oʻz shaxsini bildiruvchi «Men» olmoshi uchrab turadigan yosh.**

A. 2 yoshda

B. 3 yoshda

V. 4 yoshda

G. 5 yoshda

**50. Bola qachondan boshlab oʻz onasining yuzi va ovozi taniy boshlaydi.**

A. 2 oylik

B. 3 oylik

V. 4 oylik

G. 5 oylik

## FANGA OID TEST SAVOLLARINING JAVOBLARI

1.	<b>G</b>	26.	<b>B</b>
2.	<b>A</b>	27.	<b>B</b>
3.	<b>B</b>	28.	<b>B</b>
4.	<b>G</b>	29.	<b>V</b>
5.	<b>V</b>	30.	<b>B</b>
6.	<b>G</b>	31.	<b>B</b>
7.	<b>V</b>	32.	<b>B</b>
8.	<b>A</b>	33.	<b>G</b>
9.	<b>G</b>	34.	<b>G</b>
10.	<b>V</b>	35.	<b>G</b>
11.	<b>B</b>	36.	<b>B</b>
12.	<b>G</b>	37.	<b>V</b>
13.	<b>B</b>	38.	<b>G</b>
14.	<b>G</b>	39.	<b>V</b>
15.	<b>B</b>	40.	<b>B</b>
16.	<b>G</b>	41.	<b>A</b>
17.	<b>G</b>	42.	<b>A</b>
18.	<b>A</b>	43.	<b>B</b>
19.	<b>V</b>	44.	<b>B</b>
20.	<b>A</b>	45.	<b>A</b>
21.	<b>G</b>	46.	<b>A</b>
22.	<b>V</b>	47.	<b>V</b>
23.	<b>V</b>	48.	<b>A</b>
24.	<b>V</b>	49.	<b>B</b>
25.	<b>V</b>	50.	<b>A</b>

## PSIHOLOGIK TESTLAR

### Shaxsning muloqotga kirishuvchanligini aniqlash testi

1. Mas'ul ish bilan to'qnashganingizda hayajonlanasizmi?
2. Ahvolingiz yomon bo'lguncha ham shifokor chaqirmaysizmi?
3. Kutilmaganda ma'ruza qilasiz desa norozilik bildirasizmi?
4. Mehmonxona tayin bo'lmasa ham begona shaharga safarga borishdan bosh tortasizmi?
5. Begona kishiga kechinmalarigizni so'zlaysizmi?
6. Begona odam sizdan yo'lni yoki vaqtni so'rasa g'ashingiz keladimi?
7. Har xil avlod o'rtasida hayot masalasida kelishmovchilik bo'ladi deb o'ylaysizmi?
8. Bir necha oy ilgari tanishingizga bergan pulingizni so'rashga hijolat qilasizmi?
9. Kafeda sifatsiz taom keltirishsa indamay qo'yaverasizmi?
10. Vagonda bir necha soat begona yo'lovchi bilan ketsangiz gapni birinchi bo'lib boshlaysizmi?
11. Navbatda turish maqsadingizga erishish uchun zaruriyat bo'lsa, uzundan-uzoq navbat kutishdan voz kechasizmi?
12. Xodimlar o'rtasida bo'lgan mojaroni hal qilishdan o'zingizni olib qochasizmi?
13. Biror adabiyot yoki san'at haqida gap ketsa o'z fikringizni himoya qilasizmi?
14. Sizga yaxshi ma'lum bo'lgan masala bo'yicha noto'g'ri fikr eshitsangiz jim tura olasizmi?
15. Sizdan ish yoki o'qish yuzasidan yordam so'ralsa, norozi bo'lasizmi?
16. O'z fikringizni og'zaki bayon etishga imkoniyat bo'lsa ham yozma ravishda bayon etishni afzal ko'rasizmi?

### Natijalar izohi

Tavsiya etilayotgan 16 ta savolning hammasiga ochiq ko'ngillik bilan javob bering va ochkolar yig'indisini toping.

Agar siz "ha" deb javob bergan bo'lsangiz 2 ochko, "bilmadim" deb javob bersangiz 1 ochko, "yo'q" deb javob bersangiz 0 ochko bo'ladi.

Agar ochkolar yig'indisi 30-32 ochkoni tashkil qilsa u holda siz kommunikabelniy emassiz, yani muloqotga ehtiyoj sezmayasiz, bu hususiyatingizdan o'zingiz jabrlanasiz, yaqinlaringizni siz bilan muomala qilishlari murakkab. Odamlar bilan ko'proq muloqotda bo'lishga intiling.

25-29 ochko yig'ilganda siz indamassiz, kamgapsiz, yolg'izlikni yoqtirasiz, yangi ish, yangi muloqotlar sizni anchagina muvozanatdan chiqaradi.

19-24 ochko to'planganda atrofdagilar bilan osoyishta muloqotda bo'lasiz va notanish sharoitda o'zingizga ishonasiz, odamlar bilan kelisha olasiz. Tortishuvlarda qatnashishni yoqtirmaysiz.

## “Muloqotmandmisiz?” testi

Quyidagi savollarga javob berib, muomalangiz xususida ma’lum xulosaga kela olasiz. Tavsiya qilingan javoblardan o’zingizga mosini tanlab, so’ng ularning raqamini yozib oling. (M, 1a, 2v, 3v).

1. Sizning yaqin odamingiz mehmonga taklif qilsa, uni qabul qilasizmi?
  - a) ha;
  - b) faqat ayrim hollarda;
  - v) yo’q.
2. Faraz qiling, mehmondorchilikda o’zingizga do’st deb hisoblamaydigan odamning yoniga o’tirishga majbursiz, siz o’zingizni qanday tutasiz?
  - a) unga e’tibor qilmaysiz;
  - b) faqat uning savollariga javob berasiz;
  - v) u bilan erkin suhbat qurishga harakat qilasiz.
3. Ma’lum bir xonadonning eshigini taqillatmoqchi bo’ldingiz, qo’qqisdan xonadonda bahs ketayotganligini eshitib qoldingiz, siz endi nima qilasiz?
  - a) baribir taqillatasiz;
  - v) taqillatmay ketib qolasiz.
  - b) bahs tug’aguncha kutasiz;
4. Mehmonda siz yoqtirmagan taomni taklif qilishsa, nima qilgan bo’lardingiz?
  - a) majburan yeysiz;
  - b) bu taomni iste’mol qilmasligingizni aytasiz.
  - v) ishtahangiz yo’qligini bahona qilasiz.
5. Odatda xontaxtadan qanaqa taomni tanlaysiz?
  - a) eng yaxshisini;
  - b) eng kichigini;
  - v) sizga yaqin turganini.
6. Davradagi suhbat paytida to’satdan hamma jimib qolsa, siz qanday yo’l tutasiz?
  - a) boshqa birov gapni boshlaguncha kutib turasiz;
  - b) suhbatni davom ettirish uchun o’zingiz mavzu topasiz;
  - v) o’rningizdan turib telefon tomon yurasiz.
7. Noqulay ahvolga tushib qoldim deb faraz qiling. Siz bu haqida o’z tanishlaringizga gapirib berasizmi?
  - a) birinchi uchratgan tanishingizga albatta gapirib berasiz;
  - b) faqat yaqin do’stingizgagina gapirib berasiz;
  - v) biror kishiga ham aytmaysiz.
8. Boshqalardan eshitgan hikoyalaringizga o’zingizdan biror narsa qushasizmi?
  - a) ha;
  - b) ma’nosini ozgina ko’chaytirish uchun qushasiz;
  - v) deyarli hech narsa qushmaysiz.
9. Sevgilingiz suratini o’zingiz bilan olib yurib, uni atrofdagilarga ko’rsatasizmi?
  - a) ha;
  - b) ba’zan;
  - v) hech qachon.
10. Davrada aytilgan hazil-mutoyiba yoki latifaning ma’nosiga tushunmay qolgan paytingizda Siz o’zingizni qanday tutasiz?
  - a) tushunganlar bilan birga kulasiz;
  - b) jiddiyligingizcha qolib, hech kulmaysiz;
  - v) biror bir kishidan latifa yoki hazilning ma’nosini tushuntirib berishni iltimos qilasiz.
11. Davrada o’tirgan paytingizda bexosdan boshingiz og’rib qolsa, o’zingizni qanday tutasiz?
  - a) yuzaga chiqarmaysiz;
  - b) biror kishidan dori so’raysiz;



- v) davrani tashlab uyga ketasiz.
12. Mehmonda o'tirgan paytingizda siz qiziqib tomosha qiladigan ko'rsatuvni favqulodda televizorda berishini bilib qolsangiz nima qilasiz?
- a) o'y egasidan televizorni qo'yib berishini so'raysiz;
  - b) mehmonlarga halaqit bermaslik uchun boshqa xonaga o'tib ko'rasiz;
  - v) bir amallab chidaysiz.
13. Siz o'zingizni mehmonda o'tiribsiz deb faraz qiling, qaysi paytda o'zingizni yaxshiroq his qilasiz?
- a) mehmonlarni ko'nglini olgan paytingizda;
  - b) boshqalar sizning ko'nglingizni olgan paytda;
  - v) umuman unga befarqsiz.
14. Mehmondorchilikda qancha vaqt qolishni oldindan o'ylab qo'yish odatingiz bormi?
- a) yo'q;
  - b) ba'zan bu haqda o'ylayman;
  - v) doimo bu haqda o'ylayman.
15. Tasavvur qiling, ro'znomaning muhbiri siz bilan suhbat qilayapti?
- a) suhbatni ro'znomada bosib chiqarsa xursand bo'lasiz;
  - b) bu holatning bo'lmasligiga harakat qilasiz;
  - v) suhbat chop etiladimi yoki yo'qmi, sizga baribir.
16. Ichdan sizni ko'rolmaydigan tanishingizga tashqi hayajonsiz muloqotda bo'la olasizmi?
- a) ha;
  - b) ba'zan faqat istisno tarzida;
  - v) bu haqda o'ylab ko'rmaganman.
17. Siz uchun qulay bo'lmasada, boshqa kixilarning odilona fikriga qusxilasizmi?
- a) ha;
  - b) shaxsiy fikringizga mos kelganda;
  - v) hech qachon.
18. Bahslashishga qachon chek qo'yasiz?
- a) qancha tez bo'lsa shuncha yaxshi;
  - b) bahsning ma'nosi bo'lmasa;
  - v) bahslashayotgan kishingizni ishontirgandan keyin.
19. Agar she'rni yod bilsangiz, uni notanish davrada o'qiy olasizmi?
- a) o'z xohishingiz bilan;
  - b) ha, agar iltimos qilishsa;
  - v) hech qachon.
20. Graf Monte Kristo davrida yashayapman deb faraz qiling, siz qamoqxonadasiz va qo'qqisdan qo'shni kamerada sizning ashaddiy dushmaningiz qamalganini eshitib qoldingiz, u bilan muloqotga kirishish maqsadida taqillatishni boshlaysizmi?
- a) darhol;
  - b) yolg'izlikka toqat qilmagan paytingizda;
  - v) hech qachon.
21. Yangi yilni ko'pxiliq davrasida, masalan, shahar bosh maydonida kutib olish odatingiz yoki xohishingiz bormi?
- a) ha;
  - b) yo'q;
  - v) odatda yangi yilni bir o'zim kutib olaman yoki uxlayman.

### Natijalar izohi

Jadvalda so'rovnomada keltirilgan savollarga javob kaliti keltirilgan. Undan muloqotmandlik hususiyatingiz qay darajada rivojlanganligini bilib olasiz.

233-310 ball to'plagan bo'lsangiz, u holda Sizda "muloqotmandlik" kuchli rivojlangan.

78-232 ball to'plagan bo'lsangiz, u holda Sizda bu hususiyat o'rtacha rivojlangan.

0-77 ball to'plagan bo'lsangiz "muloqotmandlik" hususiyati past rivojlangan.

Savollar tartibi	Ballar miqdori		
	A	B	V
1	20	5	0
2	0	5	25
3	5	10	0
4	10	0	5
5	0	5	10
6	5	15	0
7	30	5	0
8	15	5	0
9	0	5	10
10	0	5	10
11	5	10	0
12	0	5	10
13	20	5	0
14	0	5	15
15	10	0	5
16	15	5	0
17	25	5	0
18	0	5	10
19	0	5	10
20	20	5	0
21	5	0	10

### "Yolg'izlikka moyilmisiz?" testi

1. Ishdan keyin shahar bo'ylab yolg'iz sayr qilishga moyilligingiz bormi?  
a) ha;                      b) yo'q.
2. Shahardan tashqarida dam olish uchun hamroh topilmay qolsa, fojia bo'ldi deb o'ylaysizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
3. Do'stingiz bilan to'rt soatdan keyin uchrashishga kelishdingiz. Shu vaqt orasida biror ish bilan shug'ullana olasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
4. Yolg'iz o'zingiz gulhan yolqiniga qarab o'tirishni yoqtirasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
5. Biror muhim ish bilan mashg'ul bo'lgan paytingizda telefon ko'ng'irog'i yoki odamlarning gurungi g'ashingizga tegadimi?  
a) ha;                      b) yo'q.
6. Yayov yurishni yoqtirasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.

7. Yangi yilni yolg'iz o'zingiz yaxshi kayfiyat bilan kutib olasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
8. Tug'ilgan kuningizga ko'p mehmon taklif qilasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
9. Notanish odamlar davrasida o'zingizni erkin his qilasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
10. Begona shaharda kerakli manzilni topa olmagan paytda o'zingizni qanday tutasiz?  
a) noqulay;                      b) yomon.
11. Boshqalarga sovg'a qilishni yoqtirasizmi?  
a) ha;                      b) yo'q.
12. Aktyor bo'lishni orzu qilganmisiz?  
a) ha;                      b) yo'q.

### **Natijalar izohi**

“Ha” javoblar: 1,3, 4, 5, 6, 7, 10 b, 12.(1 ball), “Yo'q” javoblar: 2, 8, 9, 12. (1 ball) qo'yiladi. 10-savolning “b” variantini tanlagan kishiga 2 ball qo'yiladi. Agar siz 8 baldan yuqori to'plagan bo'lsangiz, yolg'izlikka nisbatan maylingiz yetarli darajada kuchli rivojlangan. 4 balldan 8 ballgacha bo'lsa o'rtacha; 4 ballgacha bo'lsa yolg'izlikka nisbatan maylingiz kuchsiz rivojlangan.

### **Muloqotga kirishuvchanlikni aniqlash metodikasi**

#### *Berilgan savollarga “ha”, “yo'q”, “ba'zan” deb javob bering.*

1. Ish yuzasidan uchrashuv o'tkazish kerak. Uni kutish sizni hayajonlantiradimi?
2. Vrach xuzuriga borishni oxirgi vaqtgacha qoldirasizmi?
3. Anjuman, simpozium va yig'ilishlarda ma'ruza, informatsiya va habarlar bilan qatnashish sizda noxush holatni vujudga keltiradimi?
4. Sizga hech qachon bo'lmagan shahringizga xizmat safariga borish taklif qilindi. Bu xizmat safaridan voz kechish uchun imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'z kechinmalaringizni boshqalar bilan o'rtoqlashishni yoqtirasizmi?
6. Ko'chada notanish kishi sizga iltimos bilan (vaqtni aytish, yo'lni ko'rsatib yuborish va boshqalar) murojaat qilsa achchiqlanasizmi?
7. “Ota va bola” muammosining mavjudligi, turli avlod vakillari bir-birini tushunishi qiyin ekanligiga ishonasizmi?
8. Tanishingizga sizdan bir necha oy avval olgan qarzini berishini unutib quyganini eslatishga uyalasizmi?
9. Restoran yoki oshxonada sizga sifatsiz taom berishdi? Asabiylashmay jimgina tarelkani surib qo'yasizmi?
10. Notanish kishi bilan yolg'iz qolganda siz suhbat boshlaysizmi?
11. Siz uzundan-uzoq navbatlardan cho'chiysizmi? (magazin, kutubxona, kino-teatr). O'z xohishingizdan voz kechasizmi yoki navbatda turib, kutasizmi?
12. Janjalli vaziyatlarni hal qiladigan komissiyalarda ishtirok etishdan qo'rqasizmi?
13. Adabiy asarlar, san'at, madaniyat asarlarini baholashda o'z bahongiz mavjudmi? Boshqalar fikrini e'tiborga olasizmi?
14. Sizga yaxshi tanish bo'lgan masala yuzasidan hato fikrni eshitib, jim tura olasizmi?(janjalga aralashmaslik uchun)
15. Biror kishi u yoki biror xizmat yuzasidan muammoni hal qilish uchun yordam so'rasa norozilik tug'iladimi?
16. O'z nuqtai nazarangizni (fikringizni) og'zakiga qaraganda yozma holda to'la bayon eta olasizmi?

### Natijalar izohi

Har bir “ha” javob uchun-2 ball, “ba’zan”-1 ball, “yo’q”-0 ball beriladi. Umumiy ball qushib hisoblanadi.

**30-32 ball** — Siz muloqotga kirishishga qiynalasiz. Lekin sizning tanishlaringizga ham qiyin. Chunki guruhiy bajariladigan vazifalarda sizga ishonish qiyin.

**25-29 ball** — Siz, yolg’izlikni yoqtiradigan kishisiz. Yangi ishdagi aloqalar sizni anchagacha muvozanatdan chetga chiqaradi.

**19-24 ball** — Siz, muloqotga tez kirishuvchisiz, notanish vaziyatda o’zingizni yaxshi tutasiz. Yangi muammolar sizni cho’chitmaydi. Yangi topshiriqlar bilan silliq munosabatda bo’lasiz.

**14-18 ball** — Sizda muomalaga kirishish normada. Ko’p narsani bilishga qiziqasiz, suhbatdoshingizni yaxshi tinglaysiz, boshqalar bilan suhbatda o’zingizni bosiq tutasiz, o’z fikringizda qat’iy turasiz. Lekin turli shovqinli, ko’p gaplar bo’ladigan vaziyatlar sizda ko’zg’alishni vujudga keltiradi.

**9-13 ball** — Siz normadan yuqori darajada muloqotga kirishuvchansiz. Ko’p narsani, ko’p gapirishga, turli mavzularda fikrlashni bayon etishga harakat qilasiz. Odamlar bilan tez tanishasiz, barchani e’tiborida bo’lishga, qo’lingizdan kelmasa ham boshqalar iltimosini bajarishga harakat qilasiz.

**4-8 ball** — Siz haddan tashqari muomalaga kirishuvchansiz. Barcha sohalar bo’yicha ma’lumotga egasiz. Turli bahs va tortishuvlarda ishtirok etishga harakat qilasiz. Har qanday mavzuda, u sizga judayam yuzaki tanish bo’lsa ham so’z olishingiz mumkin. Har qanday ishni uddasidan chiqa olmasangiz ham harakat qilib ko’rasiz.

**3-va undan kam bo’lsa** juda ko’p gapirasiz, o’zingizga aloqador bo’lmagan narsalarga ham aralashaverasiz. Boshqalar uchun siz bilan, uyda, ishda va boshqa joyda muomalada bo’lish juda qiyin.

### Ota-onalarning o’z farzandlari bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlarni aniqlash metodikasi

1. Oilangizda o’zaro bir-birini tushunish shakllanganmi?
2. Farzandingiz siz bilan ko’ngildan gaplasha oladimi?
3. Farzandingiz sizning ishlaringiz bilan qiziqadimi?
4. Farzandingizning do’stlarini taniysizmi?
5. Ular sizning uyingizda bo’lib turishadimi?
6. Farzandingiz uy yumushlariga qarashadimi?
7. Farzandingizni uy vazifalarini tekshirib turasizmi?
8. Farzandingiz bilan sizni birgalikda bajaradigan qiziqishingiz bormi?
9. Farzandingiz bayramlar tadbirlarida qatnashadilarmi?
10. Farzandingiz bayramlarda u bilan birga bo’lishingizni xohlaydimi?
11. O’qilgan kitoblarni farzandingiz bilan muhokama qilasizmi?
12. Farzandingiz bilan birgalikda teatr, kino, muzey, konsertlarga borasizmi?
13. Televideniya beriladigan kinofilmlarni farzandingiz bilan muhokama qilasizmi?
14. Farzandingiz bilan sayr qilasizmi?
15. Ta’tilingizni farzandingiz bilan o’tkazish rejangizda bormi?

### Natijalar izohi

“Ba’zan” degan javoblar uchun 1 ball, “yo’q” javoblari uchun 0 ball. Hamma ballar hisoblab chiqiladi. Agar siz 20 balldan yuqori to’plasangiz, farzandingiz bilan munosabatlar normal, 10-20 ball to’plasangiz qoniqarli, 10 balldan kam to’plasangiz esa farzandingiz bilan muloqotingiz yetarli darajada emas degani. Uni yaxshilash haqida o’ylang.

### Mahliyo etish (attraksiya)ni shakllantirish testi

1. Suhbatdoshingiz didingizga mos tushmasa, suhbatni tezroq tugatishga harakat qilasizmi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon
2. Suhbatdoshingizni fe'l-atvori (yuz, ko'z harakatlari) g'ashingizga tegishi mumkinmi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
3. Suhbatdoshingizni noo'rin iborasi qo'pollikni keltirib chiqaradimi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
4. Sizga vujudi bilan talpinayotgan notanish inson muloqotini rad etasizmi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
5. Suhbatdoshingizni so'zini bo'lish odatingiz bormi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
6. Boshqa narsalar to'g'risida hayol sura turib, xo'jako'rsinga ish tutasizmi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
7. Suhbatdoshingizni nasl-nasaliga qarab, ovozingiz, yuz harakatingiz, fikr bildirishingiz o'zgaradimi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.
8. Suhbatdoshingiz Siz uchun "asabbuzar" mavzudan og'iz ochsa, uni o'zgartirasizmi?
  - a) hamisha;
  - b) ko'pincha;
  - v) ba'zan;
  - g) juda kam;
  - d) hech qachon.

9. Suhbatdoshingiz nutqidagi galizliklarni tuzatib turasizmi?  
 a) hamisha;  
 b) ko'pincha;  
 v) ba'zan;  
 g) juda kam;  
 d) hech qachon.
10. Muloqot jarayonida mensimaslik, kesatq, kinoya holatlariga yo'l qo'yasizmi?  
 a) hamisha;  
 b) ko'pincha;  
 v) ba'zan;  
 g) juda kam;  
 d) hech qachon.

### Test kaliti quyidagicha:

- a) hamisha- 2 ball;  
 b) ko'pincha- 4 ball;  
 v) ba'zan- 6 ball;  
 g) juda kam- 8 ball;  
 d) hech qachon- 10 ball.

O'rtacha daraja- 55 ball.  
 O'rtadan yuqori- 65 ball.  
 Yuqoridan pastroq- 75 ball.  
 Yuqori- 85 ball.  
 O'ta yuqori- 86-100 ball

### Siz bilan muloqot qilish huzurbaxshmi?

1. Siz gapirishdan ko'ra tinglashni yoqtirasizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
2. Siz notanish odam bilan ham so'zlashishga sabab topa olasizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
3. Siz hamisha suhbatdoshingizni diqqat bilan tinglaysizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
4. Siz maslahat berishga qiziqasizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
5. Suhbat didingizga mos tushmasa uni suhbatdoshingizga sezdirasizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
6. So'zlaringizga quloq solmasalar jahlingiz chiqadimi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
7. Har qanday masala yuzasidan shaxsiy qarashingiz bormi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
8. Suhbat mavzusi Sizga notanish bo'lsa, uni davom ettirishni xohlaysizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
9. O'zingizga hammani mahliyo qilishni ep ko'rasizmi?  
 a) ha;                      b) yo'q.
10. Asosiy fanlar bo'yicha mukammal bilimga egamisiz?  
 a) ha;                      b) yo'q.
11. Siz suhandonmisiz?  
 a) ha;                      b) yo'q.

### Test kaliti:

“ha”: 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10, 11; “Yo’q-4, 5.

Har bir mos tushgan javobga 1 ball qo’yiladi.

Muloqotning ho’zurbaxshli darajasi baholanish qiymati bilan aniqlanadi:

1-3 ballgacha: Siz bilan muloqot qilish ho’zurbaxsh emas, ba’zan hatto hijolatda qolasan kishi;

4-9 ballgacha: Siz hamisha yoqimli va ziyrak suhbatdoshsiz, lekin kayfiyatingiz buzilganda hayolparishonsiz;

10-11 ballgacha: Siz juda huzurbaxsh muloqotdoshsiz, ammo kalaka qila ko’rmang.

### So’z boyligining faollik darajasini aniqlash metodikasi

Talabalarga 300 ta so’zdan kam bo’lmagan erkin mavzuda insho yozish topshiriladi. Birorta rasm yoki kinofilmga taqriz yozishlari ham mumkin, quyidagicha tahlil qilinadi:

— nutq namunasidagi so’zlarning umumiy soni;

— matnda faqat bir martagina qo’llanilgan so’zlarning soni;

— nutq namunasining birinchi yuzligi, ikkinchi yuzligi va uchinchi yuzligida uchragan so’zlar soni. Natijalarni quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Sinaluvchining ismi sharifi	Nutq namunasi turi va soni	So’zlarning umumiy soni	Turli so’zlarning soni	Faqat bir marta qo’llanilgan so’zlar soni	Sinaluvchining tutgan o’rni

### “Siz o’zingizga qanday munosabatda bo’lasiz?”

1. Sizni, nimanidir gapirmaslik yoki qilmaslik kerakligi haqidagi fikr qanchalik bezovta qiladi?

a) juda tez.

b) ba’zan.

v) deyarli hech qachon.

2. Agar siz ajoyib va hozirjavob, bilimdon odam bilan muloqotda bo’lsangiz, unda siz;

a) uni hozirjavoblikda, bilimdonlikda yengib o’tishga harakat qilasiz.

b) musobaqaga kirishib ketmasdan, uning hurmatini joyiga qo’yib suhbatdan chiqasiz.

v) suhbatni davom ettirasiz va keyin tanishlaringizga gapirib berish uchun uning hazillarini eslab qolishga harakat qilasiz.

3. Quyidagi fikrlardan, o’zingizga eng yaqin bittasini tanlab oling;

a) ko’pchilik uchun omaddek tuyulgan narsalar, aslida tinimsiz mehnatning natijasidir.

b) muvaffaqiyatlar ko’pincha vaziyatlar, sharoitlarning baxtli duch kelishiga bog’liq.

v) murakkab vaziyatlarda muhimi-qat’iyatlilik yoki omad emas, balki sizni ma’qullaydigan va tinchlantira oladigan odamdir.

4. Sizga hajviy rasmingizni yoki sizga yozilgan parodiyani ko’rsatishdi. Siz:

a) kulasiz va Sizda original nimadir borligidan xursand bo’lasiz

b) Siz ham o’sha odamdan nimadir kulguli narsani topishga va kulishga harakat qilasiz

v) hafa bo’lasiz, lekin buni sezdirmaslikka harakat qilasiz

g) eshikni yopib chiqib ketasiz.

5. Siz doimo shoxsilasiz, sizga vaqt yetishmaydi yoki qiladigan vazifani bajarishga kirishasiz

a) ha.

b) yo'q.

v) bilmadim.

6. Siz dugonalaringsizga, tanish qizingizga sovg'a qilish uchun atir (dusi) tanlayapsiz, qanaqasini horid qilasiz?

a) o'zingizga yoqadigan duxini.

b) o'zingizga shaxsan yoqmasada, lekin sizning o'ylashingizcha dugonangiz xursand bo'ladigan duxini.

v) yaqinda televizorda reklama qilingan duxini.

7. Siz o'zingizni, hayotdagiga qaraganda mutlaqo boshqacha his qiladigan vaziyatlarda tasavvur qilishni yeqtirasizmi?

a) ha.

b) yo'q.

v) bilmadim.

8. Agar sizni hamkasblaringiz (ayniqsa yoshlari) sizga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishsa, bu sizning nafsoniyatingizga tegadimi?

a) ha.

b) yo'q.

v) bilmadim.

9. Kimnidir rad etish, sizga qoniqish hissini beradimi?

a) ha.

b) yo'q.

v) bilmadim.

10. Ko'zingizni yuming va o'zingizni uch xil rangni ketma-ketlikda tasavvur qilishga urinib ko'ring

a) havo rang

b) sariq

v) qizil

### Natijalar izohi

Quyida keltirilgan kalit yordamida ballaringizni hisoblab chiqing.

Savollar javoblar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<i>a</i>	1	5	6	3	1	5	1	1	5	1
<i>b</i>	3	1	1	4	5	3	5	5	1	3
<i>v</i>	5	3	3	1	3	1	3	3	3	5

**50-36 ballar** - Siz o'zingizdan rozisiz va o'zingizsiz. Sizning boshqalardan ustunlik qilishingiz katta, o'z "men"ingizni takidlashni, o'z "men"ingizni alohida ajratib ko'rsatishni yoqtirasiz, biroq o'zingiz boshqalarni tanqid qilishga moyilsiz. Sizning ballaringiz qanchalik ko'p bo'lsa, Sizga "O'zingizni yoqtirasiz, lekin boshqalarni yoqtirmaysiz"-degan ta'rif ko'proq mos keladi. Biroq, sizning bitta kamcxiligingiz bor, o'zingizga haddan tashqari jiddiy yondashasiz, hech qanday tanqidiy ma'lumotni qabul qilmaysiz. Hatto, agar test natijalar sizga yoqmasa ham, siz ulardan "hammasi yolg'on, noto'g'ri"-deb o'zingizni himoya qilasiz. Afsus...

**37-24 ballar** - Siz o'zingiz bilan kelishib yashaysiz, o'zingizni bilasiz va o'zingizga ishonishingiz mumkin. Shaxsiy xarakter sifatida ham, odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarda ham qiyin vaziyatlardan chiqa olish yo'llarini topa olishdek qimmatli malakaga egasiz. Sizning o'zingiz va atrofingizdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlaringiz formulasini "o'zidan rozi,



boshqalardan rozi” iborasi bilan ifodalash mumkin. Sizning o’z-o’zingizni baholashingiz sog’lom va normal. Siz o’zingiz uchun dalda va kuch-quvvat manbai bo’la olasiz, eng muhimi bularga boshqalarning hisobidan erishmaysiz.

**23-10 ballar** - Ehtimol siz o’zingizdan narozni bo’lsangiz kerak, sizni o’z intellektingiz, qobilatingiz, tashqi ko’rinishingiz, yoshingiz, jinsingiz va boshqalardan qoniqmaslik, shubhalanish qiynaydi. To’xtang! Kim sizga o’zini yaxshi kurmasligini aytdi. Hech kim o’zini yomon ko’rmaydi. Kim sizni o’zini o’ylaydigan odam doimo o’zidan norozni bo’lishi kerakligiga ishontirdi. Albatta hech kim sizdan o’zingizdan rozi bo’lishingizni, o’zingizdan qoniqishingizni talab qilmaydi, biroq siz o’zingizni o’zingiz qabul qilishingiz, o’zingizni-o’zingiz hurmat qilishingiz kerak.

### “Hayotga munosabatni aniqlash” testi

Ushbu hazil test yordamida umuman unchalik hazil bo’lmagan narsani-ya’ni yigit va qizlarni hayotga nisbatan bo’lgan munosabatlarining reallik darajasini aniqlash mumkin. Quyidagi savollarga taklif etilgan “ha” yoki “yo’q” javoblaridan birini tanlab javob bering.

T/r	Izohlar	Ha	Yo’q
1	Gazetani qo’lingizga olganingizdan so’ng undan biror nimani o’qishni boshlashdan oldin unga qarab chiqasizmi?		
2	Jahlingiz chiqqan vaqtlarda odatdagidan ko’proq ovqat yeysizmi?		
3	Ovqatlanayotgan vaqtingizda o’z ishlaringiz haqida o’ylaysizmi?		
4	Qarama-qarshi jins vakillari bo’lgan tanishlaringizning xatlarini saqlaysizmi?		
5	Sizni psixologiya qiziqtiradimi?		
6	Siz katta tezlikda yurishdan (transport vositasini katta tezlikda haydashdan) qo’rqasizmi?		
7	O’lim haqidagi fikrlardan qochasizmi?		
8	Uyquga ketishdan oldin yotib hayol surishni yoqtirasizmi?		
9	Sakkiz soatli uyqudan keyin ham o’ta charchash holatini his qilaysizmi?		
10	Ishq-muhabbatga oid romanlarni o’qiysizmi?		
11	O’zingizning shaxsiy qiyinchiliklaringizni boshqalar bilan baham ko’rasizmi?		
12	Yolg’izlikdan qochasizmi?		
13	Ko’ngilsizlik, noxushliklar tufayli kasal bo’lib qolgan hollaringiz bo’lganmi?		
14	Sizda o’yga tolib qolib, bekatingizdan o’tib ketgan hollaringiz bo’lganmi?		
15	Sizda boshqa shaharda yashash istagi yuzaga kelganmi?		
16	Siz inson xarakter ini nasliy xislat deb hisoblaysizmi?		
17	Agar repertuarda (ayniqsa) sevgi haqidagi filmlar bo’lsa, siz kinoga tez-tez borasizmi?		

### Natijalar izohi

Har bir ijobiy javob uchun o’zingizga 5 balldan qo’ying, jami ballar yig’indisini hisoblang.

**75-85 ball;** Kallasini qumga yashirib, atrof borliqdan o'zini yashirgan tuyaqushdek siz ham o'zingizni borliqdan yashirib yurasiz. Sizga gohi-gohida bo'lsada, voqelikka tik qarash halaqit qilmaydi. Bu sizga yaxshiroq orientatsiya qilish va turli ko'ngilsizliklardan o'zingizni nisbatan muvaffaqiyatliroq himoya qilishga yordam beradi.

**55-75 ball;** Sizning orzularingiz hamma vaqt ham hayotning achchiq haqiqatiga mos kelavermaydi. Bu albatta, sizga halaqit qiladi, biroq bunga haddan tashqari ortiqcha e'tibor va ruhiy quvvat ajratavermang. Barcha qiyinchiliklar va hayot tashvishlarining (sizning nuqtai-nazaringizdagi) mutloq yechimini qidirishning hojati yo'q. Shuni yodda tutingki, "yulduzlar, ular ko'rinmagan vaqtlarda ham porlab nur sochaveradi".

**30-50-ball;** Siz orzularingiz va real voqelik o'rtasidagi muvozanat o'rnata olgansiz. O'zingizga xos bo'lgan xayolparastlik va mavjud real imkoniyatlar o'rtasida bundan bu yog'iga ham muvozanatni yanada takomillashtirib borishga harakat qiling. Bu sizga hayolparastlik va umuman hech nimaga intilmaslikdan kutulishga yordam beradi.

**5-25 ball;** Siz haddan tashqari yerga yaqinlashgan, orzu, hayollarga berilmaydigan, pragmatiksiz. Sizga bir oz romantikroq va xayolparastroq bo'lishlik halaqit qilmaydi. Hayot albatta jiddiy narsa, lekin ba'zan yumor hissi ham ayrim to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi.

### **“Yolg'izlik darajasini aniqlash” testi**

O'zingizni yolg'iz his qilishingiz darajasini aniqlashni xohlaysizmi? Unda quyida keltirilgan holatlarning har birini diqqat bilan o'qib chiqing va ularning har biri sizda qay darajada kuzatilganligini taklif etilgan “hech qachon”, “kamdan-kam”, “ba'zan”, “tez-tez” javoblaridan o'z fikringizga ma'qulini tanlab javob bering. Javoblar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Imkon qadar tez ishlashga va samimiy javob berishga harakat qiling.

<b>T/r</b>	<b>Holatlar</b>	<b>Hech qachon</b>	<b>Kamdan kam</b>	<b>Ba'zan</b>	<b>Ko'pincha</b>
1	Men atrofdagi odamlar bilan kelishib ketishimni, ular bilan kirisha olishligimni his qilaman.				
2	Do'stona muloqotlarimning yetishmasligini, kamligini his qilaman.				
3	Men murojaat qilishim mumkin bo'lgan hech kim yo'q.				
4	Men o'zimni yolg'iz deb his qilmayman.				
5	Men o'zimni do'stlarim guruhining bir qismiman deb hisoblayman.				
6	Mening atrofimdagi odamlar bilan ko'plab umumiylikim bor				
7	Men o'zim bilan o'zim ovora odamman.				
8	Atrofigidagilardan hech kim mening qiziqishlarim va fikrlarimga kuxilmaydi.				
9	Men odamlarga oson yaqinlasha oladigan odamman.				
10	Shunday odamlar borki, men ularga nisbatan chuqur, iliq munosabatni his qilaman.				
11	Men o'zimni tashlandiq, hech kimga kerak emas deb his qilaman.				
12	Mening ijtimoiy aloqalarim unchalik kuchli				

	emas.				
13	Hech kim meni haqiqatan (kimligimni) bilmaydi.				
14	Men o'zimni boshha odamlardan izolyatsiyalangan (ajralib qolgan) odamman deb his qilaman.				
15	Agar men xohlasam, do'stlar ortira olishim mumkin.				
16	Meni haqiqatan ham tushuna oladigan odamlar bor.				
17	Men odamlardan shu qadar ajralib qolganligim uchun baxtsizman.				
18	Odamlar mening atrofimda, lekin men bilan emas.				
19	Men gaplasha olishim mumkin bo'lgan odamlar bor.				
20	Men murojaat qilishim mumkin bo'lgan odamlar bor.				

### Test kaliti

T/r	Hech qachon	Kamdankam	Ba'zan	Ko'pincha
1	4	3	2	1
2	1	2	3	4
3	1	2	3	4
4	4	3	2	1
5	4	3	2	1
6	4	3	2	1
7	1	2	3	4
8	1	2	3	4
9	4	3	2	1
10	4	3	2	1
11	1	2	3	4
12	1	2	3	4
13	1	2	3	4
14	1	2	3	4
15	4	3	2	1
16	4	3	2	1
17	1	2	3	4
18	1	2	3	4
19	4	3	2	1
20	4	3	2	1

### Natijalar izohi

**22 dan kam bal** yiqqan odamlar yolg'izlik darajasi juda past bo'lgan odamlar hisoblanadi.

**22 dan-32 ballgacha;** yolg'izlik darajasi past bo'lgan odamlar hisoblanadi.

**32 dan-52 ballgacha;** yolg'izlik darajasi o'rtacha bo'lgan odamlar hisoblanadi.

**52 dan-62 ballgacha;** yolg'izlik darajasi yuqori bo'lgan odamlar hisoblanadi.

**62 balldan ko'p** olganlar yolg'izlik darajasi juda yuqori bo'lgan odamlar hisoblanadi.

## “Rahbarlik imkoniyati” testi

Siz o'zingizni qanchalik ajoyib rahbar ekanligingizni bilmoqchi bo'lsangiz, u holda quyidagi test savollariga javob bering.

1. Haftaning har bir kuni uchun ish rejasini tuzib chiqasizmi?

- a) Albatta tuzaman.
- b) Agar turli tuman ishlar ko'payib qolsagina tuzaman.
- v) Boshqa qiladigan ishim yo'qmi

2. Har bir ishga raxnamolik qilish uchun o'z vaqtingizni hisoblab chiqasizmi?

- a) Albatta.
- b) Ha, juda bo'lmasa tahminan.
- v) Ba'zida ayniqsa ish ko'p, lekin vaqt oz bo'lgan paytda.

3. Biron bir jiddiy qaror qabul qilishdan oldin, jamoa bilan maslahatlashasizmi?

- a) Ha, ammo faqat o'rinbosarlar bilan yoki kimga aloqador bo'lsa, shu odam bilan.
- b) Ha, mening fikrimni to'ldirishga yordam bera oladigan har bir xodim bilan.
- v) Ba'zida, unda ham vaqt bo'lsagina.
- g) Qarorni o'zim qabul qilaman, keyin esa ularni hafa bo'lmasliklari uchun o'zimni maslahatlashgandek qilib ko'rsataman.
- d) Yo'q, nima qilish kerakligini o'zim yaxshi bilaman.

4. Sizga qanday bir ishni boshqalarga qaraganda puxta va tez qila oladigandek tuyulsa, ammo ishni boshqalar bilan hamkorlikda bajarishingizga to'g'ri kelsa, sizda uni o'zingiz mustaqil bajarish xohishi paydo bo'ladimi?

- a) Yo'q, chunki haqiqatdan ham bu menga shunday tuyulishi mumkin.
- b) Yo'q, chunki yolgiz o'zim qanchalik kuyib pishmayin bari-bir hamkorlikda tezroq bo'lishini tushunaman.
- v) Paydo bo'ladi, lekin hech kimni hafa qilmaslik uchun bu haqida ogiz ochmayman.
- g) Paydo bo'ladi, bu tushunarli, lekin hamma uchun bitta o'zim ishlaymanku!

5. Hatto Sizning fikringizga boshqalar qo'sxilmasalar ham, siz o'z nuqtai nazariningizni hammaga qabul qildirishga urinasizmi?

- a) Ha, agar so'zsiz haq ekanligimga ishonsam.
- b) Ha, o'zinning obro'yimni to'kmaslik uchun.
- v) Fikrim noto'g'ri ekanligini so'zsiz isbotlovchi dalillar keltirgunlariga qadar fikrimni o'tkazishga harakat qilaman.
- g) Yo'q, kalta fahmlar bilan tortishgandan nima foyda.
- d) Yo'q, ko'pchilik xato qilishi mumkin emas.

6. Siz o'z shaxsiyatingizga nisbatan tanqid va tanbehlariga qanday munosabatda bo'lasiz?

- a) Eshitganlarimning hammasini xotirjam o'ylab chiqaman, agarda tanbeh yoki tanqid o'rinli ekanligiga o'zimda ishonch tuygusi tugilsa, u holda xatolarimni takrorlamaslikka harakat qilaman.
- b) Oldin jahlim chiqadi, keyin tinchlangach eshitganlarimdan nima o'rinli yoki nima o'rinsiz ekanligi to'grisida mulohaza yuritaman.
- v) Men tanqid qilgan odamni “ko'ziga cho'p tiqishga” yo'l qidiraman.
- g) Agar hurmat qiladigan odam favqulodda meni tanqid qilsa, jaxlim chiqmaydi, boshqa vaziyatlarda esa bunga e'tibor qilmayman.

## Test kaliti

Javoblar t.k.Nº	Savollar tartibi.					
	1	2	3	4	5	6
A	3	3	0	1	3	3
B	2	2	4	3	2	2
V	0	0	3	2	4	0
G			2	0	1	1
D			1		0	

### Natijalar izohi

**16-20 ochko:** Rahbar bo'lish uchun imkoniyatlaringiz yomon emas. Siz odatda, o'z ish kuningizni to'g'ri tashkil etasiz, qiziqqonlik bilan qaror qabul qilmaysiz, har doim o'z fikringiz bo'lsa ham o'zgalarning fikrini hurmat qilasiz. Hamkorlikdagi ishni bajarayotganingizda "ko'rpani o'zingizga tortmaysiz", yetarli darajada o'zingizga tanqidiy qaraysiz. Boshqalar bilan muloqotga kirishganda siz bosiqsiz va hayrixohsiz. Yagona narsaga e'tibor berishingiz kerak: u ham bo'lsa, ma'lum darajada kelishuvchanlikka, a'yon berishga moyillik. Ba'zida bu moyillik ish tufayli emas, balki munosabatlarni buzishni xohlamasligingiz tufaylidir.

**13-15 ochko:** Sizda rahbarlik qilish uchun hali uyushqoqlik, qat'iyatlilik yetishmaydi. Shu tufayli ko'p o'ylagan narsalaringizni oxirigacha yetkaza olmaysiz. O'z nuqtai nazariningizni himoya qilayotganingizda sizning to'g'ridan-to'g'ri gapirishingizni ustunligingiz deb baholab bo'lmaydi. Ba'zida siz haddan ziyod xissiyotga beriluvchansiz. Ko'proq mulohazalilik va o'zingizni bosib turishlilik sizga halaqit bermagan bo'lur edi. Ammo bularning barchasi ma'lum darajada ochiq ko'ngillilik "qo'ltigingizda" tosh solib yurmaslik xohishi hamda birdaniga bo'lmasa ham o'z xatoyingizni tan olishingiz bilan yuvilib ketadi.

**10-12 ochko:** Sizning ishingizni rejalashtirish xohishining yo'qligi, huddi shuningdek, buni qila olmaslik bilan ham ayblash mumkin emas. Hatto reja tuzsangiz ham unga amal qilishingizga hech qanday kafolat yo'q. Ajablanarlisi shuki, o'z qobiliyatingiz to'grisida fikringizni yumshoq qilib aytganda, yomon emas, shu bilan birga sizning qarorlaringiz eng to'g'ri ekanligiga ishonchingiz ham yo'q. O'zingizni uyoq buyoqqa tashlashda ko'proq siz o'z fikringizda qaysarlik bilan turasiz, goh esa kichkina qarsxilikka ham darrov taslim bo'lasiz. O'z shaxsiyatingizga nisbatan tanqidni dushmanlarning ishi deb qaraysiz. Ammo har doim ham buni tan olavermaysiz.

Siz uchun ko'proq tashkiliylik va boshqalarning fikriga ko'proq qiziquvchanlik zarur, ishda o'z to'gringizda kamroq o'ylashingiz lozim. Ammo ishning o'zi to'grisida emas.

**0-9 ochko:** Sizning asosiy kulfatingiz-"yuqori"ning fikriga qarab ish qilish odatidir. "Yuqori" nohaq ekanligini tushunib tursangiz ham siz hech qachon ularni inkor etmaysiz, ko'rsatmalarni bajarmaslik to'grisida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Buning negizida barcha qolganlarning oqibati kelib chiqadi: ko'rsatmalarga rioya qilinar ekan, o'zingiz fikrlab, nimalarnidir tashkil qilib, tortinib yurishga nima xojat. Shaxsiyatingizga bo'lgan tanqidlarga nisbatan "beparvosiz", deyish mumkin emas, chunki ular sizga tegib ketadi, lekin siz baribir biron narsani o'zlashtirishga intilmaysiz. Hamkorlikdagi ishda odatda siz nima topshirilgan bo'lsa, shuni bajarasiz. Biroq sizda ishga nisbatan qiziqish paydo bo'lsa, unda siz o'zingizda mustaqillik, qat'iylik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qilishingiz mumkin.

## “ O‘z hurmatingizni saqlay olasizmi?” testi

Siz o‘zingizni janjalkash ekanligingizni aniqlamoqchi bo‘lsangiz quyidagi testga murojaat qiling. Agar «a» javobini tanlasangiz «4» ochko; «b» javobni tanlasangiz «2» ochko; «v» javobini tanlasangiz «0» ochko beriladi.

1. Tasavvur qiling, jamoat transportida baxslashuv boshlandi:

- A) Janjaldan qochishga harakat qilasizmi?
- B) Qo‘sxilishingiz, aziyat chekkan kishi tomonini, kim haq bo‘lsa, o‘shaning yonini olishingiz mumkin.
- V) Har doim qo‘sxilasiz va oxirigacha o‘z fikringizning haqligini isbotlashga urinasiz.

2. Yig‘ilishda yo‘l qo‘ygan xatolari uchun rahbariyatni tanqid qilasizmi?

- A) Yo‘q.
- B) Ha, lekin unga nisbatan o‘z shaxsiy munosabatingizga bog‘liq ravishda.
- V) Xatolar uchun har doim tanqid qilasiz.

3. Bevosita boshligingiz sizning fikringizga samarasiz o‘z ish rejasini bayon qilyapti. Fikringizcha, undan afzalroq tuzilgan o‘z rejangizni taklif etasizmi?

- A) Agar boshqalar sizni qo‘llasa, unda ha.
- B) Albatta, siz o‘z rejangizni qo‘llab-quvvatlaysizmi?
- V) Tanqid uchun sizni mukofotdan maxrum etishlaridan qo‘rqasiz.

4. Siz o‘z hamkasblaringiz, do‘stlaringiz bilan bahslashishni yaxshi ko‘rasizmi?

- A) Faqat hafa bo‘lmaydiganlari bilan va bahslashuv munosabatlaringizni buzmasagina.
- B) Ha, lekin faqat prinsipial, muhim masalalar bo‘yicha.
- V) Siz hamma bilan har qanday sababga ko‘ra bahslashaverasiz.

5. Tasavvur qilingki, kasbdoshingizning tartibotchilikdan iborat ixtirochilar tajribaviy ishi ko‘rilayapti, unda dadil fikrlar bilan bir qatorda ham mavjud. Bilasizki, sizning fikringiz hal qiluvchi bo‘lsa, unda qanday yo‘l tutasiz?

- A) Ushbu proektning ijobiy tomonlari to‘grisida ham o‘z fikringizni aytasiz.
- B) Uning ishidagi ijobiy tomonlarini ajratib ko‘rsatasiz va uni davom ettirishga imkoniyat berishni taklif etasiz.
- V) Ishni tanqid qilasiz, chunki novator bo‘lish uchun xatoga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

6. Tasavvur eting: qaynonangiz (eringiz, xotiningiz) sizga har doim iqtisod va tejamkorlik zarurligi to‘grisida gapiradi, o‘zi bo‘lsa doim qimmat narsalarni harid qilsa, Siz unga nima der edingiz?

- A) Agar harid qilgan narsa unga huzur baxsh etsa, uni ma‘qullaysiz?
- B) Bu narsani didsizlikdan deb o‘ylaysiz.
- V) Shundayligi tufayli u kishi bilan har doim janjallashib, so‘kinib yurasiz.

7. Siz chekib turgan o‘smirlarni uchratib qoldingiz, qanday yo‘l tutishga harakat qilasiz?

- A) “Boshqalarning yomon tarbiyalangan farzandlari uchun kayfiyatimni buzib nima qilaman” - deb o‘ylaysizmi?
- B) Unga tanbeh berasiz.
- V) Agar bu xizmat joyida bo‘lganida, ularning adabini berar edingiz.

8. Restoranda ofitsiant sizning haqingizdan urib qolganligini sezdingiz:

- A) Bunday holda u to‘gri bo‘lsa, boraman deb oldindan tayorlab qo‘ygan choychaqani bermaysiz.
- B) Sizning oldingizda boshqatdan hisob-kitob qilishini iltimos qilasiz.
- V) Bu janjal uchun sabab bo‘ladi.

9. Siz dam olish uyidasiz. Ma‘muriyat xodim o‘z vazifalarini bajarish o‘rniga xonalarni tozalashni nazorat qilish, taomlarning xilma-xilligini ta‘minlash bilan shugullanmay, o‘zining ko‘nglini xushlab yuribdi. Bu hol sizni achchiqlantiradimi?

- A) Ha, ammo u o‘z noroziligingizni aytganingiz bilan biron narsalarni o‘zgartirishi amri-mahol.
- B) Uni jazolasalar, hatto ishdan bo‘shatib yuborsalar ham unga arz qilish yo‘lini topasiz.

V) Siz o'z noroziligingizni quyi xodimlarga, ofitsiant va farroshga sezdirasiz.

10. Siz o'smir o'glingiz bilan baxslashib, uning haq ekanligiga ishonch hosil qilasiz. Unda siz o'z xatoyingizni tan olasizmi?

A) Yo'q.

B) Albatta, tan olaman.

V) Nohaq ekanligingizni tan olsangiz, qanday obro'ga ega bo'lishingiz mumkin.

### Natijalar izohi

**30 dan 44 ochkogacha:** Siz farosatli odamsiz, janjalni xohlamaysiz, hatto janjalli holatlarni silliqlab olsangizda, lekin bunday tanqidiy holat lardan osonlikcha qochasiz. Agarda mojarolarga aralashishingizga to'g'ri kelsa, bu sizning xizmat holat ingizda va do'stona munosabatlaringizda qanday aks etishini hisobga olasiz. Siz atrofdagilarga yoqimli bo'lishga harakat qilasiz. Ammo ularga yordam ko'rsatishga har doim ham otlanavermaysiz. Siz bu bilan boshqalar ko'z o'ngida hurmatingizni yo'qotayotganingiz haqida o'ylab ko'rganmisiz?

**15 dan 29 ochkogacha:** Siz to'gringizda janjalkash odam, deyishadi. Sizning shaxsiy va xizmat munosabatlaringiz qanday ta'sir qilishidan qat'iy nazar o'z fikringizda qattiq turasiz. Shuning uchun ham sizni hurmat qilishadi.

**10 dan 14 ochkogacha:** «Siz tortishuv uchun sabab izlaysiz, ammo ularning ko'pxiligi arzimas, ortiqcha. Tanqid qilishni yaxshi ko'rasiz, agarda u sizga foydali bo'lsagina. Hatto siz nohaq bo'lsangiz ham o'z fikringizni o'tkazishga urinasiz. Agar sizni janjal chiqarishni yaxshi ko'radi, deb hisoblashsa ham hafa bo'lmaysiz. O'ylab ko'ring, sizning hulq-atvoringizda nomukammallik majmui yashirinmaganmikan?»

## KO'RISH ILLYUZIYASI



*1-rasm.* Agar diqqat bilan rasmning qora rangli shakllariga qarasak biz chap tomonga nigoh tashlagan hinduning tasvirini ko'ramiz. Rasmdagi qora rangli shakllar oq fonga hajman kichikroq bo'lgani sababli biz eng avvalo, aynan hindu tasvirini ko'rib turibmiz.


Agar diqqatimizni shaklga nisbatan hajman kattaroq bo'lgan oq fonga qaratsak (bu biroz qiyin bo'lishi tabiiy), rasmda bizga orqasi bilan o'girilib turgan shamol xalqlaridan biri (deylik eskimoslar)ning vakili yoki shunchaki qishning sovug'ida qalin kiyingan kishining tasvirini ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

---


<sup>1</sup> Алимova Ф, Жўраева Н, Эргашев П. Кўриш иллюзиялари. Тошкент: 2004.



B



*2-rasm.* Agar diqqatimiz rasmning oq rangli foniga qaratilsa, tasvirda erkak kishining yuzini, agar rasmning qora rangli shakllariga qaratilsa, masqaraboz (Б), sxilliqqurt (Г), it (Ж), qush (Е) va tik turgan odamning (Д) shamoyilini ko'ramiz. E'tibor bering oq fonda kishi yuzidan tashqari mavjud bo'lgan ob'ektlar (baliqcha (Д), sichqon (А)) qora rangli ob'ektlarga nisbatan kechroq payqab olinadi.



**3-rasm.** Agar biz diqqatimizni rasmdagi oq rangli shakllarga (aynan ular hajman kichikligi sababli birinchi navbatda ko'zga tashlanadi) qaratsak, bir necha kishining yuz-qiyofasini ko'ramiz. Bordi-yu, biroz urinib diqqatimizni rasmning qora foni va oq fondagi qora shakllarga qaratsak, biz oddiy o'rta asr shaharlaridan birining ko'chasiga tegishli tasvirni ko'rishimiz mumkin.



**4-rasm.** Ushbu rasmda psihologiyada juda mashhur bo'lgan tasvirlardan biri ifodalangan. Uning siri oddiy. Agar diqqatimiz markazidagi oq rangli shaklga qaratilsa, kimdir ajoyib guldonni, yana ba'zilar oddiy ko'zani ko'rishi mumkin. Bordi-yu, diqqatimiz qora fonga qaratilsa, u yerda biz bir-biriga tikilib turgan ikki kishining yuzini ko'ramiz.




**5-rasm.** So'nggi rasmning hech qanday siri yo'q. Qop-qora fondagi oq shakllar bizga yuzida holi bor, ko'zoynak taqqan kishi qiyofasini ko'rsatib turibdi. Hammasi kundek ravshan. Ammo rasmni o'zingiz tarafga 90 gradusga burib, so'ngra unga qarang-chi. Negadir avval yaqqol ko'rinib turgan qiyofani payqash qiyin bo'lmayaptimi? Qiyofa o'rniga qandaydir yozuvni va harflarni (balki, imzoni) ko'rmayapsizmi?

Biroz mulohaza yuritib ko'ringchi. Bizda esa hozircha shunday faraz paydo bo'ldi: fon hususiyatlari sababli hosil bo'ladigan illyuziyalar nafaqat fon va undagi shakl hajmiga, balki har ikkisining fazodagi joylashuviga ham bog'liq bo'lsa kerak.

**HAR BIRIGA IZOH BERING VA MULOHAZANGIZNI AYTING**





## YOSH PEDAGOGIKA VA PSIHOLOGIYASIGA OID TERMINLAR

<b>Abuliya</b>	(yunoncha abuee-irodani inkor etmoq) - eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.
<b>Abu Ali Ibn Sino</b>	(980-1037) - o'rta asrlarda yashagan buyuk olim. Ibn Sinoning bizga qoldirgan ilmiy ishlari juda ko'p bo'lib, o'sha davr bilimlarining hammasini o'z ichiga qamrab olgan. Ibn Sinoning temperament haqidagi qarashlari psixologiya faniga qo'sxilgan katta xissa bo'ldi. Uning "Tib qonunlari" kitobida psixik o'zgarishlarga katta o'rin ajratilgan.
<b>Abu Nosir Farobiy</b>	(873-950) - sharqdagi buyuk mutaffakkir, ensiklopedist olim. U psixologiyani o'qitish vositalari, odamlarning psixologik tushunchalarini falsafiy tarafdin yoritgan bo'lib, o'z asarlarida odamlar orasidagi ob'ektiv, sub'ektiv, fiziologik, psixologik jarayonlarning rivojlanishiga katta e'tibor bergan.
<b>Avtomatizm</b>	(yunoncha automatos - o'z-o'zidan sodir bo'ladigan) ixtiyorsiz yoki anglanmagan holda amalga oshiriladigan harakatdir.
<b>Avtomatlashtirish</b>	(yunoncha autamatos-o'z-o'zidan sodir bo'ladigan) - mashq qilish orqali turli malakalarni shakllantirish jarayoni.
<b>Avtonom nutq</b>	(yunoncha autos so'zi-nomos, qonun) - bolaning o'z nutqi, ko'p ma'no va noaniq so'zlar bilan xarakterlanadigan ichki nutq, bunday turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bog'liqligi tufayli so'zlarning ma'nosi ham vaziyatga qarab o'zgaradi. Bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o'tish davri bo'lib hisoblanadi. Avtonom nutq teng yoshli bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi.
<b>Avtaritarizm</b>	(lotincha auctoritas - xokimiyat, ta'sir) - buyruq asosidagi talablarga o'ylanmasdan ko'r-ko'rona bo'ysunish. Uni avtoritet so'zi bilan adashtirmaslik kerak.
<b>Agglyutinatsiya</b>	(lotincha agglutinare - yopishtirmoq, yelimplamoq) - mavjud obraz va tasavvur qismlarining bir-biriga "yopishtirib" qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.
<b>Agrafiya</b>	(yunoncha agrafiya - inkor yuklamasi, grapxo-yozaman)-nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi. Agrafiyada odam yozish qobiliyatini butunlay yo'qotadi yoki so'zlarda harflarni tushurib qoldiradi, harflarni qo'sha olmaydi. Agrafiya katta odamlarda bosh miya po'sti faoliyatining buzilishi natijasida ro'y beradi.
<b>Agroziy</b>	idrokning buzilishi. Agroziy miyaning ma'lum bir jarohatlanishida sodir bo'ladi.(ko'rish agroziyasi, eshitish agroziyasi, tuyush agroziyasi)
<b>Adaptatsiya</b>	(lotincha adaptare - moslashtirmoq) - sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi.

Adaptatsiya hodisalarida sezgirlik ortishi hamda kamayishi mumkin; kuchli ta'sirotdan kuchsiz ta'surotga o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi; ta'surot kuchayganda esa, sezgirlik aksincha kamayib boradi. Adaptatsiya qonuniyati barcha sezgilarga xosdir (ko'ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiyasi, teri adaptatsiyasi)

<b>Adekvatlik</b>	(lotincha adaequatus - tenglashtirilgan) - teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.
<b>Adolat</b>	ahloqiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy ong kategoriyasi, insonning dahlsiz huquqlari to'g'risidagi tarixan o'zgarib kelgan tasavvurlari bilan bog'liq. Adolat shaxslarning asli kimligi bilan ularning ijtimoiy fuqarolik huquqlari bilan burchlari, qilmishlari bilan "qidirmishlari", jinoyat bilan jazo o'rtasidagi moslikni taqazo etadi. Bu nisbatlar o'rtasidagi nomutanosiblik adolatsizlik deb baholanadi.
<b>Akkomadatsiya</b>	(yunoncha akkamatatio - moslashish) - ko'zning turli masofadagi narsalarni ko'rishga moslashuvi. Ko'z gavharining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi.
<b>Akmeologiya</b>	(yunoncha akme-yuksak pog'ona, logos-tushuncha, ta'limot) - tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fonomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlari, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganadigan fan.
<b>Aks ettirish nazariyasi</b>	innecos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shakllaridan biri deb qaraladigan nazariya.
<b>Aksedental qobiliyatlar</b>	(lotincha aksedentio - tutib olish) - odamning havf-xatarsiz, saramjon-sarishta faoliyatda bo'lish qobiliyati. Aksedental qobiliyatlarning yoshlarning kasb tanlashi va kasbga yo'llashdagi amaliy ahamiyati katta.
<b>Akseleratsiya</b>	(lotincha akseleratio - tezlanish) - bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y nisbati va jinsiy taraqqiyotning tezlanishi, jadallashishi.
<b>Aksentlash</b>	(yunoncha accetis - urg'u) - narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlarga nisbatan haddan tashqari kuchaytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat hayol faoliyati.
<b>Alaxlash</b>	psixik qo'zg'alishning ko'rsatkichi bo'lib, noto'g'ri xulosa, fikr, qarashlarni tashkil etadi; uni tuzatib bo'lmaydi.
<b>Aleksiya</b>	(yunoncha aleksiya - inkor, lexis-so'z) - o'qishning buzilishi. Miya chap yarim shari po'stloq qismining turli bo'limlari jarohatlanishi natijasida o'qishning izdan chiqishi yoki o'qishni egallashga qobiliyatning yo'qligi.
<b>Ambivalentlik</b>	(yunoncha ambi-tevarak, ikki tomondan, lotincha valenttia-kuch)-bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi (masalan, kulgi



va qayg'u, xursandlik va kulfat). Ambivalentlik-shaxsdagi kuch va ichki nizolarnig namoyon bo'lishi.

<b>Ambitsia</b>	(lotincha ambito-manmanlik) o'ta o'zini sevish, o'z-o'zi bilan fahrlanish, o'z-o'ziga baho berish
<b>Amneziya</b>	(lotincha amneziya-inkor etish, mnesus-xotira) - miyaning turli qismlari va xatti-harakatlari maqsadini aniqlash; reja, loyihalarni ishlab chiqish bilan bog'liq
<b>Amorf</b>	(yunoncha amorpxos)-shaklning rad etilishi
<b>Analizator</b>	(yunoncha analisis - bo'laklarga ajratish) – murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilish. Analizator reseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qismi va miyaning mahsus bo'limlarini o'z ichiga oladi.
<b>Analizatorlarning o'zaro ta'siri</b>	odamdagi sezgilar sohasi birligining namoyon bo'lishi. A.o't tufayli inson tashqi olamni to'liq aks ettiradi. Masalan, odam ob'ektining o'zidan uzoqlashishini ko'radi. Proprioseptif analizatorlar orqali borliqdagi narsa va hodisalarni bilib oladi.
<b>Analogiya</b>	(yunoncha analogia-o'xshashlik) psixik hodisalar va hulq-atvor hususiyatlarining o'xshashligi.
<b>Analitik psihologiya</b>	psihologiyadagi oqim, unga 1913 yili K.G.Yung asos solgan. U psixikani idialistik talqin etib, ong bilan g'ayrishaurlikning o'zaro kompensatsiyasiga asoslangan o'z-o'zini boshqaruvchi sistema deb qaraydi; shunga ko'ra ong g'ayrishaurlik integratsiyasi shaxning bir butunlikka erishishi individuallashish yo'lidir.
<b>Animizm</b>	(lotincha anima-jon) - odam, hayvonot, o'simlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi. Anemizm ibtidoiy din va hozirgi barcha dinlarning asosiy elementidir.
<b>Antisipatsiya</b>	(lotincha anticipation-oldindan bilish, payqash) - odamning hodisalar rivoji, xatti-harakat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati.
<b>Antromorfizm</b>	(yunoncha antropos-odam, morp xe-shakl) hayvonlarni odamga xos psixik hususiyatlar va qobiliyatlarning borligi haqida tasavvur. Hayvonlarning hulqini antromorfik talqin qilish, odamning hayot va faoliyatida ijtimoiy omillarning yetakchi rolini inkor etadi.
<b>Antropogenez</b>	(lotincha atropos-odam, geneses-tug'ilish) - odamning kelib chiqish jarayoni.
<b>An'ana</b>	avloddan-avlodga o'tib boradigon va muayyan jamiyat, sinf, ijtimoiy guruhlar ichida uzoq vaqt saqlanadigan ijtimoiy va madaniy meros elementlari. Muayyan tartib-qoidalar, ahloq normalari, qadr-qimmatlar, g'oyalalar, urf-odatlar, marosimlar va shu kabilar an'ana sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday jamiyatda va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan an'analar bor.
<b>Appersepsiya</b>	(lotincha arga - qarashli, perception-idrok)- shaxs idrokining avvalgi

bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bog'liqligi.

<b>Asab tizimi</b>	hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o'zaro hamda tashqi muhit bilan to'g'rilab, uyg'unlashtirib turuvchi a'zolar tizimi. U organizmning ichki muhitida ro'y beradigan o'zgarishlar va tashqi muhit ta'sirida qo'zg'alib, turli a'zolarga ta'sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.
<b>Assotsiatsiya</b>	(lotincha associatio-birlashtirmoq) - psixik hodisalar orasidagi o'zaro bo'g'lanish, ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik, qarama-qarsilik va b).
<b>Assotsiativ psihologiya</b>	psihologiya fanining yo'nalishi. U tushuntirishning asosiy yo'llari tariqasida assotsiatsiyadan foydalanadi. Psixik hodisalarning mohiyati sifatida talqin etiladi. U ko'proq Angliyada tarqalgan.
<b>Assotsiativ tajriba</b>	kishi psixik holat ining tajribalar hosil qilgan assotsiatsiyalarini aniqlashga qaratilgan tajriba metodi Assotsiativ tajriba birinchi marta nemis psihologi V.Vundt tomonidan qo'llanilgan.
<b>Astenik</b>	(yunoncha astxeneia, holsizlik)-kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish. Bunda odamning uyquasi buziladi va kayfiyati beqaror bo'ladi.
<b>Attraksiya</b>	(fransuzcha attraksion-qiziqib intilmoq, talpinmoq) bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi. "Nima qilmoq kerak?", "Bu holat ni qanday qilib o'zgartirmoq kerak?" degan savollarga javob topadi.
<b>Audivizual idrok</b>	(inglizcha audio-eshitmoq, vision-ko'rmoq) bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilish.
<b>Autizm</b>	(yunoncha auto-o'zim)-individning o'zini atrofdagi odamlardan uzoqlashtirish, o'zining kechinmalariga berilishdan iborat psihologik begonalashuv.
<b>Autogen mashq</b>	(yunoncha autos-o'zim, denos-kelib chiqaman)-o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.
<b>Autsayder</b>	(inglizcha outsider-begona) ijtimoiy psihologiya atamasi bo'lib, psihologik sig'isha olmaganligi tufayli guruh tomonidan inkor etilgan a'zo.
<b>Afaziya</b>	(yunoncha a-inkor yuklamasi, paxasia-nutq) - bosh miyaning ayrim qismlari zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopologik nuqson.
<b>Afsus-nadomat</b>	shaxsiy aybni bilish, o'zining o'tmishi, hozirgi kundagi kamchiliklariga salbiy munosabat bildirish.
<b>Affekt</b>	(lotincha affektus-ruhiy hayojon, ehtiros) - kuchli, jo'shqin va nisbatan

qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat .

<b>Afferentatsiya</b>	(lotincha afferens (afferentis) -keltiruvchi) - tashqi va ichki qo'zg'aluvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo'lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.
<b>Ahloq</b>	shaxsiy jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy hulq qoidalari. Ahloq ijtimoiy ongning o'ziga xos turi bo'lib, odamning jamiyatdagi rolini belgilab beruvchi asosiy omillaridan.
<b>Ahloqiy barkamollik</b>	eng oliyjanob xarakter hislati, har qanday sharoitda ham ahloqiy talablariga qat'iy rioya qilinadigan ahloqiy e'tiqod.
<b>Aql</b>	kishining umumiy bilish qobiliyati bo'lib, uni bilim va tajribalarini egallashga va ularni amalda qo'llashga tayyorligi shu bilan bir qatorda kishining muammoli vaziyatlarda aql farosat bilan o'zini tuta olish.
<b>Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish</b>	insonda yangi harakat, obraz va tushunchalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'p qirrali murakkab o'zgarishlar haqidagi ta'limot. U bir necha bosqichdan iborat: harakatning asoslarini ta'miniy tuzish orqali ifodalash; harakatning moddiy shaklda tarkib topishi; ijtimoiylashgan tashqi nutq; harakatning tashqi va ichki nutqda shakllanishi; nihoyat, oxirgi natijani –interiorizatsiya (aqliy harakatlar).
<b>Aqliy hatti-harakatlar</b>	tashqi muhit va nutqqa suyangan holda idrokning ichki rejalarida bajariladigan hatti-harakat.
<b>Bevositalik</b>	borliqdagi narsa va hodisalarning yordamchi vositalarini qo'llash orqali namoyon bo'ladigan bilish usuli (masalan, haroratni termometr orqali aniqlash).
<b>Bayburova Shoxida Abdullayevna</b>	(1900-79) - O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishga samarali hissa qo'shgan pedagog. 1950 yilda sirdan o'qiydigan pedagogika institutlari talabalari uchun birinchi marta o'zbek tilida "Psixologiya" o'quv qo'llanmasini yozgan.
<b>Bashoratgo'ylik</b>	sezgi a'zolari va aqliy tafakkurga asoslanmagan holda tashqi olamning ob'ektiv hodisalari haqida bilimga ega bo'lish.
<b>Belgi</b>	sezgi a'zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsa va hodisalar yoki ma'lum muloqot jarayonidagi hatti-harakatlarnig vakili- belgisi vazifasini o'tovchi narsa yoki hodisa.
<b>Boshqarish psixologiyasi</b>	psixologiya fanining boshqarish faoliyatini psixologik qonunlarini o'rganuvchi sohasi
<b>Bosh miya</b>	markaziy nerv tizimining old (yuqori oliy) qismi bo'lib. U bosh miya ichida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi. Bosh miyaning o'rtacha og'irligi (odamniki) 1470 g

<b>Vaziyat, gavdaning fazodagi holati</b>	gavda qismlarining o'zaro mutanosiblikda joylashishi. Ba'zi kasalliklarda uning xarakterli o'zgarishi kuzatiladi. Masalan, qorin qattiq og'riganda bemor yomboshlab yotib, oyoqlarini chalishtirib oladi, beli og'riganda esa engashib qoladi va h.k. Kasallik jarayonining kechishi og'ir, o'rtachi, qoniqarli va boshqacha bo'ladi.
<b>Vener Faxner qonuni</b>	qo'zg'ovchi kuchning o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofiziologik qonun.
<b>Vegetativ nerv tizimi</b>	(lotincha vegetation-o'simlik)-nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. V.N.T markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bosh miya tomonidan boshqariladi. V.N.T simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi.
<b>Verbal</b>	(lotincha verbaliz - og'zaki) - atama. Verbal nutq - og'zaki ifodalanadigan nutq.
<b>Vijdon</b>	ahloqiy ong tushunchasi. U yaxsxilik va yomonlikni farqlay olish o'z xatti-harakatlariga ahloqan javob bera olishga qaratilgan ichki e'tiqoddan iborat. Bu o'z-o'zini boshqara olish, nazorat qilish, ahloqiy talablarni boshqarish, qilingan ishlarga javob bera olish.
<b>Gollyutsinatsiya</b>	(lot xallucinatio-alahlash) - real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning hayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixologik hodisa. Gollyutsinatsiya real hodisadek idrok etiladi, shu bilan birga bunday hodisalarni nisbatan salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin.
<b>Genesis</b>	(yunoncha genesis-tug'ilmoq, vujudga kelmoq, rivojlantirmoq) – biror-bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.
<b>Genetika</b>	(yunoncha genetikos - kelib chiqishga oid) - organizmlarning kelib chiqishi, o'zgarishi, ularni boshqarish metodlari haqidagi fan.
<b>Genetik metod</b>	(denetikos-kelib chiqishga oid metodos-tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.
<b>Geniallik</b>	(lotincha genius-aql, zakovat, buyuk istedod) - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.
<b>Daktilologiya</b>	(yunoncha dactlos - barmoq, logos-ta'limot) - harflar va so'zlari qo'l barmoqlarining turli holat lari yordamida ifodalanishdan iborat mahsus nutq shakli. Daktilologiya kar-soqovlarga ta'lim-tarbiya berishga va ularning o'zaro fikr almashinuvlarda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.
<b>Dangallik</b>	psixik hususiyat bo'lib, uchta turda namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishni talab qiluvchi, faoliyatni bajarishni istamaslik, ana shu faoliyatsizlikdan zavq qilish.
<b>Daxshat</b>	affekt holati bo'lib, unda qisqa muddatli qo'rquv boshdan kechiriladi.

<b>Debillik</b>	(lotincha debilis - ojiz, holsiz) - tug'ma yoki turmush jarayonida hosil qilingan aqliy zaiflik.
<b>Diologik nutq</b>	nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko'rsatadi.
<b>Yetakchi faoliyat</b>	faoliyat turlaridan biri bo'lib, bunda ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o'zgarib shakllanadi. Masalan, bog'cha yoshi davridagi o'yin faoliyati.
<b>Yosh</b>	individning ma'lum bir vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psihologik o'zgarishlari kuzatiladi.
<b>Yosh psihologiyasi</b>	psihologiya fani tarmoqlaridan biri bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psihologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.
<b>Yosh davri nizolari</b>	o'ziga xos uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar ro'y beradi. Nevrotik va travmatik tanazullardan farqli o'laroq yosh tanazullari normativ jarayon bo'lib, shaxs rivojlanishida albatta yuz beradi.
<b>Jamoa</b>	maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.
<b>Jamoaning negizi</b>	umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga ta'luqli qarorlarni shaklantiruvchi jamoa a'zolari.
<b>Jon</b>	falsafiy tushuncha bo'lib, jonli material yaratilishining asosidir.
<b>Zavqlanish</b>	biror bir ijodiy ishni ko'rish, eshitish, sezish orqali paydo bo'ladigan psixik holat .
<b>Zoopsihologiya</b>	(yunoncha zoon-hayvon, psixe-ruh, lodos-ta'limot) psihologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadiga soha.
<b>Ideal</b>	(yunoncha idea-g'oya, tushuncha tasavvur) - biror narsaning namunasi, ayrim odam guruh sinf xatti-harakatlari va intilishining belgilovchi oliy maqsad. Ideal shaxsning mukammal sifati va insonlarning o'zaro go'zal munosabatlari, har taraflama rivojlangan odamlar haqidagi tasavvurlar.
<b>Identifikatsiya</b>	(lotincha identifikare-tenglashtirmoq) - shaxsning o'zini-o'zi odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.
<b>Idrok</b>	sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni bevosita yaxlitligicha aks ettirish jarayoni.
<b>Idrokning konstantligi</b>	(lotincha constantis-o'zgarmas, doimiy-idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa, obrazlarning nisbatan o'zgarmasligi, turg'unlik holat i)

<b>Idrokning predmetliyligi</b>	jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni-aborotlarni ichki olam ob'ektiga qaratish hususiyati.
<b>Idrokning butunliyligi</b>	idrok hususiyatlaridan bo'lib, bu sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va hususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok qilishdan iborat.
<b>Ikkilanish</b>	ijod jarayonida "Ha" va "Yo'q"larni bir-biriga taqqoslash natijasida yuz beradigan tafakkur turi.
<b>Ikkinchi signal tizimi</b>	odamga xos shartli reflektor bog'lanishlar tizimi bo'lib, nutq signallarining bevosita ta'sirida shakllanadi. Ikkinchi signal tizimi-birinchi signal tizimi asosida hosil bo'ladi. Bu umumlashgan mavhum tafakkurning asosi.
<b>Illyuziya</b>	(lotincha illisio-aldash)-borliqning noto'g'ri idrok etilishi.
<b>Imidj</b>	shaxsning boshqalar tomonidan tan olinadigan o'ziga xos hususiyatlari.
<b>Individuallik</b>	individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy hususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning takrorlanmasligi.
<b>Individual yondashish</b>	odamga uning individualligini hisobga olgan holda yondashishdan iborat pedagogik usul.
<b>Insoniylik psixologiyasi</b>	psihologiya yo'nalishi bo'lib, o'z tadqiqotining bosh yo'nalishi sifatida shaxs kechinmalari va uning takrorlanmasligini tan oladi.
<b>Introversiya</b>	shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.
<b>Instrospektiv metod</b>	bu odamning o'z-o'zini kuzatishiga asoslangan psihologiya metodi.
<b>Iroda erkinligi</b>	Falsafiy, ahloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o'z-o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq.
<b>Irsiyat</b>	a'zolar hususiyatlarini tarkib topib, mustahkamlanib keyingi avlodga o'tish jarayonlari.
<b>Iste'dod</b>	shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatning yuqori darajasi.
<b>Iste'dodli bolalar</b>	o'zida umumiy va maxsus istedodni namoyon qilgan bolalar. Iste'dodning aqliy rivojlanish darajasini diagnostika qilish orqali tengdoshlari bilan solishtirib aniqlanadi.
<b>Ishonch</b>	psixik holat bo'lib, inson tomonidan qandaydir hodisalarning shak-shubhasiz tan olinishini anglatadi.
<b>Ichki nutq</b>	nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi. U grammatik tuzilishi va mazmunining atroflicha torligi bilan xarakter

	lanadi. Ichki nutq tashqi nutqdan farq qiladi.
<b>Kayfiyat</b>	birorta emotsiyaning barqaror kechishi.
<b>Kasb tanlash</b>	ijtimoiy foydali mehnatga o'z hissiyotin qo'shish zarurligini anglash natijasidagi kasb yo'nalishi.
<b>Kasb-hunarga yo'nalish berish</b>	yoshlarni ishga joylashtirishda ularning xohishlari, qiziqshlari, shakllangan qobiliyat, layoqatiga qarab psixologik pedagogik va tibbiy tadbirlarni o'tkazish.
<b>Keskinlik</b>	insoniylikka qarama-qarshi bo'lgan hususiyat
<b>Kinoya</b>	piching, rad etmoq yoki rozilik. Maqullashning, yolg'on ustidan kulishning bir ko'rinishi.
<b>Kichik guruh</b>	a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kixsilar guruhi.
<b>Kuzatish</b>	psihologiya metodlaridan biri bo'lib, odamning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psihik hodisalar to'g'risida fikrlay olishdan iborat.
<b>Kuzatuvchanlik</b>	shaxs hususiyatlaridan biri, kishining idrok qilish jarayonida kamdan-kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo'ladi.
<b>Ko'nikma</b>	odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. Ko'nikma mahoratning asosini tashkil qiladi.
<b>Laboratoriya</b>	ilmiy muassasa qaramog'idagi ilmiy izlanish, eksperimentlarni olib boruvchi bo'lim.
<b>Laboratoriya tajribasi</b>	psihologiya metodlaridan biri, tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni qat'iy nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.
<b>Limtik tizim</b>	bosh miyaning ayrim emotsional jarayonlar bilan bog'liq qismlarining umumiyliigi.
<b>Mayl</b>	shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyati bilan shug'ullanishga jalb etilganligi. Mayl shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat keltiradi.
<b>Malaka</b>	mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarlishining avtomatlashgan usullari.
<b>Mantiq</b>	fikrlash qonunlari va shakllari haqidagi fan-tafakkurga xos ichki qonuniyatlar, ketma-ketlik, izcxillik.

<b>Mantiqiy xotira</b>	xotira turlaridan materialini ma'no tomonidan o'zaro bog'langa holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.
<b>Mashq</b>	o'zlashtirish maqsadida qayta-qayta bajariladigan harakatlar.
<b>Mashq qilish</b>	ma'lum malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga takomillashtirishga qaratilgan jarayon.
<b>Mashqlarning egri chizig'i</b>	malakalar hosil bo'lish jarayonini chizma usulda tasvirlaydigan egri chiziqlar.
<b>Ma'lumot</b>	bir tartibga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi. Ma'lumot olishning asosiy yo'li o'quv muassasalarida yoki mustaqil o'qishdan iborat.
<b>Ma'naviyat</b>	shaxsning ideal bilimga intilishi va ijtimoiylik yo'lida faoliyat ko'rsatishi. Ma'naviyat insoniylikka olib boradigan yo'ldir.
<b>Mediana</b>	bilimlarning o'rtacha mezonini belgilab beruvchi ko'rsatkich.
<b>Metod</b>	bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.
<b>Mexanik xotira</b>	materialning ma'nosiga tushunmagan holda takrorlashdan iborat xotira.
<b>Mehnat</b>	odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyati.
<b>Mehnatni ilmiy tashkil qilish psixologiyasi</b>	psixologiya sohasi, mehnat jarayonida shaxning qulay psixik hususiyatlariga ko'ra qulay sharoitlarni yaratish qonuniyatlarini o'rganadi.
<b>Mehnat psixologiyasi</b>	turli mehnat faoliyatining psixologik hususiyatlarini o'rganadi. Bundan tashqari mehnat psixologiyasida odamda mehnat ko'nikmasi va malakasini shakllantirishning psixologik asoslari ham o'rganiladi.
<b>Mintalitet</b>	psixik hususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o'ziga xos tuzilishi, yig'indisini anglatuvchi umumlashgan tushuncha. Odatda tafakkurning o'ziga xos uslubi aqliy yondashish yoki nuqtai nazarning betakror bir turini belgilash uchun foydalaniladi.
<b>Milliy xarakter</b>	biror-bir millatga xos hususiyatlar.
<b>Milliy his-tuyg'ular</b>	milliy an'ana, urf-odat, qadriyatga asoslanga xizlar tizimi.
<b>Milliy o'z-o'zini anglash</b>	o'z milliyligini anglash, milliy o'z qadriyat va urf-odatlarga hurmatda bo'lish.
<b>Modellashtirish</b>	bilim ob'ektlarini modellar asosida tahlil qilish. Qandaydir hodisa va jarayonlarning o'rnini bosuvchi, taqdim etuvchi rolini bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq etish va yaratish.



<b>Monizm</b>	dualizmga qarama-qarshi o'laroq dunyodagi barcha hodisalarning asosini bitta narsa yo materiya, yo ruh tashkil qiladi deb ta'lim beruvchi falsafiy ta'limot.
<b>Monologik nutq</b>	bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.
<b>Motiv</b>	ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.
<b>Motivatsiya</b>	odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.
<b>Motivlar kurashi</b>	qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi.
<b>Muammoli vaziyat</b>	bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo'lgan psixologik vaziyat.
<b>Muammoli ta'lim</b>	o'quvchining faolligini oshirishga qaratilgan va o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadigan o'qitish usuli. Bunda o'quvchi ilmiy bilishning ob'ekti qarama-qarsxilklarini yengish usullarini topadi, fikr yuritishni o'rganadi, bilimlari ijodiy o'zlashtiradi.
<b>Muloqot</b>	ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi. Odamlar o'rtasida almashish, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, o'zgarini idrok qilish va tushunib baholash xarakteriga ega.
<b>Musiqiy qobiliyat</b>	shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik hususiyatlari.
<b>Musiqiy psixologiya</b>	san'at psixologiyasining sohasi bo'lib, odamga va uning faoliyatida musiqa faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.
<b>Mo''tadil holat</b>	ongimizda ba'zi fikr, shubha, qo'rquv, harakat mayl kabilarning ixtiyorsiz ravishda paydo bo'lib, uzluksiz ravishda takrorlanishidan iborat ruhiy holat .
<b>Nazariy tafakkur</b>	tafakkur turlaridan biri, hususiyatlarini, qonuniyatlarini ochishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, fandagi fundamental tadqiqotlar nazariy tafakkurga asoslangan.
<b>Nafrat</b>	ehtiyoj, xohish qadriyatlarga qat'iy ravishda salbiy munosabatni ifoda etuvchi shaxs tuyg'usi.
<b>Neyron</b>	asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, asab katakchalari, to'qima va undan uzoqlashuvchi o'simtalardan iborat. Neyronlar markaziy asab tizimiga reseptorlardan qo'zgatuvchanlikni uzatib turadi va markaziy asab tizimidan a'zolarga javob berishni ta'minlaydi. Harakat neyron bir qancha asab to'qimalarini o'zaro birlashtiradi.
<b>Nervlar</b>	tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami. Ular muayyan nerv tolalarni tananing boshqa azolari bilan bog'laydi.
<b>Nutq</b>	odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan

shakli. Muloqotda tildan foydalanish jarayoni. Nutq til bilan funksional jihatdan bog'liq. Nutqning funksional asosi ikkinchi signal tizimi, muvaqqat nerv bog'lashlaridir.

<b>Nutq madaniyati</b>	muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish.
<b>Odob</b>	jamiyatda e'tirof etilgan xalq, odob shaxsning o'zgaralar bilan munosabatida namoyon bo'ladi.
<b>Odamning ichki dunyosi</b>	shaxsning dunyoqarashi, g'oyalari, ideallari, orzulari, qadriyatlarini yig'indisi.
<b>Oila</b>	turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh. Uning a'zolari yagona yashash sharoiti, o'zaro yordam va ahloqiy javobgarlik asosida birlashadi.
<b>Oltinchi sezgi</b>	odamdagi asosiy besh sezgilardan tashqari har xil holatlarda namoyon bo'ladigan sezgi. U biror konkret analizatorning funksiyasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, sportchi-suzuvchilarda suvni sezish.
<b>Ong</b>	ob'ektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning xatti-harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.
<b>Operativ xotira</b>	xotira turlaridan biri. Bu ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalaniladi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalaniladi.
<b>Orzu</b>	shaxsning o'zi uchun qiyin bo'lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi. Orzu shaxsning ehtiyojlari, istak va intilishari bilan bevosita bog'liq.
<b>Pantamimika</b>	(yunoncha pantamimos-hamma narsaga taqlid qiluvchi) - inson gavdasining mimika, imo-ishora, intanatsiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa his-tuyg'ularini ifodalovchi harakatlari.
<b>Patagen</b>	kasallik keltirib chiqaruvchi.
<b>Psixozanaliz</b>	(yunoncha ruh, analiz, bo'linish) - ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyaga asoslangan, Z.Freyd tomonidan asab kasallilarining umumiy nazariyasi va ularni davolash metodi sifatida ilgari surilgan.
<b>Raximov Sulston</b>	(1930-92)-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Psixologiya tarixi bo'yicha qator ishlari bor. "Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari" kitobi muallifi.
<b>Relaksatsiya</b>	(lotincha relaxation - yumshatmoq) - odamdagi jismoniy zo'riqishning psixik keskinligi tugash natijasida bo'ladigan tinchlik, osoyishtalik holati.
<b>Referent guruh</b>	(lotincha referentik - bildiruvchi) - shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

<b>Rivojlanishning eng yaqin zonasi</b>	murakkab vaziyatni hal etishda bolaning mustaqilligi (muhim rivojlanish darajasi) hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidagi farq. Bu tushucha L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, unda asosan rivojlanishning eng yaqin zo'nasini yaratish orqali bolaning psixik rivojlanishi ortadi.
<b>Savodxonlik</b>	og'zaki va yozma nutq malakalarining adabiy til normalariga asosan o'zlashtirilishi.
<b>Sezgilar</b>	psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos hususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va hususiyatlari bo'lib olishni ta'minlaydi.
<b>Sezgi chegarasi</b>	sezgining mutloq chegarasi. Minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar-bilinmas ta'sirini sezishga sezgining quyi chegarasi, qo'zg'ovchining eng yuqori kuchga ega bo'lgan ta'sirini sezishga-sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.
<b>Sezgirlik</b>	o'ta sezuvchanlik, sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etib turgan qo'zg'ovchilarning salgina yoki unchalik farq qilmaydigan ta'sirini farqlay olish qobiliyati.
<b>Tabiiy eksprement</b>	(lotincha ekspreminium-sinov, tajriba) - tekshiruvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.
<b>Tajovuz</b>	bir odamga, odamlar guruhiga jismonan yoki ruhan zarar ko'rsatishga qaratilgan yakka yoki jamoa hulqining hatti-harakati. Tajavuz odamning qahr-g'azab, dushmanlik, ko'ra olmaslik kabi emotsional holatlarida namoyon bo'ladi.
<b>Takabburlik</b>	manmanlik, o'ziga ortiqcha baho berib, o'zgalarni mensimaslikdan yoki kamsitishdan iborat salbiy xarakter xislari.
<b>Tanib olish</b>	oldin esda qoldirilgan narsalarni va qayta idrok qilish orqali obraz tariqasida esda tushirilishdan iborat xotira jarayoni.
<b>Uddalash</b>	muayyan faoliyat turning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi ongli va avtomatlashtirilgan harakatlar tizimi.
<b>Uzoq muddatli xotira</b>	xotira turlaridan. Bu bilimlarni shu bilan birga ko'nikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni ta'minlaydi, hamda g'oyat ko'p hajmdagi axborotni esda tutish bilan xarakter lanadi.
<b>Uyqu</b>	organizmning vaqti-vaqti bilan ro'y beradigan, nisbatan harakasiz holat i. Bunda ong bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqa ma'lum darajada buziladi.
<b>Faoliyat</b>	insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlari tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faoliyat.

<b>Faoliyat mahsulini tahlil qilish</b>	psihologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo'lgan munosabatlari va uni o'zgarishini o'rganish usuli.
<b>Faraz</b>	ma'lum masalani echishning taxmini, uning loyihasi.
<b>Xavotirlanish</b>	individning boshdan kechirish jarayoni bo'lib, aniqmas bir xavf oldidan paydo bo'ladi.
<b>Hayol</b>	mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi.
<b>Xotira</b>	aks ettirilgan narsa va hodisalarni tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon.
<b>Xurofot</b>	ilm-fanga zid bo'lgan turli uydurmalar, irimlarga ishonish, bid'at. U shaxs psixikasiga salbiy ta'sir etadi.
<b>Shakllantiruvchi tajriba</b>	psihologiya metodi, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.
<b>Shartli guruh</b>	odamlarning ayrim belgilari (yoshi, kasbi)ga qarab guruhga birlashuvi.
<b>Shaxs</b>	ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ulanuvchi betakror odam.
<b>Shaxslararo moslik</b>	muloqot va birgalikdagi faoliyatda bo'layotgan odamlarning qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari, xarakter lari, temperamentlari, dunyoqarashlari va shaxslararo o'zaro ta'sir uchun zarur individual psixologik xarakter istikalarning mosligi.
<b>Egizaklar metodi</b>	bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish. Bu metodni Galton taklif qilgan.
<b>Edip kompleksi</b>	bolaning o'z onasini otasidan raqib sifatida rashq qilishi.
<b>Ekspriment tajriba</b>	psihologiyaning asosiy metodlaridan, o'zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa mustaqil holatlarga ta'sir qilishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi.
<b>Emotsiya</b>	(lotincha emavare - uyg'otish, to'lqinlantirish) - odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilarga ta'siriga javob reaksiyasi.
<b>Empatiya</b>	(yunoncha empatia - birlikda dardlashmoq) - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.
<b>O'yin</b>	faoliyat turlaridan biri. Bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak - atrofdan borliqni bilishga qaratilgan

	faoliyatidir.
<b>O'z-o'zini kuzatish</b>	odamning o'z psixik olatlari bilan o'z xatti-harakatlarini o'rganishdan iborat usul.
<b>O'z-o'zining hulqini boshqarish</b>	faollikni boshqarish darajasi. Bunda shaxs o'z hulq-atvorini qilgan qaroriga ko'ra boshqarib, zarur hollarda faoliyatdagi nuqsonlarni tuzatadi.
<b>O'zaro induksiya</b>	nerv jarayonlarining qo'zg'alish va to'rmozlashning o'zaro ta'siri.
<b>O'qish</b>	shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni. O'qish har qanday faoliyatning zaruriy qismlaridan bo'lib, sub'ektni o'zgartirish jarayoni hamdir.
<b>Qaytarma aloqa</b>	barcha murakkab, tizimlarda boshqarish va harakatlarni tartibga solib turishning muhim asosi. Axborot boshqaruvchi a'zolariga harakat natijalari to'g'risida xabar kelganda bajaruvchi a'zolariga buyruq berish shakllanadi.
<b>Qaror qabul qilish</b>	masalani hal qilish, yechish usullaridan birini tanlash.
<b>Qiziqish</b>	shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati. Qiziqish keng va tor, chuqur va yuzaki barqaror bo'lishi mumkin.
<b>Qobiliyatlar</b>	shaxsning ma'lum faoliyatidagi osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik hususiyatlar.
<b>G'azab</b>	jahl chiqishidan iborat emotsional holat . Shaxning ehtiyojlarini qondirish jarayonida biror-bir to'siqlarga duch kelganda yuz beradi.
<b>G'oya</b>	narsa yoki hodisalar haqidagi muayyan tasavvur va tushunchalar yig'indisi. Moddiy olamni aks ettiruvchi inson tafakkurining muayyan tushunchalar shakldagi mahsuli.
<b>Haddan oshish</b>	berilayotgan materialning ortib ketishi natijasida paydo bo'ladigan salbiy his.
<b>Harakat</b>	maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Harakat ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.
<b>Hid bilish sezgisi</b>	sezgi turi, hidlarni aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'sig'ining sxilliq pardasida joylashgan va uning markazi bosh miya po'stloq qismidadir.
<b>Hukm</b>	tafakkur usullaridan, narsa va hodisalar o'rtasida o'zaro biron bir bog'lanishlarni borligini, tasdiqlash yoki inkor qilishda ifodalanadi.

## FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2006.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar., 13-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
6. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Asarlar, 12-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2004.
7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Asarlar, 11-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2003.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2002.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2001.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
13. Karimov I.A. Milliy davlatchilik, istiqloq mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. Tuzuvchilar U.Tadjixonov, A.Saidov. Toshkent: O'zR. IIV akademiyasi, 1999.
14. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
15. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
16. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Tarix. Ma'rifat. Ma'naviyat. Tuzuvchi Abbosxon Usmonov. Toshkent: O'zbekiston, 1998.
17. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar, 5-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
18. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
19. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
20. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
21. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
22. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1996.

### II. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Fanmoni. 1997 yil 6 oktyabr. G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori. 2006 yil 25 avgust. G'G' Xalq so'zi. 2006 yil 26 avgust.

### **III. Darsliklar**

#### **3.1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.**

1. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent: 1997.
2. G'oziev E. Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2003.
3. G'oziev E. Psixologiya. Toshkent: 1994.
4. G'oziev E. Universitetlarda psixologiyani o'qitishni takomillashtirish. Toshkent: 1992
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent: Universitet, 1999.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1994.
7. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Toshkent: 2000.
8. Kruteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
9. Shcherbakov A.I. taxriri ostida. Yosh psixologiyasi va pedagogik - psixologiyadan praktikum. Toshkent: O'qituvchi, 1991.
10. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. Toshkent: 1992.
11. Vohidov M.V. Psixologiya. Toshkent: 1981.
12. Daminov K., Otavaliyev U., Ibrohimov X. Psixologiyadan topshiriqlar. Toshkent: 1992.
13. Davletshin M.G. tahriri ostida. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Toshkent: 1974.
14. Abduraxmonov F. Davletshin M.G. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. Toshkent: 1996.
15. Samarov R. Oilani etnopsixologik o'rganishga yana bir uslubiy yondoshish. X.T. 1998 yil 1-son.
16. Sog'inov N.A., Xabibullaev F.R. O'quvchilar o'rtasida shaxslararo munosabatlarni o'rganish. Toshkent: 1998.
17. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent: 2005.
18. Haydarov F., Jo'raev N., Tojjeva S. Psixologiya tarixi. Toshkent: 2003.
19. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 1992.

#### **3.2. Rossiyada chop etilgan.**

1. Gamezo va b. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya. Moskva: 1984.
2. Petrovskiy A.V. Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya. Moskva: 1979.
3. Umumiy psixologiya, yosh psixologiya va pedagogik psixologiya kursi. Moskva: 1982.

### **IV. O'quv qo'llanmalar**

#### **4.1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.**

1. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'ychieva S. YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiya (ma'ruzalar matni). Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.
2. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Kruteskiy V.A. O'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi psixologiyasi. 1976.
4. Kapyushen G., Deryugina M. Yo'rgakdan maktabgacha. Toshkent: 1996.
5. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 1967.
6. Halilova M.R. Yosh va pedagogik psixologiya (ma'ruzalar matni). Navoiy: 2005.
7. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). Toshkent: 2002.
8. Urumbaeva A.N. Psixologik testlar. Nukus: 2005.
9. Alimova F, Jo'raeva N, Ergashev P. Ko'rish illyuziyalari. Toshkent: 2004.

#### **4.2. Rossiyada chop etilgan.**

1. Kolominskiy Ya.D., Panko Ye.A. Uchitelyu o psixologii detey shestiletneho vozrasta. Moskva: 1988.
2. Lyublinskaya A.A. Uchitelyu o psixologii mladshego shkolnika. Moskva: 1977.
3. Dobrovich A.B. Vospitatelyu o psixologii i psixogigiyene obsheniya. Kn. dlya uchiteley i rukovoditeley. Moskva: Prosv, 1978.
4. Kovalyov S.V. Psixologiya sovremennoy semi. Kn. dlya uchitelya. Moskva: Prosv, 1988.
5. Kon I.S. Psixologiya ranney yunosti. Kn. dlya uchitelya. Moskva: Prosv, 1989.
6. Kronin A.A., Kronina Ye.A. V glavnix rolyax: vi, mi, on, ti, ya. Psixologiya znachimix otnosheniy. Moskva: Misl, 1989.
7. Petrovskaya A.A. Kompetentnost v obshenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening. Moskva: Izd. MGU, 1989.

### **V. Ilmiy monografiyalar va maqolalar**

#### **5.1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.**

1. Leventuev P., Askarxujaev A., Chudnovskiy V., Vohidov M. Bolalar psixologiyasi ocherklari.
2. Davletshin M.G. Psixologicheskaya nauka v Uzbekistane. Psixologicheskiy jurnal. Toshkent: №7, 1986.

#### **5.2. Rossiyada chop etilgan.**

1. Mejevuzovskiy sbornik nauchnix trudov. Moskva: 1988.
2. Jutikova N.B. Psixologicheskie uroki obidennoy jizni. Besedi psixologa. Moskva: Prosv, 1990.

### **VI. Internet saytlar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.pedagogika.uz](http://www.pedagogika.uz)
3. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
4. [www.cabmin.uz](http://www.cabmin.uz)
5. [www.un.org](http://www.un.org)
6. [www.unesco.org](http://www.unesco.org)
7. [www.undf.org](http://www.undf.org)
8. [www.osce.org](http://www.osce.org)
9. [www.koob.ru](http://www.koob.ru)
10. [www.Google.uz](http://www.Google.uz)



## MUNDARIJA

1. Yosh pedagogika va psixologiyasi fanining predmeti va tadqiqot metodlari.....	5
2. Go'daklik davridagi jismoniy va aqliy revojlantirish. Ilk bolalik davridagi rivojlanishning muhim omillari xususida.....	20
3. Maktabgacha yoshdagi o'quvchilarning psixologik hususiyati.....	31
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik hususiyati.....	45
5. O'smirlar psixologiyasi to'g'risida umumiy tushuncha.....	57
6. Ilk o'spirinlik davrining psixologik hususiyatlari.....	71
7. Ilk va o'rta yetuklik davri. Ularning hayotiy faoliyatidagi afzalliklari.....	84
8. Kechikkan yetuklik va undan keyingi psixogerontologiya tushunchasi.....	92
9. Tarbiya psixologiyasi.....	104
10. Pedagogik psixologiya shakllanishining hozirgi holati.....	114
11. Yosh pedagogika va psixologiyasiga oid test savollari.....	124
12. Psixologik testlar.....	134
13. Ko'rish illyuziyasi.....	152
14. Yosh pedagogika va psixologiyasiga oid terminlar.....	159
15. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	175